

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 378.1:15

TULKINIY MADINA TUROBZODA

**BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARINI KASB
TANLASH ISHIGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

5A 110901 – Pedagogika nazariyasi va tarixi

Magistr

akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga

Ilmiy rahbar:

ruxsat berildi.

Maktabgacha ta’lim metodikasi va **p.f.d., prof.N.Shodiyev**_____

pedagogikakafedrası mudiri v.b.

Katta.o‘qit.Sh.Usanov _____

«_____» _____ 2016 y

M.O‘.

SAMARQAND – 2016

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARNI KASB TANLASH ISHIGA TAYYORLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	8
1.1 Talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash-pedagogik muammo sifatida.....	8
1.2. O‘rta asr mutafakkirlarining asarlarida kasb-hunar o‘rganish muammosining yoritilishi.....	17
1.3. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni kasbga yo‘llash bo‘yicha ilmiy-uslubiy ishlarning hozirgi holati.....	33
Birinchi bob yuzasidan xulosa.....	38
II BOB. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHISINI KASB TANLASH ISHIGA TAYYORLASHNING MAZMUNI, SHAKLI, METOD VA VOSITALARI.....	39
2.1. Bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisining kasb tanlash ishiga pedagogik-psixologik tayyorgarligi.....	39
2.2. “Mehnat. Mehnat o‘qitish metodikasi” fanining o‘rganish jarayonida talabalarni kasb tanlash ishiga o‘rgatish.....	52
2.3. O‘qitish metodikasi fanlarini o‘rganish jarayonida talabalarni kasb tanlash ishiga metodik tayyorlash.....	70
Ikkinchi bob yuzasidan xulosa.....	85
III BOB. PEDAGOGIK TAJRIBA VA UNING NATIJALARINING SAMARADORLIGI.....	86
3.1. Pedagogik tajribaning dasturi va metodikasi.....	86
3.2. Pedagogik eksperiment natijalari samaradorligi.....	90
UMUMIY XULOSALAR.....	96
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	98
ILOVALAR.....	104

KIRISH

Ishning dolzarbligi: Ilmiy-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, yosh avlodni mehnatga va kasb tanlashga tayyorlashni tubdan yaxshilash asosida ishlab chiqarishni jadallashtirish birinchi darajali ijtimoiy va iqtisodiy vazifa hisoblanadi.

O'quvchi-yoshlarni kasb tanlashga yo'naltirish nafaqat mehnat tarbiyasining tarkibiy qismi bo'lib qolmay, balki tarbiyaning barcha ijtimoiy institut (maktab, oila va keng jamoatchilik)larning muhim tarbiyaviy ish bo'g'ini hamdir.

Yoshlarni kasbga yo'llash ishi mehnat resurslarini mamlakat xalq xo'jaligida oqilona taqsimlashga, yoshlarga hayot yo'lini tanlashga sezilarli yordam berishiga qaratilgan.

Shu boisdan ham kasb tanlashni ijtimoiy boshqarishning muhim ob'ekti sifatida qarash zarur. U kompleks xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy hayot sohasida amalga oshiriladi, ob'ektiv ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar va shaxsning sub'ektiv xususiyatlarini birlashtiradi hamda jamiyatning o'quvchilarning kasb tanlashga maqsadga qaratilgan ta'sirini amalga oshiradi.

Kasb tanlash tizimini takomillashtirishga, uni bir maromda harakat qiluvchi organizmga aylantirishga ehtiyoj juda katta. Mazkur faoliyatning muhim sharti maktab, oila va keng jamoatchilik, ishlab chiqarish jamoasining o'zaro hamkorlik darajasi kasb tanlash ishini muvofiqlashtirish, o'quvchilarning bo'lajak faoliyatini, kasbni tanlashga rejali tayyorlash orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (Asosiy Qonun) [I.1,-6b.], "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun [I.2,-9b.], "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" [I.3,-16b.], "Maktab, oila va mahalla" Konsepsiyasi, Prezident Farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari ta'limida muassasalari oldida kasb tanlash bo'yicha vazifalarni hal qilishga qaratilgan.

Yosh avlodni kasb-hunar ta'limiga doir fikrlarni uzoq o'tmishimizda Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Mahmud Qoshg'ariy, Kaykovus, Amir Temur, Alisher Navoiy, Jaloliddin Davoniy kabi allomalar o'z asarlarida meros qilib qoldirganlar.

Yosh avlodni kasb tanlashga tayyorlash muammosini ishlab chiqishga N.K.Krupskaya, A.V.Lunacharskiy, S.A.Makarenko, S.T.Shatskiy, P.P.Blonskiy va boshqalar katta hissa qo‘shgan.

Kasb tanlash muammosi nazariyasi va amaliyotining turli jihatlarini P.R.Atutov, S.N.Chistyakova, R.X.Jo‘raev, A.D.Sazanov, N.I.Kalugin, V.D.Simonenka, P.T.Magzumov, N.Shodiev, I.T.Chorievning ishlarida aks ettirilgan. O‘quvchilarni dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda kasb tanlashga tayyorlashni amalga oshirish masalalari A.I.Vorobyov, I.G.Karimov, O.A.Otajonov, K.Davlatov, G.A.Buyanov va boshqalarning dissertatsiyalarida ham muhokama qilingan.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ga muvofiq mamlakatimizda uzluksiz ta’lim shakllanganligi munosabati bilan o‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorlashning shakl va metodlarini yanada shakllantirish dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Umumta’lim maktablarida kasb tanlash ishining holati predmet o‘qituvchilari, sinf rahbarlari tomonidan o‘z ishini qay darajada olib borayotganligiga bog‘liq.

O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda o‘quv predmetlarining imkoniyatlari kattadir. Tajribaning ko‘rsatishicha o‘qituvchilar o‘quvchilarni qiziqtiradigan u yoki bu materialga (kasbga) etarli darajada e’tibor bermaydilar. Aksariyat o‘qituvchilar bu ishga tayyor emaslar. Shu boisdan magistrlik dissertatsiyamizning mavzusini “Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasb tanlash ishiga tayyorlash” deb nomladik.

Tadqiqotning maqsadi: Pedagogik profildagi oliy ta’lim muassasalari talabalarini kasb tanlash ishiga tayyorlashning pedagogik asoslarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ob’ekti: pedagogika, umumkasbiy, metodik fanlarni o‘qitish orqali talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash jarayoni.

Tadqiqot predmeti: oliy ta’lim muassasasi talabalarini o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga tayyorlashning mazmun, shakl, metod va vositalari.

Tadqiqotning vazifalari:

- Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini kasb tanlash ishiga tayyorlash muammosiga bagʻishlangan ilmiy-pedagogik adabiyotlarni oʻrganish va tahlil qilish;
- Talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlashni amalga oshirish maqsadida oʻquv rejadagi umumkasbiy fanlarning imkoniyatlarini namoyon qilish;
- Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarini kasb tanlash ishiga tayyorlashning mazmuni, shakl, metod va vositalarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;
- Tajriba-sinov dasturi va uni oʻtkazish metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy farazi: Agar:

- ✚ Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchisining professiogrammasiga oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirish vazifasi aks ettirilsa;
- ✚ Umumkasbiy turkum fanlarning oʻquvchilarni kasbga yoʻnaltirish boʻyicha imkoniyatlari ishlab chiqilsa va taʼlim jarayonida foydalanilsa;
- ✚ Auditoriyadan tashqari mashgʻulot (kecha, ekskursiya, mavzuli kecha, olimpiada va b.q.)larning kasb tanlash boʻyicha imkoniyatlari namoyon qilinsa;

Tadqiqotning metodologik asoslari: Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov [I.1,-32b.] asarlarida kasb tanlashga doir bayon qilingan qarashlar, mavzuga oid ilmiy-pedagogik, metodik manbalar, shuningdek, “Taʼlim toʻgʻrisida”gi Qonun[I.2,-45b.], “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”[I.3,-33b.] asosida tushuncha va tamoyillar, taʼlim islohotlariga doir Respublika hukumati tomonidan qabul qilingan meʼyoriy hujjatlar tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari: tadqiqot mavzusiga oid falsafiy, pedagogik, metodik, psixologik adabiyotlar va taʼlim mazumnini yorituvchi meʼyoriy hujjatlarni oʻrganish, tahlil qilish, kuzatuv, suhbat, pedagogik tajriba-sinov, ilgʻor pedagogik tajribalarni oʻrganish va umumlashtirish, matematik-statistika.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: ta'lim jarayoniga milliy istiqloq g'oyasini singdirish orqali talabalar ma'naviyatini shakllantirish pedagogik muammo sifatida asoslanganligi; umumkasbiy metodik fanlarning talabalarning kasb tanlash ishiga tayyorlashdagi pedagogik imkoniyatlarning aniqlanganligi; talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlashga doir maqbul metodlar majmuining tavsiya qilinganligi hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar yaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati: pedagogik profil (yo'nalish)dagi oliy ta'lim tizimida umumkasbiy, pedagogik, metodik fanlarni o'qitish jarayonida talabalarning kasb tanlash ishiga tayyorgarligi pedagogik muammo sifatida ochib berildi; umumkasbiy, metodik, pedagogik fanlarning mavjud sohadagi imkoniyatlari yoritib berildi. Tadqiqot muammosiga doir tashkiliy-metodik yo'nalishlar bir tizim sifatida taqdim etildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati: Magistrlik dissertatsiyasida yoritilgan nazariy va amaliy ishlardan pedagogika, umumkasbiy, metodik fanlar bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash, uslubiy tavsiya va ishlanmalar yaratish, tarbiyaviy ishlarni o'tkazish jarayonida samarali foydalanish mumkin. Dissertatsiyada ishlab chiqilgan tavsiyalar o'quvchilarni ongli kasb tanlashlariga ko'maklashadi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi:

Tadqiqot natijalari pedagogik profildagi oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan pedagogika, umumkasbiy, metodik fanlardan dastur, uslubiy tavsiyalar yaratishda, shuningdek, uning asosiy xulosalaridan umumiy o'rta ta'lim ona tili, mehnat ta'limi, jismoniy tarbiya va b.q. ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanishlari mumkin.

Tadqiqot ishini ommalashtirish: Tadqiqot natijalari SamDU, SamVPXQT va MOda o'tkazilgan Respublika konferensiyalari materiallarida chop etildi hamda 2014-2016 yillarda SamDUda o'tkaziladigan magistrantlar anjumanlarida ma'ruzalar shaklida ommalashtirildi.

SHuningdek, hammulliflikda "O'quvchilarni kasbga yo'naltirish" nomli o'quv-uslubiy qo'llanma ko'p nusxada nashr ettirildi. (Sam: SamDU nashr, 2016.-134b.)

Himoyaga quyidagi holatlar olib chiqildi:

- Talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash muhim pedagogik muammo ekanligi;
- Pedagogika, umumkasbiy, metod fanlarning talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash bo'yicha pedagogik imkoniyatlari;
- Pedagogik, umumkasbiy metodik fanlarni o'rganish jarayonida talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorgarligining metod va vositalari;
- Pedagogika, umumkasbiy, metod fanlarni o'qitish jarayonida talabalarni kasb tanlash ishiga doir ilmiy-uslubiy tavsiyalar.

Tadqiqotning tuzilishi: Dissertatsiya, kirish, uch bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

1-BOB. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHILARNI KASB TANLASH ISHIGA TAYYORLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI

1.2 Talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash-pedagogik muammo sifatida

Ma'lumki, qadim Turkistonda azal-azaldan farzandlarni kasb-hunarga yo'naltirish, ularni ilk yoshdanoq ilmu-fan va ma'rifat sirlarini egallashiga katta e'tibor berilgan. Bobolarimiz Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Muhammad Zahiriddin Bobur, Furqat va boshqalar asarlarida ustoz-shogird, kasb-hunar sirlari to'g'risida ko'plab materiallar keltirilgan. Hunarmandlar, ziyolilar va boshqa kasb-hunar egalarining sulolalari munosib baholangan va katta ahamiyat kasb etgan.

“Yigit kishiga etmish hunar oz”, “Hunar, hunardan unar”,

“Hunarni asrabon netgumdir oxir,

Olib tuproqqami ketgumdir oxir”, va h.k.

Mamlakatimizda “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun[I.1,-10b.] Kadrlar tayyorlash Milliy dasturiga asosan yosh avlodni kasbga yo'naltirish to'rt bosqichda amalga oshirilmoqda. Uning birinchi bosqichi 5-6 yoshdan boshlanib, unda “Kasblar alifbosi” bilan tanishtirish, erta kasb-hunarga yo'naltirish maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilari tomonidan mashg'ulotlar, o'yinlar tarzida tashkil qilinadi va amalga oshiriladi. “Kim bo'lsam ekan?”-boshlang'ich kasb-hunarga yo'naltirish bosqichida 1-4-sinfda kichik maktab yoshidagi o'quvchilar uchun (6-9 yoki 7-10 yoshlilar) mehnat darsi hamda sinf soatlari hisobiga oyda bir marta o'quv mashg'ulotlari tashkil etiladi.

Umumta'lim maktablarining kichik va o'rta yoshdagi o'smirlari (11, 12, 13, 14 yoshlilar) uchun “Kasblar olamiga sayohat” qidiruv-rivojlantiruvchi kasbga yo'naltirish bosqichida o'quv mashg'ulotlari oyda ikki marta sinf soatlari va mehnat darslari hisobiga amalga oshiriladi.

“Men orzu qilgan kasb” shaxsning kasbiy yo'nalganligini shakllantirish va rivojlantirishning yakunlovchi, to'rtinchi bosqichida kasbga yo'naltirish ishlari 8-9-sinflarda olib borilib, unda o'quv mashg'uloti haftada bir marta maktab ixtiyoridagi soatlar va mehnat darslari hisobiga tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Mustaqilligimiz tufayli mamlakatimizda 12 yillik bepul majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim (akademik litsey va kasb-hunar kolleji) zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan o'quv muassasalarida amalga oshirilmoqda.

O'z-o'zidan ravshanki, dunyoda o'xshashi yo'q ushbu ta'lim tizimini samarali ishlashini ta'minlashda umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining kasb-hunar kollejlari tayyorlanayotgan kichik mutaxassislarni qay darajada ongli, mustaqil ravishda tanlashlariga bog'liq. Buni ijobiy hal etish bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tayyorgarlik darajasiga maktab, kasb-hunar kolleji, ota-onalar, mahalla va keng jamoatchilikning o'zaro hamkorligiga bog'liq.

Yuqorida bayon qilinganlarni hisobga olib, milliy pedagogikamizda ham maktabgacha ta'lim muassasalarida 5-6 yoshdan boshlab bolalarni kasb-hunarga yo'naltirishning birinchi bosqichi bo'yicha dastur ishlab chiqilgan.

Unga ko'ra, birinchi bosqichda MTM bolalarini "Kasblar alifbosi" bilan tanishtirish, erta kasb-hunarga yo'naltirishning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

- Bolalarda insonlar-turli kasb egalari haqidagi bilim va tasavvurlarning rivojlanishi va shakllanishi;
- Bolalarda turli hamda keng tarqalgan kasblarga qiziqishini rivojlantirish va unga ijobiy munosabatni shakllantirish;
- Kattalar mehnati, mehnat natijasi, mehnat qurollari haqidagi birlamchi tasavvurlarni mustahkamlash uchun sharoit yaratish;
- Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilarida mehnat tushunchalari va malakalarini oilaviy sharoitda tarbiyalash yuzasidan ota-onalarga tavsiya berish.

Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining uslubi va vositalari:

- Kasb-hunarga yo'naltirish haqida hikoyalar, suhbat, she'rlar, topishmoqlar, kitoblar (katta bog'cha yosh davriga xos bo'lgan bolalarga tushunarli tilda kasbiy ma'lumot berish);

- Kasbga yo'naltirish mavzusida rasm (kartochka), plakatlar, slaydlar, video filmlar namoyish qilish (katta yosh davriga xos bo'lgan ko'rgazmali-obrazli kasbiy ma'lumot);
- Rivojlantiruv va o'rgatuvchi kasbiy o'yinlar (katta yosh davriga xos bo'lgan kasbiy ma'lumot, o'yin, o'quv va kommunikativ faoliyatlar bilan birgalikda);
- O'quv darslari, mehnat darsi, konkurslar (maktabgacha yosh davrida mehnat va ijodiy o'quv-o'yin faoliyatining jarayonida kasbiy faoliyat);
- Ota-onalar uchun suhbat va topshiriqlar (bolalarni kasbiy yo'naltirish bo'yicha tavsiyalari, kasbiy maslahat, kasbiy ma'rifat, ularning bilimlarini mustahkamlash va rivojlantirish, oddiy o'yin, o'quv, mehnat ko'nikmalari va malakalarini oilaviy sharoitda tarbiyalash).

Kasb-hunarga yo'naltirish-bu o'sib kelayotgan yosh avlodning kasbiy shakllanishi, tug'ma layoqatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish misolida namoyon bo'ladigan umuminsoniy madaniyat komponentlaridan biri bo'lgan umumlashtiruvchi tushunchalardir. Kasb-hunarga yo'naltirish insonga kasbiy o'zligini anglashda va optimal bandlik turini tanlashda uning talab va imkoniyatlarini, mehnat bozoridagi ijtimoiy-iqtisodiy holatni hisobga olgan holda maxsus ko'mak berish choralari kompleksini amalga oshirishdir.

Ma'lumki, o'sib kelayotgan yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish muammosi nafaqat jamiyat, balki har bir shaxs, oila uchun o'ta dolzarb va hayotiy ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlaridagi o'quv-tarbiya jarayonining o'zi yosh avlodni ongli ravishda kasb-hunar tanlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Bugungi kunda ta'lim muassasasida ta'limning milliy modeli "Shaxsni rivojlantirishga qaratilgan tizim" sifatida har bir o'quvchi (bog'cha bolasi)ni ham aqlan, ham ma'nan rivojlanishi, o'zligini namoyon qilishi, umuminsoniy va milliy madaniyat va san'atning noyob namunalari bilan tanishtirish orqali yuksak madaniy salohiyatni shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish bolaga faqat u yoki bu kasb-hunar to'g'risidagi ma'lumotlarni berish, uni kasb-hunarga qiziqtirish bilan chegaralanmasdan, bola shaxsini har tomonlama rivojlantirish jarayonidir. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi uzluksiz ta'lim tizimi, shu jumladan maktabgacha ta'lim muassasasi, maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi doirasida mamlakatimizda amalga oshirilgan misli ko'rilmagan bunyodkorlik ishlari xalq ta'limi tizimini ham modernizatsiyalashga asos bo'ldi. Ayniqsa, o'quv-tarbiya jarayonining moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi, uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini takomillashtirish yuzasidan DTS'lari, o'quv dasturlari va ularga mos darsliklarini yangi avlodi yaratildi, pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish, ularga metodik xizmat ko'rsatish va malakasini uzluksiz oshirish uchun barcha sharoitlar yaratib berildi.

Mamlakatda jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bugungi kunda ta'lim mazmunini yanada takomillashtirish bilan uning samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko'tarishni taqozo etmoqda.

Ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayonining ajralmas qismi hisoblangan kasb-hunarga yo'naltirish ishlariga ham innovatsion tus berish, uning samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan zamonaviy pedagogik-psixologik, axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ilmiy-uslubiy ta'limot va kadrlar salohiyatini yaxshilash, jarayonga jamoatchilik hamda ota-onalarni faol jalb etish zaruriyati mavjud.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risda"gi Qonunda[II.2,-68b.], "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" [I.3,-25b.] tayanch umumta'lim maktabida ta'lim olayotgan har bir o'quvchi o'zining xohish-irodasi va intilishiga ko'ra ikki turdagi uch yillik o'quv yurtlaridan birini ixtiyoriy tanlashi hamda kasb-hunar kollejlarda tayyorlanayotgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha maxsus bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi uchun o'qishni davom ettirishning majburiyligi davlatimizning ta'lim sohasidagi siyosatining asosiy prinsiplari sifatida qaralishini alohida ta'kidlash joiz.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”ning [I.3,-27b.] maqsadiga muvofiq mamlakatimizda yuksak ma’naviy-axloqiy talablarga javob beradigan raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash vazifasi xalq xo’jaligining kichik mutaxassislariga bo’lgan tobora o’sib boruvchi ehtiyojini qondirishga yangi tipdagi kasb-hunar kollejlari pedagogik jamoalari zimmasiga yuklatilgan.

Shu munosabat bilan umumiy o’rta maktab pedagogik jamoasi oldiga dars va darsdan tashqari mashg’ulotlar jarayonida o’quvchilarga ishlab chiqarish, unda mashg’ul bo’lgan kasblar, ularning mehnat mazmuni va xarakteri haqida muntazam ma’lumotlar berish hamda turli-tuman mehnat jarayonlariga jalb qilish orqali ularning qiziqishlari, moyilliklari, qobiliyatlarini namoyon qilish va ularga mos ravishda tayanch ta’limini o’zlashtirganlari tegishli kasb-hunar kollejlariga yo’naltirish kabi ko’p qirrali vazifa ko’ndalang bo’lib turibdi.

O’z-o’zidan ravshanki, o’quvchilarni kasb-hunar kollejlariga ongli va to’g’ri yo’naltirish bo’yicha pedagoglar jamoasi faoliyatining samarasi ko’p jihatdan ularning bu ishga qay darajada tayyorgarligiga, ya’ni o’qituvchining bu sohadagi faoliyatini ilmiy asosda tashkil etilganligiga, dars va sinfdan tashqari mashg’ulotlar jarayonida o’quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish bo’yicha ko’nikma va malakalari darajasiga, ilg’or o’qituvchilar erishgan yutuqlardan qanday foydalanayotganligiga va h.k. bog’liq.

O’quvchilarni ongli kasb tanlashlari bo’yicha maktab pedagogik jamoasi faoliyati muvaffaqiyatli bo’lishi ko’p jihatdan pedagogik yo’nalishdagi oliy o’quv yurtlarida bakalavr talabalarni-bo’lajak predmet o’qituvchilarini ushbu soha bo’yicha jiddiy tayyorgarlikka ega bo’lishlarini ko’zda tutadi. Shu boisdan umumta’lim maktablari uchun o’qituvchilar tayyorlayotgan oliy o’quv yurt (OO’YU)lari o’z faoliyatlarini bo’lajak o’qituvchilarni kasb tanlash ishini amalga oshirishga tayyorlashni davlat ahamiyatiga molik vazifa sifatida qaratishlari zarur. Oliy o’quv yurti talabasi-bo’lajak o’qituvchining kasb tanlash ishiga tayyorgarligi deganda bu tayyorgarlikning mazmunini to’liq o’zlashtirishni miqdor va sifat darajasi tushuniladi.

Talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlashni amalga oshirish muammosi mazkur tayyorgarlik tuzilmasi va uning tarkibiy qismlarini namoyon qilishini taqozo etadi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish murakkab va kompleksligi tufayli uni muvaffaqiyatli hal qilish oliy o'quv yurtlarida talabalarni-bo'lajak o'qituvchilarni g'oyaviy-siyosiy tayyorgarlikka, nazariy-metodik (pedagogik-psixologik) tayyorgarlikka va ilmiy-texnik tayyorgarlikka ega bo'lishlari bilan bog'liqdir.

Talabalarning umumiy g'oyaviy-siyosiy tayyorgarligi, shu jumladan, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha tayyorgarligi ijtimoiy-iqtisodiy turkum fanlar (O'zbekiston tarixi, falsafa, axloqshunoslik, siyosiy iqtisod va h.k.)ni o'rganish bilan ta'minlanadi. Mazkur tayyorgarlik vazifalarini OO'YUda o'rganiladigan fanlarning bu sohadagi imkoniyatlari bilan taqqoslash orqali g'oyaviy-siyosiy tayyorgarlikning holatini va uning istiqbolini aniqlashga imkon beradi.

OO'YUda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik-psixologik tayyorgarligiga o'qituvchining maktab o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishini amalga oshirish masalalarini qo'shish zarur. O'quvchilarni to'g'ri kasb tanlashlarini amalga oshirish bo'yicha talabalar egallashi zarur bo'lgan pedagogik-psixologik tayyorgarlik pedagogika, psixologiya va metodika turkum fanlarini o'rganish bilan ta'minlanadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasb tanlash ishiga ilmiy-texnik tayyorgarligi tegishli turkum fanlarni o'rganish bilan bog'langan.

Yuqorida ta'kidlanganidek, pedagogika profilidagi OO'YUlarini bitiruvchilar-mehnat ta'limi, fizika, matematika, biologiya va h.k. predmet o'qituvchilari mazkur tayyorgarlikni qanday hajmda va mazmunda egallaganliklari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Barcha ta'lim yo'nalishlarida ilmiy-texnik tayyorgarlikdan farqli ravishda g'oyaviy-siyosiy, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarlik bir xil amalga oshiriladi.

Mazkur mulohazalardan ma'lum bo'ladiki, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishini ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini aniq tasavvur qila olmagan predmet

o'qituvchisining kasb tanlash bo'yicha faoliyatini baholash juda qiyin. Shu bois ularning amaliy faoliyatlarida politexnik mazmundagi va kasb tanlash xarakteriga ega bo'lgan masalalar bilan sug'orilgan dars ishlanmalarini tayyorlash, moddiy ishlab chiqarishning turli sohalarda ilmiy-texnika yutuqlarini joriy etilishiga mos ravishda dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning politexnik saviyasini kengaytirish haqida gapirmasa ham bo'ladi.

Umumta'lim predmetlari, shu jumladan mehnat ta'limi bo'yicha dars va sinfdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida eng muhimi o'quvchilar ko'z o'ngida fan asoslarining, ularning qonunlari va ushbu qonunlarga asoslangan ishlab chiqarish jarayonlarini yoritish orqali u yoki bu kasb kishisi mehnatining ilmiy asosini tushuntirishdan iborat.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun bo'lajak o'qituvchilar oliy o'quv yurtida quyidagilarni egallashi zarur:

- Zamonaviy ishlab chiqarish va mehnatning tabiiy-ilmiy, texnika-texnologiya va iqtisodiy-tashkiliy asoslarini aks ettiruvchi ishlab chiqarish, mehnat va kasblar haqida bilimlarni;
- Ishlab chiqarish, mehnat va kasblar haqida bilimlarni;
- O'quvchilarni kasbga yo'naltirish sohasi bo'yicha pedagogik-psixologik, metodik bilimlarni;
- Jamiyatimizning maktabga kasb tanlash bo'yicha buyurtmasi, demografik muammolar, mehnat resurslari tizimi va b.q. haqida ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni va h.k.

Talabalarni-bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbga yo'naltirish ishiga tayyorgarligi ularning mazkur predmet bo'yicha dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda kasb tanlashni amalga oshirish orqali ta'minlanadi. Boshlang'ich ta'limi o'qituvchisi o'z amaliy faoliyatida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha quyidagi vazifalarni hal qilishi zarur:

- Boshlang'ich ta'lim o'quv dasturi materiallarini bayon qilish jarayonida o'quvchilarni xalq xo'jaligining turli sohalari, yangi texnika, ilg'or texnologiyalar, ishchi kasblar mehnat mazmuni va sharoiti, injener-texnik

xodimlar bilan tanishtirib borishi hamda ularga nisbatan ijobiy munosabatlarni shakllantirish;

- O'quvchilarda bilimga va kasbga bo'lgan qiziqishlarni namoyon qilishi, shakllantirishi va rivojlantirishi;
- Uy vazifalari tizimi, amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarini bajarish jarayonida, turli asbob, maketlarni konstruksiyalash va modellashtirishda o'quvchilarni mustaqillik ko'rsatishi orqali ularning qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish uchun sharoit yaratish va rahbarlik qilishni;
- O'quvchilarda umummehnat, maxsus ko'nikma va malakalarni shakllantirishni;
- Ta'lim oluvchilarda mehnatga ijobiy munosabatda bo'lishni;
- Bir xil yoki bir-biriga yaqin qiziqishlari bo'lgan o'quvchilardan qiziqishlari bo'yicha guruhlar tashkil qilishni;
- To'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarning tanlagan sohalari bo'yicha dastlabki nazariy va amaliy tayyorgarligi uchun zarur sharoitlar yaratishni va h.k.

O'quvchilarni ongli kasb tanlashga tayyorlash bo'yicha pedagogik jamoaning ishi maktab o'quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu ishda mehnat ta'limi o'qituvchisi etakchi o'rin egallaydi.

Oliy o'quv yurtida o'rganilayotgan predmetlarning kasb tanlash bo'yicha imkoniyatlarini namoyon qilish odatda ishlab chiqarish jarayonini mazkur fanlarning qonunlari, prinsiplari, hodisalar va h.k. nuqtai nazaridan tahlil qilishdan boshlanadi. Bunda politexnik materiallarning mazmuni OO'YU atrofidagi ishlab chiqarishning xarakteriga bog'liq bo'lib, u turlicha bo'lishi mumkin.

Muhokama qilinayotgan ushbu dissertatsiyada biz umumkasbiy turkum fanlarining qonun, prinsip, xodisalar va h.k. birgina o'zini turli ishlab chiqarish jarayonlarida qo'llanilayotganligini ko'rsatishga harakat qilindi. Ularning barchasidan alohida olingan bir ma'ruzada yoki amaliy mashg'ulotda foydalanib bo'lmasligi o'z-o'zdan aniqdir. Ayni paytda bu o'quv dasturining aniq savolini va

aniq ishlab chiqarish mehnatini o'rganish jarayonida bayon qilish uchun eng maqbul bo'lgan materiallarni tanlash uchun qulay sharoit yaratadi.

Pedagogik amaliyotni ko'rsatishiga ayrim pedagoglar o'quvchilarga kasbga yo'naltirish bo'yicha o'z faoliyatlarida ularni ishchi kasblar haqida, kasb bo'yicha kasbiy o'sish va h.k. haqida etarlicha ma'lumot berishlari barobarida u yoki bu ishchi kasbi faoliyat ko'rsatayotgan mehnat jamoalari, ishlab chiqarish korxonalari, uchastkalari, ish joylari to'g'risida asossiz ravishda kam ma'lumot beradilar. Ayni paytda ko'p hollarda o'quvchilar tomonidan mehnat jamoalarini tanlash ularning aniq kasblarni tanlashidan ilgari sodir bo'lishini unutmashimiz lozim. Bu mehnat ta'limi o'qituvchilarning mazkur ma'lumotlar bankini yaratish, to'ldirib borish va saqlashning qiyin kechishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Shu munosabat bilan taqdim etilayotgan ushbu dissertatsiyada mazkur holatlar hisobga olindi va ishlab chiqarish uchastka, sexlari hamda ishchi joylari bayon qilib borildi. Umumtexnika turkum fanlarning kasb tanlash mazmuniga talabalarni imkon darajada ko'proq kasblar bilan tanishtirib borish maqsadida keng ko'lamdagi kasblar, mutaxassisliklar nomlari keltirildi.

O'quvchilarning turli kasblar haqidagi tasavvurlarini kengaytirish hamda ular tomonidan kasb tanlashda majburlash elementlarini oldini olish maqsadida OO'YU o'qituvchilarining vazifalari yuqorida bayon qilingan ishlarga o'xshash ishlarini kelgusi faoliyatlarida bo'lajak o'qituvchilarni qila olishlariga erishishlaridan iboratdir.

1.2. O'rta asr mutafakkirlarining asarlarida kasb-hunar o'rganish muammosining yoritilishi

Xalq hunarmandchiligi moddiy va ma'naviy merosimiz bilan hamohang ravishda rivojlanishi ko'plab mutafakkir, donishmandlarning bitik va asarlarida yuksak mahorat bilan o'z ifodasini topgan va ushbu asrlar jarayonida madaniyat xazinalaridan o'z o'rnini egallagan. Turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarda yaratilgan hadislar, pandnoma, rivoyat, hikoyat, doston, g'azal, ruboiy, masnaviy, ertak kabi xalq og'zaki ijodi namunalari orqali insonning ta'lim-tarbiyasi va kasb-hunar o'ganishining afzalligi, halol mehnat bilan yashashning zarurligi to'g'risida fikrlar bizgacha etib kelgan. Bunday yozma manbalarga zardushtiylarning ulug' asarlari hisoblangan, eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda yaratilgan "Avesto"da bolalar yoshligidan daraxt ko'chati o'tqazishi, uy ro'zg'or qurollari yasashi, erga ishlov berishi kabi mehnat mashg'ulotlari bilan shug'ullanishlari kerakligi haqida ko'plab satrlar keltirilgan: Masalan: "Avesto"da, ta'riflangan va targ'ib etilgan eng qutlug' kasb dehqonchilikdir. "Zero bu kasb sohiblari zardushtiylarni moddiy ne'matlar bilan ta'minlaydi. Bu esa hayot taraqqiyotining asosiy omilidir"[II.26,-64b.]

Shuningdek, "Avesto" kitobida Sirdaryo va Amudaryo sohillarida xalqlarning kasb-kori, savdo sotig'i, qo'shni xalqlar munosabatlari bayon qilingan. Har bir hunar egasining jamiyatda tutgan o'rni alohida qayd etilgan. Dehqonlar va chorvadorlar jamiyatning moddiy ne'matlarini yaratuvchisi sifatida ta'riflangan.

Darhaqiqat, yoshlarni mehnat jarayoniga, kasb-hunar egallashga yo'naltirish va ushbu faoliyatlarni o'zlashtirishni takomillashtirish yo'lida olib borilayotgan tadqiqotimiz uchun sharq xalqlarining boy ma'naviy merosi va qadriyatlariga tayanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo xalqlari VII- IX asrlardan boshlab islom diniga, uning aqidalariga rioya qiladi. Musurmonlarning eng oliy, muqaddas kitobi bo'lgan "Qur'oni Karim"da [II.40,-155b.] ham inson yaxshi xulq egasi bo'lishi va halol kasb-kori evaziga oila boqib, ro'zg'or tebratishi ta'kidlab o'tilgan. "Kur'oni Karim"ning oyat va suralarida mu'tabar Alloh nomidan xalqni uning ahli

mo‘minini to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi. “Kuroi Karim”ning bevosita oyatlaridan kelib chiqib, xalq orasida turli pand nasihatlar, rivoyatlar, hikoyatlar ko‘rinishida hadis yaratildi. Unda, kishilarning turmush tarzi, ijtimoiy faoliyati va bir biriga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solish to‘g‘risida tarbiyaviy pand nasihatlar berilgan. Buyuk muhaddis, Islom olamida yirik muhaddis alloma sifatida Imom abu Abdulloh Muhammad Ibn Imom al-Buxoriy, o‘zining "Al- jome’ as saxix" (Ishonarli to‘plam) asarida kasb-hunar o‘rganish, mehnat qilish va uning afzalligi to‘g‘risidagi hadislarni to‘plab sharhlagan. Masalan: Kirpichi mazkur hadisning 14-bobida "Kishining kasbi va o‘z qo‘li bilan mehnat qilishi” haqidagi hadisida shunday deydi-“Mening o‘z kasbim borligini qavmimiz yaxshi bilur, men garchi musulmon ishlari bilan band bo‘lsam ham, shu kasbim orqali oilamni tebraturman"-deb yozadilar. "Tikuvchi haqida", "Savdo ishlari" haqida alohida e‘tiborga molik boblar, hadislar keltirilgan. O‘rta asr mutafakkirlari dunyoqarashida barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan pedagogik ta’sir qilish majmuasi omillarida ikki tarkibiy qismni, ta’lim va tarbiyani ajratish, bunda tarbiyani ta’limga nisbatan ustivorligi aksiomatik haqiqat darajasiga ko‘tarilganigini ko‘rsatish lozim.

Buyuk allomalarning kasbiy mehnat ta’limi va tarbiyasini yosh avlod ta’lim va tarbiyasini tarkibiy qismi sifatida qaralganliklarini, uni aqliy, jismoniy va ma’naviy tarbiya bilan birgalikda qo‘shib olib borish lozimligi to‘g‘risida bildirgan fikrlari diqqatga sazovordir. Qomusiy olimlar ta’lim-tarbiyani amalga oshirishda bolaning moyilligini, qobiliyatini hisobga olish zarurligining tub mohiyatini ko‘rsatib beradi.

1. Buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning asarlarida[II.5,-247b.] insonlarni ilm-ma’rifatli bo‘lishga, halol mehnat qilishga, kasb-hunar egallashga hamda inson shaxsining ijodiy va bunyokorlik kuchini va uning kamolotini, qadr qimmatini ulug‘lashga chorlayli. Allomaning fikriga ko‘ra "... kimki eng go‘zal va foydali bo‘lsa, kashf etgan narsasi chindan ham o‘zining istagiga va boshqa birovning istagiga muvofiq bo‘lsa yoki uni boshqalarning xohishiga muvofiq deb gumon qilinsa, kashf yoki ijod etilgan narsa haqiqatdan foydalidir [II.5,- 99b.].

Ta'lim, bilimlarni o'rganish asosida hosil bo'ladi. Tarbiya esa, amaliy faoliyat asosida, ya'ni unda o'quvchilarning kasb - hunarga bo'lgan havasini kuzatish mumkim.

Agar o'quvchi kasb - hunarga qiziqsa, ushbu qiziqish uni butunlay kasb-hunarga bog'lab qo'yadi, natijada u kasb - hunarning chinakam oshig'i bo'lib qoladi.

Sharqning ulug' matematigi al-Xorazmiy o'zining "O'gitlari"da "Mehnat bu bir sel, agar shu sel to'xtab qolsa, u singib ketadi" - deb fikr yuritadi. Buyuk mutafakkir olim al-Xorazmiy ushbu misralarda hayotiy muhim bir haqiqatni aytadi. Ya'ni suv obi hayot, suvsiz hayot yo'q bo'lgani kabi, mehnatsiz hayot bo'lmasligini, suvning singib ketishini umrning quruq o'chib ketishiga taqqoslangan.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy kishilarning baxt saodati kamoloti uning halol mehnat qilishi kasb-hunar o'rganishi deb biladi. Beruniyning "Geodeziya"[II.7,-74b.], "Minerologiya", "Hisdiston", Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar"[II.8,-122b.] nomli asarlarida o'zi yashab turgan davrdagi ishlab chiqarishning rivoji va kasb - hunarga oid qimmatli ma'lumotdar bergan. "Barcha qimmatli narsalar inson mehnati bilan yaratiladi va insonning qadr qimmat, uning avlod ajdodi kim bo'lganligi bilan emas, balki uning halol mehnati bilan ulug'lanadi, buning uchun mehnat zarur, faqat aql idrok va mehnatning jonlanishigina kishilar hayotini belgilab beradi"- deydi [II.8,-9b.]. Mutafakkirlarning quyidagi hikmatlari tahsinga loyiqdir: "Har bir insonning qadr-qimmat o'z ishini qoyil qilib bajarishida". "Bugunning chorasini ko'rib, ertaga ehtiyoji qolmagan kishi aqllidir", "Asalarilar ham o'z jinsidan bo'la turib, ishlamay o'z uyasida asalni eb yotadiganlarini o'ldirib tashlaydi" [II.7,-10b].

Abu Rayhon Beruniy insonni halol mehnat qilishi va kasb-hunar egallashi tufayli aql, zakovati, qobiliyati, qudrati oshib borishiga ishonadi. Bu bilan u mehnatsevarlik, o'z kasbini ardoqlashdek fazilatlarini nihoyatda qadrlaydi.

Abu Rayhon Beruniy yoshlarni ong kichik yoshdan boshlab qobiliyatiga qarab mehnat qilishga o'rgata borish, kattalar mehnatini e'zozlaydigan qilib tarbiya

berish, bolani bilim va kasbga o'rgatish, oilaning diqqat markazida bo'lishini ijobiy baholaydi. Alloma oilada boshlangan mehnat tarbiyasini maktabda ta'lim, bilim va hunar o'rgatish bilan bog'liq holda davom ettirishni alohida ta'kidladi. O'sha davrda Zandona kishlog'ida bo'z to'quvchilar (bo'zchi kasbi), Buxoro yaqinidagi katta to'qimachilik korxonasi, Samarqandda qog'oz va oyna ishlab chiqaradigan ustaxona, Toshkentda hunarmandchilikning juda katta turdagi mavjudligi erkin mehnat va qimmatbaho mehnat qurollari borligini taqozo etadi. By yutuqlarga ta'lim - tarbiyasiz erishib bo'lmasligi ayon. Shu o'rinda Beruniy ilm-ahillari, olimlar, pedagoglarning mehnati jamiyat uchun naqadar kerakli va zarurligini alohida uqtirgan. Qomusiy olim mehnat va hunar vorislik asosida avloddan avlodga meros bo'lib o'tishini sinchiklab tekshirgan va hunarmandchilikni yuqori baholagan. U biron bir katta va mashaqqatli mehnat talab etadigan o'rta asr hunarmandchiligida toshtaroshlar qimmatbaho toshlardan bezak, uy ro'zg'or buyumlari, xotin-qizlar uchun zebu-ziynatlar yasash, sayqal ishlari, toshtaroshlik hunari: sangtaroshliklarni batafsil yozgan.

Beruniy o'z asarlarida hunarmand ustalarning ahvoli, shogirdlarining faoliyati, ish haqlari haqida qimmatli fikrlarini keltirgan. Jumladan, u "Minerologiya" asarida shunday yozadi: "Basrada billurdan idish - tovoq va boshqa narsalar yasaydilar. Ish joyida belgilab, o'lchab beruvchi usta bo'lib uning oldida billurning mayda va katta bo'laklari to'plangan. Ana shulardan chiroyli va keraklisini olib, undan eng chiroyli va yaxshi buyum yasashni o'ylab, o'lchab, belgilab chiqqan. Shundan keyin uni yasovchi hunarmandga beradi. U birinchi usta aytganidek buyumlarni yasab boshlaydi".

Ushbu ma'lumotlardan O'rta Osiyo hududida metallurgiya, konchilik va hunarmandchilik naqadar keng tarmoq olganini ko'rish mumkin.

O'z - o'zidan ravshanki, bu ishlar katta mehnat, ixtirochilik va bilim sarflashni talab etadi. Ayniqsa «toshlarni parmalab teshish, arralash va kesishda oddiy parmalash dastgohi hamda drelning kashf etilishi, ishlatilishi, qimmatli toshlarni g'ovak-g'ovak qilib parmalash usuli katta ahamiyatga ega bo'lgan. Buyuk mutafakkir Marvariddan go'zal buyumlar tayyorlash maktabini ishini

quyidagicha ta'riflaydi: "Kimmatbaho marvarid donachasini oxirigacha parmalashdan hadiksirab, ustalar u bahosini tushunib etmagan shogirdlariga berishadi. Shogirdlar butun borlig'i bilan ishga kirishib ketadi. Bunda ularning qo'llari qaltiramasdan, qo'rqmasdan parmalaydilar. Agarki bu ish xavfsirash bilan bajarilar ekan, parmalash davomida biror bir tasodif bilan dur maydalanib ketsa usta shogirdlariga tarsaki tushirgan. Tarsakining zarbi ularni yaxshiroq, sifatliroq ishlashga ko'niktirgan. Dur parmalanib bo'lingandan so'ng xavfli vaziyat o'tib ketgan [II.10,-19b.].

Abu Ali ibn Sino ham bolalarning kasb-hunarga qobiliyati va qiziqishini aniqlashning muhimligini alohida ta'kidlagan.

U shundan keyingina bolani o'zi tanlagan kasb-hunar sir asrorlariga orgatish mumkii deb hisoblagan: "Har bir odamni o'zining qiziqishi va layoqati, iste'dodiga qarab o'qitish kerak, aks holda ta'lim va tarbiya ko'zlangan natijani bermaydi".

Murabbiy bolaning ta'limga, biror bir hunar va san'atga bo'lgan intilishini aniqlashi lozim, chunki ularga ega bo'lgandan so'nggina u o'zida yashash vositalari bilan ta'minlay oladi.

Donishmand Yusuf Xos Hojibning ta'biricha "Har bir kishi ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisi sifatida hunar o'rganmog'i, o'z hunari bilan xalqiga, Vataniga xizmat qilishi zarur", - deydi. Darhaqiqat, hunar o'rganishga va mehnat qilishga bo'lgan intilish har bir inson uchun xayotiy ehtiyoj bo'lmog'i kerak.

Yusuf Xos Hojib o'z bolalarini foydali mehnatga o'rgatmasdan ortiqcha erkalatib bu bilan ularni kelgusida noloyiq xatti-harakatlar qilishida to'g'ridan-to'g'ri aybdor bo'ladigan ota-onalarni qattiq qoralaydi: "Kimningki o'g'li yoki qizi taltaytirib yuborilgan bo'lsa, buning uchun oxiri qattiq yig'laydi"- deb ta'kidlaydi. Har bir ota-ona o'z farzandiga yoshligidan hunar o'rgatishi kerakligini qayta qayta uqtiradi [II.38,-223 b].

Ulug' mutafakkir Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devoni lug'atit turk" (Turkiy so'zlar to'plami) nomli asarida "Ilmli, aqlli odamlarga yaxshilik qilib, so'zlarini tingla. Ilmlarni, hunarlarni o'rganib, amalga oshir"- deydi. Allomaning ushbu fikri kishilarni mehnat qilishga, yaxshilikka undaydi, yomonlikni qoralaydi.

Ilm va hunar sohiblarini e'zozlaydi. Kishilarni ulardan ibrat olishga chaqiradi. Demak, ulug' donishmand o'zining ushbu so'zlari bilan unumli mehnat qilishni ilmni o'rganish bilan barobar qo'yadi. Kishi mehnat qilsagina, hunar o'rgansagina ilmi, aqlli kishi hisoblanadi [II.39,-187 b].

1. Amir Temur mamlakatda hunarmandchilik, dehqonchilik, chorvachilik va savdoni rivojlantirishga katta e'tibor bergan. U insonlarning mehnat bilan band bo'lishiga katta e'tibor qaratgan. U o'z davlatida to'qimachilik, yog'och, tosh o'ymakorligi, gilam to'qish, sopol, metall idishlar tayyorlashni va hokazolarni yo'lga qo'yganligi sababli ommaviy ishsizlikka yo'l qo'yilmagan.
2. Sohibqiron Amir Temur o'zining shavkatli armiyasini tuzishda bo'lajak askarlarning quyidagi uch belgisiga tayangan holda hukm chiqargan:
 - askarning kuch ishlata olish sifatleri bo'yicha;
 - askarning qilichni egallash darajasi va sifati bo'yicha;
 - askarning aqliy sifatleri va ziyrakligi, sehni o'tkirligi bo'yicha

Mazkur uch belgining birligi Amir Temur armiyasiga qabul qilishning mezoni bo'lib xizmat qilgan. Shu bois uning askarlari charchashni bilmaganlar. Ular sovukni ham, issiqni ham, ochlik va suvsizlikni ham bir xilda boshdan o'tkazishgan.[II.13,-287b.]

O'rta asr Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida yoshlarni kasbiy mehnat ta'lim va tarbiyasiga juda katta ahamiyat berganlar. Ular kasb-hunar ta'limiga, tarbiyaning zaruriy tarkibiy kismi sifatida yondashganlar va uni aqliy, jismoniy va ma'naviy tarbiya bilan birga olib borish zarur, deb hisoblaganlar.

Ularniig asalarida yoshlarga, kobiliyatlarini va moyilliklari inobatga olib, jiddiy o'ylab mehnat faoliyatini tanlash to'g'risida pand va nasihatlarini ko'rish mumkin. Chunonchi, Navoiy ta'lim oluvchilarning individual, o'ziga xos xususiyatini hisobga olish zarurligini ta'kidlash misollar tabiatan teng bo'lsalar ham ammo ularga turli fazilatlar berilgan.

Buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham "Farhod va Shirin" dostonidagi paxlavon Farhodning ilm-hunarga qiziqishi targ'ib etiladi hamda yoshlarning bir necha hunarni egallashlariga undaydi [II.30,-79b.]. Shuningdek, Navoiy Farhodni

bir necha kasb hunar egasi, ya'ni u sangtaroshlik, rassomlik, naqqojlik kabi hunarlarning mukammal egallab olgan inson sifatida ulug'laydi. Ilm va hunarni egallagan, jismoniy jihatdan chiniqqan, mehnatsevar Farhod kamtarin, mazlumlarga g'amxo'r, sofdil, mard, oliyjanob bo'lib etishadi. Navoiy Farhodni suvsiz erlarga suv chiqargan qahramon mehnat sohasida mo'jizalar ko'rsatgan bahodir yigit sifatida ta'riflaydi, u ilm va hunarni xalq manfaati uchun ishlatishim lozim deb hisoblaydi. Farhod Shirinni qidirib armanistonga borganda Arman yurtida tog'da kanal qazayotgan kishilarni ko'radi va "Hunarni asrabon netkumdir oxir, olib turoqqami ketgumdir oxir" deya o'z bilimini ishga soladi, kanal qazuvchilarining mashaqqatini engillashtiradi hamda halq o'rtasida katta shuhrat qozonadi.

Navoiy hazratlarining zamondoshi Jaloliddin Davoniy "Bir odam turli kasb-hunarlar bilan shug'ullanmasligi kerak, chunki bu odam tabiatiga to'g'ri kelmaydi va bu odam hech qachon ijobiy natijaga erisha olmaydi. Zero, har bir hunar munosib ravishda diqqat, e'tiborni va vaqtni talab qiladi" va imkoniyatiga bog'liq ravishda o'zlari o'rganayotgan kasb-hunarlarning bittasini to'g'ri tanlashi lozimligi haqida gapirib "Jalod shikast asarida shunday yozadi: "Odamda barcha kasb - hunarlarga qobiliyat yo'k, aksincha har bir kishi ma'lum bir kasb - hunarga ishtiyoqi bor" (112)

XV asrda yashagan etuk alloma Xusayn Voiz Koshifiy o'zining "Futuvvatnomai Sultoni" nomli asarining 14 fasli "Kasb kor va savdo tijorat odobi haqida" deb nomlanadi. Unda quyidagi yovuzlar yozilgan: "... Agar barcha kasblar uchun zaruriy odoblar xulosasi nechta, deb surasalar saqqitga deb aytgil":

- Birinchidan, o'z kasbini haromdan, shubhali mol mablag'dan pok saqlasin;
- Ikkinchidan, rizq-ro'zi zarurati uchungina kerakli kasb bilan shug'ullansin, kasbni mol-dunyo sarflashga sarflamasin;
- Uchinchidan, kasbni obru olish, yaxshi nom chiqarishimning sababi deb bilish;
- To'rtinchidan, moli xarom odamlar (amaldorlar, poraxo'rlar, qaroqchilar, o'g'rlar, qimorbozlar, kazzob do'kondordar) bilan muomila kilmasin.

- Beshichidan, o'z hurmatiga bee'tiborlik, xato nuqsonlarga, ayb ishlarga yo'l qo'ymaslik, har xil iflosliklar, bulg'anishlarga yo'l qo'ymasini;
- Oltinchidan, insof chizig'idan tashkariga chiqmasin, mol matoni tanimaydigan odamlar bilan muomila qilsin;
- Ettinchidan, agar tarozi axlidan bo'lsa, toshdan olib qolmasin va ortiq bermasin;
- Sakkizinchidan, gazlama o'lchab oluvchilar axlidan bo'lsa, o'ziga ko'p olib qolib, boshqalarga kam bermasin, chunki barokat to'g'riligi va jamiyatning insof yuzasidan baholi qudrat kun kechirishidadir.

[II.34,-69-70b.]

Yuqorida bayon qilinganlaridan ko'rinadiki, alloma hunarmand kishilardan, insofli-sofdil bo'lishlari barobarida boshqalarga o'rnak bo'lishlari kerakligini ta'kidlaydi. Ya'ni odamlarning, hunarmandlarning axloqiy fazilatlarini hurmat qilishga hamda ulardan o'rnak olishga da'vat qiladi. Darhaqiqat, Koshifiyning yoshlarga kasb-hunarni yaratish orqali ularni jamiyatda halol mehnat kilishga undagan, fikrlari hozirgi kunimizda ham asqotadi. Chunki, boy tarixga, o'tmishga ega bo'lgan xalqimizni mehnatsiz, kasb - hunarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Genetik metod bo'lsa, shuncha narsani bilishlari lozim bo'lganidek insonga ruhiy bilishlari lozim bo'lganidek insonga ruhiy bilish san'ati qanchalik kerak bo'lsa, unga shuncha narsa kerakdir.

Tashxis jarayonining o'zi Forobiyning fikricha, u tashxis qo'yishga so'ngra olimlar tahlilini, undan keyingilari va xulosani o'z ichiga oladi;

"Men aytayapman, avvalambor biz turli xil fe'l-atvordan kelib chikuvchi amallarni birma-bir sanab o'tishimiz lozim va shundan so'nggina qaysi bir amallarni bajarishimizda bir rohatlanishimizni, qaysi birlarini bajarganimizda iztirob chekishimizni ko'rib chiqishimiz va fikr mulohaza kilishimiz lozim. Bu bilan tanishib chiqqanimizdan so'ng, ushbu amal yaxshi yoki yomon fe'l-atvordan kelib chiqayotganini ko'rib chiqamiz. Agar amal yaxshi fel atvor, agar omon fe'l atvordan kelib chiqqan bo'lsa, bu yomon fe'l atvor deymiz".

Forobiy o'zining ilmiy xulosalarini tushuntirib berish uchun o'zi sevgan o'xshatish usuliga murojaat qiladi: "Tabib tegishli vositalar yordamida tananing

holati bilan topishib chiqdi, agar tana sof bo'lsa, u tananing sog'ligini saqlash uchun maxdopa usuliga murojaat qiladi, agar tana xasta bo'lsa, u bu xastalikni yo'qotish uchun maxto usuliga murojaat qiladi. Xuddi shunday, agar bizga yaxshi fe'l atvor xos bo'lsa, ushbu fe'l atvorni saqlab qolish uchun maxlop usullarga murojat kilamiz, agar bizga yomon fe'l - atvor xos bo'lsa, u holda biz ushbu fe'l atvorni yo'qotish uchun Moxjun usuliga murojat qilamiz".

Sharqda insonshunoslik insonni bilish metodikasi bo'yicha ming-ming yillik tajriba mavjud. Insonni bilishning oddiy sharqona usulda pedagogik tashxisda ko'l keladi. Bu borada genetik biastrologik va geografik metodlar keng ommalashgan usullardir.

Genetik metodika butun jahon olimlari tomonidan tan olingan bo'lsada sobiq sovet ta'lim-tarbiya tizimida, inkor qilib kelindi, pedagogik tashxisga amal qilinmadi, hammaga bir xil andozali ta'lim tarbiya joriy qilingandi, pedagogik tashxis ham faqat ayrim tadqiqotlarda qo'llaniladi. Natijada inqirozga uchragan pedagogik tashxis an'anasi yo'q ta'lim - tarbiya tizimi bizga meros bo'lib qoldi .

Genetik metod faqat ota-onalardan meros bo'lgan fiziologik pedagogik-psixologik iqtidor kabi xususiyatlarni oladi degan aqidaga tayanadi. Sharqona insonni bilishga genetik yondashish avlodni o'rganishni tavsiya etadi. Haqiqatdan ham boladagi qobiliyat, layoqat kasbga munosabat, o'tmish avlodlarni biri yoki bir nechtasidan o'tadi. Masalan, musika kobiliyati ham avloddan-avlodga o'tishi fikrimizning dalilidir. Buyuk mashhur san'atkor Zokirovlar, Uzoqovlar, Rajabiyalar kabi sulolalarni ko'rsatish mumkin.

Sharqona insonni o'rganishda biostorlogik keng samarali "kalitdir". Zero, inson ota-onaniig farzandi bo'lish bilan birga tabiatning ham, ijtimoiy borliqning ham "mevasidir".

Diniy taqvo sifatida yo'qolib ketgan abjad xisobi ("Xisobi abjad")da shaxs tashxis qo'yish metodini tiklash maqsadga muvofiqdir. Chunki har bir inson makon va zamonda shakllanadi. Ayniqsa, u murakkabligida ota-onadan olganidek, tabiat, ma'naviy psixologik muhit, jamiyat ta'siri asosida kamol topadi. Xalqimizda "qon bilan kirgan" xususiyatlar beqaror ekanligi haqida hikmat bor.

Sharqona mijoz ana shu bola tug'ilganidan yil, fasl, qaysi burjning ta'sirida bo'lishini xisobga oladi. Bu burj ostida tug'ilgan bolalar bir ota-onaning bolalarga nisbatan ham yaxshiroq, ham salbiy xususiyatiga bo'ladilar. Bir sinf bir xil mijozdagi bolalarni o'qitganda bu tabiiy yaqinlik ta'lim -tarbiya natijalariga asoslanadi.

Biografik metod ommalashgan bo'lsada, uning metodologiyasi aniq tizim*li* ishlab chiqilmagan, yana bolaning ona bag'rida to mavjud holatigacha ijtimoiy pedagogik muhit darajasi uning xarakterida namoyon bo'ladi. Ma'lumki ijtimoiy muhit shaxs shakllanishining asosiy omilidir.

Sharq xalklarida "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bolaga baxo berishda asosiy mezonga aylangan.

Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida har bir bolaga pedagogik tashxis qo'yish zarur va murakkab. O'qituvchi, muallim bolaning qobiliyati, layoqati va tarbiyalanganlik darajasini aniqlashda yuqorida ko'rsatilgan oddiy sharqona usullardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib O'rta Osiyolik mutafakkirlar bolaning individual qobiliyatlarini, moyilliklarini va qiziqishlarini aniqlashga katta e'tibor berganlar. Ta'lim oluvchining individual qobiliyatlari va odamning boshqa fiziologik va psixologik fazilatlarini hisobga olishni va bunda o'qituvchiniig tutgan o'rnining muhimligini ta'kidlagan.

Ota-bobolarimiz qadim-qadimdan yoshlarni oilada umumbashariy tuy-ular, o'lmas sharq falsafasi, millim kadriyatlarimiz ruhida tarbiyalab kelganlar. Ular asrlar davomida tilimizni, dinimizni va dilimizni o'zbek millatiga xos bo'lgan o'zligimizni ulug'lab komil insonlarni voyaga etkazib kelgan. Ayniqsa, sharqda mutafakkirlar tomonidan yaratilgan qator asarlar yoshlarni, xususan, oilada tarbiyalanib kelinayotgan o'g'il bolalarni milliy an'analar, oilaviy hayotga tarbiyalashga, barkamol inson qilib tarbiyalashda asosiy mezon, qoidalar va pandnomalar sifatida ham foydalanilgan.

Prezidentimiz I.A.Karimov alohida ta'kidlab, "Sharqda qadim qadimdan oila mukaddas Vatan sanalgan. Halollik rostgo'ylik, or - nomus, sharmu-hayo, mehru-

oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar avvalo oilada shakllangan".[I.8,-559b.].

Darhaqiqat, Sharqning buyuk allomalari va ma'rifatparvarlari Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Kaykovus, Yusuf xos Xojib, Alisher Navoiy, Xusayn Voiz Koshifiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Rizouddin ibn Faxriddin, Axmad Donish, Abdulla Avloniy, Fitrat va boshqalarning asarlarida Markaziy Osiyoda yashayotgan xalqlar, jumladan, o'zbek xalqining oilaviy hayoti, undagi tarbiya jarayonining milliy psixologik xususiyatlari, otalarining farzandlar oldidagi burchi va vazifalari, oilaning turmush tarzi, tarbiyaviy muhiti va boshqalar haqida qimmatli fikrlar mavjud. Darhaqiqat, Sharq mutafakkirlari Yusuf xos Xojibning "Qutadgu bilig"i, Kaykovusning "Qobusnoma"si Shayx Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston", Abduraxmon Jomiyning "Bahoriston", Navoiyning "Maxbub ul-qulub", "Hayrat-ul abror", Xusayn Koshifiyning "Axloqi muhsiniy", Jaloliddin Devoniyning "Axloqi Jaloli", Muhammad Sa'diy Qoshg'ariyniig "Adab-as solixin" kabi asarlari o'zbek milliy axloqiy ma'naviyatini, qadriyatlarini yuksaltirishda o'rni cheksizdir.

Masalan, oilani mustahkamlash, farzandlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalashda bevosita sharq mutafakkirlari merosidan milliy qadriyatlar sifatida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Malumki, sharq xalqlarining ma'naviy merosi xilma - xil ajoyib afsonaviy va tarixiy dostonlarga, masal va rivoyatlarga boy bo'lib, mavzu jihatdan bir biriga chambarchas bog'liqdir. Ularning asarlari mazmunidan kelib chiqadigan fikrlar nafaqat yoshlarni kasb-hunar o'rgatishga, ro'zgor tebratishga, oilaga tayyorlash hamda ularning tarbiyasi, oila muammolari, balki davlat ahamiyatidagi qator axloqiy, ma'rifiy, ijtimoiy muammolarini ham hal etishda muhim rol o'ynaydi. Jumladan, donishmand mutafakkirlarimiz yoshlarni komil inson qilib tarbiyalang 14 fazilatini egallash muhimligini ta'kidlab o'ttanlar. Bularga:

- riyozat (nafsni tiyish, sukut, ortiqcha va bema'ni gaplarni gapirishdan saqlanish, intizom;

- maqsad, har bir ishdan ko‘zlangan maqsad aniq bo‘lishi, tejam iqtisod, ya’ni tejamkorlikka rioya qilish;
- sayr va shug‘ullanish, vaqt va fursatni g‘animat bilish matonat, haqqoniylik to‘g‘rilik va adolat mo‘tadillik haddan ortiqchalikdan saqlanish, nazorat, kir va ifloslikdan hazar qilish qalb huzur rohat;
- iffat odobli, sharm hayoli, nomusli bo‘lish;
- tavoze o‘zini kamtar tutish.

Bunday sifatlar avvalo oilada tarkib topadi, Darhaqiqat, ulug‘ bobolarimiz ta’kidlaganidek oila bir muqaddas qo‘rg‘onidir, unda ulg‘ayib o‘sgan bolalar ota va ona o‘rtasidagi muhabbatning jonli mahsulidir.

Kaykovus o‘zining “Qobusnoma” asarida oila va farzand tarbiyasi xususida tuxtalar ekan, u birinchi galda nasl nasabni toza saqlamoq asl qadr qimmatini bilish kerakligini inson tarbiyasiing gultojiga qiyoslaydi

Jaloliddin Davopiyning Axloqi Jaloliy asarida esa "bola tarbiyasi bilan shug‘ulanish nozik ish ekani, kishi tarbiyasi borasida juda ehtiyot bo‘lishi, xatoga yo‘l qo‘ymasligi lozimligini alohida uqtiriladi. Bola yoshlikdan o‘ta ta’sirchan tez qabul qiluvchan bo‘ladi. Yaxshi fazilatni ham, yomon odobni ham farqiga bormasdan qabul qilaveradi. Bolalarning qalbi xuddi naqsh solingan taxtaga o‘xshaydi va suratlarni osonlikcha qabul qiladi”,- deydi Davoniy. Davoniy oilada o‘g‘il bolalarni barkamol inson qilib oilaning etakchisi sifatida tarbiyalash uchun avvalo kasb - hunarga o‘rgatish lozimligini ham alohida ta’kidlaydi. Inson kasb-hunarni egallashga, takomillashtirishga intilish bilan jamiyatga foyda keltiradi deyish bilan u insonni inson qiladigan, uni ulug‘laydigan obru-e’tiborini ko‘taradigan mehnat ekanligini ta’kidlab o‘tadi. Davoniyning fikricha har bir inson biron bir kasbni hunarni egallashi nafaqat jamiyat balki oilada ota-onasining o‘zining obro‘sni oshirishga katta yordam beradi, degan fikrni ilgari suradi. Shuning uchun Davoniyning "Axloqi Jaloliy” asarining 2- qismi oilashunoslikka bag‘ishlangan.

Ibn Sino "Tadbiri manzil" asarining katta bir bobida oila va oilada barkamol shaxs tarbiyasi xususida qimmatli fikrni bildirib: “Agar oilada oila boshlig‘i

tajribasizlik noʻnolik qilsa u oila aʼzolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda yomon natijalar kelib chiqishi mumkin. Agar oilada tarbiyaning usullaridan yaxshi foydalanilsa oila baxtli boʻladi," -deb taʼkidlaydi.

Oilaviy turmush va milliy anʼanalari yoʻlida, yangilanish ruhida yoshlarni xususan oʻgʻil bolalarni oilaviy hayotga tayyorlashga mos masalalar buyuk allomalar Muxammad ibn Ismoil Buxoriy, at- Termiziy ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyondalari boʻlmish Axmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshband, Najmiddin Kubro tariqatlarida ham keng yoritilgan.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy madaniy merosini oʻrganar ekanmiz, ularda bayon qilingan oilaviy turmush koidalari, undagi milliy anʼanalar asosidagi tarbiya jarayonlari, farzand kamoloti, oilada onaning farzandlar oldida namunaviy koʻrsata oladigan muomila munosabatlari, insoniy fazilatlarning shakllanishi haqidagi qimmatli fikrlar sharq xalqlari xususan, oʻzbek xalqining ogʻzaki ijodi, eposining uzviy bogʻliqligi asosida tarkib topgan ilmiy madaniy meros ekanligini koʻramiz.

Chunonchi, oʻzbek xalqining ogʻzaki ijodi va eposlarida oilada oʻgʻil bolalarni milliy anʼanalar ruhida oilaviy hayotga tayyorlashda keltirilgan mardlik, halollik, kamtarlik, ishonch, sevgiga sadoqat, doʻstlik, adolatlik, mehnatsevarlik, hamfikirlik, orastalik, goʻzallik, oqillik, eʼtiqod, halol va pok yashash kabi insoniy fazilatlar ulugʻlangan va tarbiya jarayonida ular ongiga singdirib borilgan. Bu voqeylikni biz "Alpomish", "Kuntugʻmish", "Goʻroʻgʻli", "Layli va Majnuch", "Yusuf va Zulayxo" kabi qator oʻzbek xalq dostonlarining qaxramonlari misolida koʻrishimiz mumkin.

Mutafakkirlarning yuqorida bildirgan fikrlaridan maʼlum boʻldiki, oila qasrining ikkita eshigi boʻlib, biridan farzandlar zulmat korongʻusidan nur istovchilariga qoʻshilsa, ikkinchisidan foniylazazzat quchogʻi dan balchiq kechib, korni uchun yashayotganlarga borib qoʻshilar ekan.

Demakki har bir ota-ona ustoz murabbiy va yoshi kattalarning vazifamiz bolalarimizni ana shu ikki yoʻlni oʻzi, oilasi va jamiyat uchun ham foydali boʻlgan yaxshi sifat va fazilatlar yoʻnaltiradigan tomonni tanlab yashashga qodir qilib tarbiyalashimiz va ularni hayotga hamda mehnatga tayyorlab borishimiz kerak.

Sharq mutafakkirlari ma'naviy merosi, nafaqat oilada, balki barcha tarbiyaviy jarayonlarda yosh avlod tarbiyasini yaxshilashda milliy o'ziga xoslikni ta'minlashda sharqona tarbiya usullarini tiklashda, eng asosiysi, ularni oilada milliy an'analar ruhida, turli xildagi o'zlari yoqtirgan kasblari yo'lida, oilaviy hayotga tayyorlashda, ota - onalar va pedagoglar dasturi amal sifatida xizmat qiladi.

Sharq mutafakkirlari ta'limotida o'g'il va qizlarga ta'lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar o'rgatish g'oyasi muhim o'rin egallaydi. Qadimni an'analarimizga binoan hunarmand va kosib, me'mor va naqqosh, dehqon va chorvador, to'quvchi va nonvoy ustoz shogird an'alarini hamon davom ettirib kelmoqda. Dono xalqimizda "Ustozidan o'tmagan shogird- shogird emas, "Hunarli kishi xor bo'lmaydi", "Ustoz otangdek ulug'" singari maqol va iboralarni ijod etganlar va farzandlarining barkamol bo'lib ulg'ayishini orzu qilganlar.

Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy kasb-hunar to'g'risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlar bergan, chunonchi, ta'lim va so'z ko'nikmalari, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish harakat ekanligini, muayyan kasb-hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo'lishini aytgan [II.5,-86b.]. Bu mulohazalardan ko'rinib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan zarur hayotiy vosita bo'lib kelgan. Ota-bobolarimiz shu o'zlari shug'ullanuvchi kasblari orqali ro'zgor tebratib oilalarini boqishgan va o'z kasblarini sezuvchi, uni ardoqlovchi insonlar bo'lishgan. By kasblar asosan avloddan - avlodga meros bo'lib kelgan.

Abu Ali ibn Sino buyuk qomusiy olim sifatida barcha hodisalarning mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berishga harakat qilgan sharq mutafakkirlaridan biri. Uning pedagogik-psixologik qarashlari ilmiy asosda qurilgan bo'lib, u bolaning fe'l-atvori va tasavvurini shakllantirishda umuminsoniy g'oyalar qo'llanilishini yaratgan hamda murabbiy, ota-onalarga qattiq tan jazosidan ko'ra, ularni shaxsiy ibrat orqali voyaga etkazish ma'qulligini ta'kidlab o'tgan.

Mutafakkirning “Donishnoma”, “Risolai ishq”, Uy xo‘jaligi”, “Tib qonunlari” asarlari mamlakatimiz xalqlari odob - axloq psixologiyasi va tabobat olamida alohida o‘rin tutadi [II.1,-178b.].

Olimning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga o‘rgatmoq shart deydi. Yosh yigit biror hunar o‘rgansa, uni hayotga tadbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani taminlaydigan bo‘lsagina, otasi uni uylantirib qo‘ymog‘i lozim, deb hisoblaydi.

O‘spirin hunar egallashi bilan birga unda nafaqat axloqiy xislar balki xarakterining irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi.

O‘spirinlarda hunar egallash orqali sabr bardoshlilik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi.

Ibn Sino har bir odamning mijozidan kelib chiqqan holda unga alohida e‘tibor berilishi kerakligini ta’kidlashi tufayli juda katta amaliy ish qilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo‘lgan xususiyatlargagina egadir, unga o‘xshagan kimsalar kamdan-kam bo‘ladi.

Allomaning falsafiy psixologik qarashlari hozirgi davrda ham ijtimoiy hayotimizda o‘z ahamiyatiga ega bo‘lib, shaxslararo munosabatlar etikasiga mumosib hissa bo‘lib qo‘shiladi. Olimning falsafa, mantiq, psixologiya, siyosiy-ijtimoiy fanlar bo‘yicha yozganlari bashariyat uchun hamon dasturi amal bo‘lib xizmat qilib kelmokda.

XI asrning buyuk mutafakkiri Yusuf Xos Xojib O‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida inson va uning hayotiga oid qarashlarini tahlil qilgan. U odamning Olloh tomonidan yaratilganligini hamda odamning dunyoga kelishi, ajdodi va kelib chiqishiga nisbatan munosabatlariga bog‘liqligini aytib “Kimning nasli otadan boshlab toza bo‘lsa, undan elga yaxshilik, ko‘p manfaatlar keladi” deb hisoblaydi [II.38,-269b.].

Iste’dodli shoir, etuk tarixchi, mohir tarjimon allomalarimizdan biri Muhammad Rizo Ogahiy o‘zining ijodiy faoliyatida o‘g‘il va qizlarning aqliy,

hissiy va jismoniy imkoniyatlarini g'oyat ziyraklik bilan kuzatgan holda ularning fel-atvorlarini kechroq bilib olish, salbiy va ijobiy sifatlarini osonroq aniqlash, yoqimsiz xatti harakatlarini aniqlash mumkii va uni bartaraf etish mumki, degan xulosaga keladi.

Ogahiy o'z davridagi kasb-hunar sohalari, xalq udum va an'analariga o'zining qimmatli fikrlarini bildirgan. U xalq an'analari hamda urf-odatlarini to'g'risida izoh berar ekan, turli kasb ustalarining inson kamolotidagi ahamiyatini birma-bir ta'riflab o'tadi.

XII-XVI asrlarda yashab ijod qilgan mutafakkir allomalardan Jaloliddin Rumiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Xorazmiy va boshqalarning asarlarida, qo'llanmalarida, falsafiy-psixologik mulohazalarida turli kasblarga oid turga teng bo'lgan fikrlarni aytadi.

XX asrning etuk ma'rifat parvarlari Abdulla Avloniyning 1913 yilda yozilgan "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida bola tarbiyasi, uning ijtimoiy ahamiyati falsafiy pedagogik jihatdan tushuntirib berilgan. Olim ta'lim-tarbiya jarayonida oila va jamoatchilikning o'rni, ularni o'zaro hamkorligini ulug'laydi. Uning talqiniga qaraganda, barkamol shaxsning ko'p qirrali bilimlariga ega bo'lishi, yaxshi bir kasb-korning sirlarini egallashi, ko'p jihatdan ijtimoiy muhit bilan oilaviy sharoitning uyg'unligiga bog'liqligini ta'kidlaydi.

To hozirgacha saqlanib qolayotgan qator me'moriy inshootlar, buyuk memoriy obidalar, xalq amaliy san'ati asarlari (naqqoshlik, ganchkorlik, me'morchilik) arxeologik izlanishlar tufayli topilgan hunarmandchilik buyumlari-bularning barchasi buyuk ajdodlarimizning kasb-hunar o'rganishga, yuksak iste'dodli va qobiliyat sohibi bo'lishiga oid bebaho materiallar qoldirganligini ko'rsatadi.

1.3. Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni kasbga yo‘llash bo‘yicha ilmiy-uslubiy ishlarning hozirgi holati

O‘zbekiston Respublikasida uzoq yillar davomida yoshlarni mehnat va kasb-hunarga tayyorlash, unumli mehnat jarayoniga jalb etish, kasb-hunarlar o‘rgatish xalq xo‘jaligining turli sohalarida mehnat qilish, yo‘naltirishniig turli masalalari bilan pedagog olimlar shug‘ullanmokdalar. Ular o‘z tadqiqot natijalarini nomzodlik dissertatsiyalari, monografiyalari o‘quv-metodik qo‘llanma tarzida bayon qilib kelmokdalar.

R.X.Jo‘raev, N.Shodiev, E.T.Choriev, N.S.Sayidaxmedov, N.A.Muslimov, D.Razzoqov, A.V.Soy va boshqalar o‘zlarining chop ettirgan ishlarida yoshlarni mehnat va kasb ta’limi tayyorgarligining turli sohalarini yoritdilar.

Prof.R.D.Juraev o‘zining “Uzluksiz ta’lim tizimida kasb-hunarga yo‘naltirish va shaxsning kasbiy o‘zligini anglash muommolari" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konfrensiyaga qilgan dokladida "Kasb-hunarga yo‘naltirishning asosiy maqsadi eng avvalo, individga o‘z qiziqishi, qobiliyati va imkoniyatlarini tuliq anglash, xoxish istaklarni to‘liq amalga oshirishning vosita va usullarini to‘g‘ri belgilash hamda mustaqil qarorga kelishi uchun imkoniyatlar va zarur shart-sharoitlarni yaratishdan iborat" degan muhim vazifalar haqida so‘z yuritdi [II.19,-149b.]

Prof.A.I.Vorobyovning “Maktabda kasb tanlashga yo‘llash ishining forma va metodlari” nomli qo‘llanmasida kasb tanlashga yo‘llash yuzasidan olib boriladigan ishlarni barcha forma va metodlari, ya’ni dars mashg‘ulotlari, to‘garak ishalari, korxonalarga ekskursiyalar, ishlab chiqarish ilg‘orlari bilan uchrashuvlar kasb tanlash haqidagi ma’ruzalar va hokazolar birga qo‘shib olib borilganligi muvafaqqiyatlarga erishish mumkinligi alohida ta’kidlangan[II.17,-248b.]. Shuningdek maktab o‘quvchilarining ota-onalariga maktabning boshlashg‘ich “Kamalak” va “Kamolot” tashkilotiga otaliq qilayotgan korxonalarning jamiyat tashkilotlariga tayanishi zarur deydi.

Prof.N.Shodievning "Qishloq maktablarida umumiy ta’lim fanlarini o‘rgatishda o‘quvchilarni melioratsiya kasblariga yo‘llash” nomli maktab

o'quvchilar uchun mo'ljallangan metodik qo'llanmasida uning muallifi fizika, ximiya, biologiya va boshqalar fanlarini o'rgatishda o'quvchilarga politexnikaviy ta'lim berish va fan o'qituvchilarini hamkorlikda ishlashlari natijasida fanlararo aloqa o'rnatish imkoniyatini qisqacha bayon qilgan[II.44,-111b.] Kasbga yo'llash ishlarining samarali usullaridan biri bo'lgan fakultativ mashg'ulotlar dasturlarining mazmunini va ularni o'tkazish metodikalarini tavsiya qilgan.

Respublika professional texnika ta'limi davlat komitetining o'quv metodik komiteti tomonidan nashrga tavsiya etilgan. N.Shodievning "Qishloq xo'jalik ishchi kasblari" nomli qo'llanmasida odatdagi qishloq o'rta professional-texnika bilim yurtlarida o'rgatiladigan qishloq xo'jaligining "Dehkonchilik" "Chorvachilik" hamda "Qishloq xo'jaligini mexanizatorlash va elektrlashtirish" kabi sohalari bo'yicha 40 ga yaqin ishchi kasblarning tavsiyanomasi ishlab chikilgan.

Shuningdek, prof. N.Shodievning 1992 yilda Respublikamiz hunar-texnika bilim yurtlarida tayyorlanayotgan ishchi kasblari professiogrammalarini o'z ichiga olgan qo'llanma nashr qildirdi. "Sanoat ishchi kasblari" kitobida sanoatning "Mashinasozlik va metallga ishlov berish", "Mashinasozlik texnologiyasi, metall qirqish dastgohlari va asboblari", "Enegetika", "Qurilish", "Engil sanoat" kabi tarmoqlarida faoliyat ko'rsatayotgan 40 dan oshiq ishchi kasblar tavsifi ishlab chiqilgan. Bundan tashqari mazkur qo'llanmada bilim yurtlari bitiruvchilarning umumta'lim tayyorgarlik darajasini oshirish yo'llari hamda kelajakda oliy o'quv yurtlarida o'z iste'dodi bo'yicha o'qishni davom ettirish haqida aniq tavsiyalar berilgan. Prof. N.Shodiev umumta'lim fanlarini o'qitish jarayonida o'quvchilarni kasbga yo'llash bo'yicha olib borgan izlanishlarini davom ettirib, 1989 yilda "Maktab o'quvchilarini matematika darslari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ommaviy ishchi kasblarga yo'llash" qo'llanmasini nashr ettirgan[II.48,-94b.]. Ushbu qo'llanmada muallif o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqish va moyilliklarini o'rganish va ularda turli kasblarga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirish hamda maktabda o'tkaziladigan axborot (informatsiya) – ma'lumot

xarakteristikasi kasbga maslahati (sinf rahbarlari, ota-onalar qo‘mitasining kasbga kirishini tashkil qilish va o‘tkazish bo‘yicha vazifalari etilgan.

Ma’lumki, O‘zbekistan Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi"da maktablarga eng muhim vazifalaridan biri-bu o‘quvchilarni engil ravishda kasbga yo‘naltirish deb qat’iy belgilangan. Bu o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘llash ishida butun pedagogik jamoaning faol ishtirok etishini ko‘zda tutadi. Ayni paytda umumiy o‘rta ta’lim davlat ta’lim standartlariga asosan maktabda kasbga yo‘naltirish bo‘yicha mashg‘ulotlar 8-sinfda amalga oshirish ko‘zda tutilganligi hamda maktabni bitiruvchilarning 90% kasb-hunar kollejlariga 10% esa akademik litseylarga o‘qishga yo‘naltirilishini hisobga olib etakchi olimlarimiz prof.O‘.Nishonaliev, N.Muslimov bilan hamkorlikda qator ishlanmalar yaratdilar. Prof.N.Shodiev mehnat ta’limidan "Kasbga yo‘naltirish asoslari” kursi bo‘yicha 8-9 sinflar uchun namunaviy mavzuda reja ishlab chiqdi.

Prof.N.Shodiev, B.Islomov, M.To‘lkuniylar bilan hamkorlikda “O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish” mavzusida 7 bosma taboqdan iborat uslubiy qo‘llanmani nashr qildi. Mazkur qo‘llanmada “Botanika”, “Odam va uning salomatligi”, “Fizika”, “Matematika”, “Mehnat ta’limi” fanlari dasturlari mavzularining kasb tanlash bo‘yicha imkoniyatlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, unda “O‘quvchi-yoshlarni kasbga yo‘naltirish-jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ehtiyoji“, “Kasbga yo‘naltirish maqsadida o‘quvchilar shaxsini o‘rganish”, “O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha maktab, oila, kasb-hunar kolleji hamkorligi” mavzularining matni bayon qilingan.

Prof.N.Choriev o‘zini "O‘zbekiston qishloq maktablarida o‘quvchilarning mehnat tarbiyasi" nomli o‘quv metodik qo‘llanmasida o‘quvchilar mehnatini tashkil etish, qishloq maktablarida mehnat tarbiyasining mazmuni, shakl va metodlarini yoritib bergan[II.37,-49b.]. Shuningdek, muallif maktab kasb tanlash tuzimini shakllantirish va rivojlanishini qaragan maktab kasb tanlash kengashi sinf rahbari ijtimoiy tashkilotlarning kasb tanlash bo‘yicha ishining o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilgan. R.X.Jo‘raev, O‘.Q.Tolipov, Sh.S.Sharipovlar

o'zlarining monografiyasida "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" talablari asosida uzluksiz ta'lim tizimida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslarini yoritib berdilar. Ularga asoiy e'tibor kasb-hunarga yo'naltirish ishlari tarixiy rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlari, kasb-hunarga yo'naltirishni nazariy va metodik asoslari. O'zbekiston Respublikasida mustakillik yillarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini isloh qilish omillari, shaxs tarbiyasida kasb-hunarga yo'naltirish o'rni va ahamiyati, darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining mazmunini bayon qilganlar.

Biroq, uzluksiz ta'lim tizimida yosh avlodning mehnat tayyorgarligi ularni ijtimoiy foydali, unumli mehnatini tashkil etish zamon talabiga uyg'unlashgan holdagi mazmuni, shakli, metodi va vositalarini ishlab chiqish mustaqil davlatimiz pedagogik omillari oldida turgan dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki mehnatkash xalqimiz asrlar davomida o'zining ilg'or madaniyati, milliy qadriyatlari, an'analari, urf-odatlarini amaliy san'at xalq hunarmandchiligining boy merosi bilan faxrlanib keladi.

Mustakillik yillarida Respublikamiz olimlari uchun xalq hunarmandchiligini turli sohalari, yo'naltirishlari va qirralarini o'rganishga keng imkoniyatlar yaratildi. Buning dalili sifatida keyingi yillarda R.Sarsenbaeva, D.Zohidova, O.Jamoliddinova va boshqalarning nomzodlik dissertatsiyalari, o'quv-metodik qo'llanma, ishlanmalarini ko'rsatish mumkin.

Ayniqsa ushbu sohada prof.S.A.Bulatovning ilmiy-tadqiqot ishlari diqqatga sazovordir. U o'zbek amaliy bezak san'ati turlaridan ganchkorlik, naqqoshlik, yog'och o'ymakorligi, kulolchilik, kashtachilik, gilamchilik va boshqa hunarlar tarixi rivojlanish yo'llari shuningdek Buxoro, Samarqand, Xiva, Toshkent, Farg'ona viloyati, Shahrisabz hunarmandchilik maktablari ularning o'ziga xos xususiyatlarini yoritgan.

O'quvchilarni kasbga tayyorlashga yo'llash muammosini ishlab chiqish jadallashtirishga S.Ayniy nomidagi Samarqand davlat pedagogika instituti bazasi prof.N.Shodiev rahbarligida o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlar ("O'quvchi-

yoshlarni mehnat ta'limi tarbiyasi va kasb tanlashni takomillashtirish" 1979 yil) umumta'lim maktablari hunar texnika bilim yurtlari ba'zi korxonalarning kasb tanlash ishini takomillashtirish (1989 yil "O'quvchi yoshlarni kasb va hunarga tayyorlash" (1992 yil)ning ta'siri katta bo'ldi.

Chunki mazkur konferensiyalarga sobiq sovet ittifoqini barcha hududlarida pedagog olimlar ilmiy ma'ruzalar bilan qatnashdilar, ilmiy-amaliy tajribalari bilan bahamlashdilar. Jumladan, yuqorida ko'rsatilgan konferensiyalarga ma'ruzalar taqdim etganlar orasidan Sobiq Sovet ittifoqining pedagogika fanlari akademiyasi akademiklari P.R.Atutov, A.P.Belyaeva, A.P.Seyteshev, professorlar K.SH.Axiyarov, A.D.Sazonov, V.D.Simonenko, S.U.Kalyuga, P.T.Magzumov, I.T.CHoriev va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Konferensiyasi geografiyasi ham juda keng bo'lgan-Belorusiya, Ukraina, Ozarbayjon, Rossiya, Boshqirdistonni qamrab olgan. Yuqorida bayon kilingan respublikalarda mazkur soha bo'yicha nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish uchun imkoniyat yaratadi. Ular jumlasiga A.SH.Magdievning "Qishloq o'quvchilari mehnat ta'limi va tarbiyasining kasbiy yo'naltirilganligi" (1990), I.G.Karimovning "Qishloq o'quvchilarini keng ixtisosli mexanizator kasbiga tayyorlashning ilmiy-pedagogik asoslari" (1991 y), E.T.Ro'zievning "Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga mehnat tarbiyasi berish va kasbga yo'llash ishiga tayyorlash" (1992 y), O.A.Atijonov "Ijtimoiy foydali unumli mehnat jarayonida 5-9 sinf o'quvchilarining kasbiy yo'nalganligini tarbiyalash" (1993 y), B.X.O'rozovning "Talabalarni unumli mehnat jarayonida kasb tanlashga tayyorlashning metodik sharoitlari" (1997 y) va boshqalarni kiritish mumkin.

Birinchi bob bo'yicha xulosa

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi talablarini oshira borib mamlakatimizda o'quvchilarni kasb yo'naltirishning to'rt bosqichli tizimi ishlab chiqilib, xalq ta'limiga joriy qilindi.

O'quvchilarning qiziqishlari, qobiliyatlari va xalq xo'jaligini kadrlarga bo'lgan talabini hisobga olishda ularni ongli ravishda kasb tanlashlari jamiyatimiz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muhim vosita ekanligi yoritib berildi.

Mazkur bobda yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash va kasb-hunarga egallash masalasi bo'yicha Movarounnaxrlik alloslarning talqiniga keng o'rin berilgan. Jumladan, Sohibiron Amir Temur ilk bor kasb tanlash ishini o'z armiyasiga navkarlikka qabul qilishda ko'llagini, ya'ni askarlikka nomodning uch sifatiga – aql zakovati, ziyrakligi, qilich va qalqonni ishlati bilishi darajasiga va kuch-quvvati bo'yicha tanlab olinganligini ta'kidlash lozim.

II BOB. BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHISINI KASB TANLASH ISHIGA TAYYORLASHNING MAZMUNI, SHAKLI, METOD VA VOSITALARI

2.1. Bo‘lajak boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisining kasb tanlash ishiga pedagogik-psixologik tayyorgarligi

Bo‘lajak boshlang‘ich sinfi o‘qituvchisini o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish bo‘yicha ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirishda etakchi o‘rin olgan pedagogik turkum fan (“Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Pedagogika”, “Pedagogik mahorat”, “Tarbiyaviy ishlar metodikasi” va h.k.)lar o‘quv dasturlari tuzilmasi va mazmunini tahlil qilish natijalarining ko‘rsatishicha, mazkur fanlarning mavzu va savollari “Mehnat tarbiyasi” mavzusini hisobga olmaganda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni kasb tanlash ishiga yo‘naltirilmagan. “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fanining “Mehnat tarbiyasi” tizimi, mazmuni va mehnat tarbiyasi metodlarini talabalarga yoritib berishda, ushbu faoliyat turini o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘naltirishning muhim va zarur sharti ekanligini alohida ta‘kidlash joiz. O‘quvchilarning turli-tuman mehnat faoliyatlarini qarash jarayonida talabalarga turli kasblar bilan tanishtirish va ularga pedagogik ta‘sir yo‘llarini ko‘rsatish mumkin. Bilish va professional qiziqishlarini rivojlantirishdagi roliga, o‘quvchilar kamolotini yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib, ularning aktiv faoliyatiga pedagogik rahbarlik zarurligiga to‘xtalish, tanlayotgan kasbga qat‘iy qiziqish hosil qilish uchun, u yoki bu sinfi o‘quvchilarining turli fanlarga qiziqishini hisobga olib, ularga mo‘ljallangan tadbirlar sistemasini ishlab chikish kerak. Komunistik tarbiya vazifalarini amalga oshirishda - ya‘ni kishini shakllantirishda har bir kishining qobiliyatlaridan jamiyat uchun ko‘proq foyda keltiradigan qilib foydalanishga o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llashning ahamiyatini: kasb tanlashga yo‘llashni politexnika ta‘limi va mehnat tayyorgarligi bilan birga amalga oshirishda, jamoat tashkilotlari, otaliq korxonalarning, otalarning o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash va ishga joylashtirishga doir faoliyatini muvofiqlashtirishda umumiy ta‘lim maktabining rolini tushunishga

erishish muhim- ahamiyatga ega. Maktab, oila va otaliq qiluvchi ishlab chiqarish jamoaining o'zaro hamqorligi masalasiga alohida to'xtalish, bunda o'quvchilarning shu sohadagi ish mazmunini ochib berish lozim. Studentlarga o'quvchilarning professional qiziqishlarini o'rganishda ikki ota-onalarning kasblarga, o'z bolalarining professional qiziqishlariga, shuningdek, ma'lum bir kasbni tanlash sabablariga bo'lgan munosabatini aniqlashda sinf rahbariga yordam berish kabi topshiriqni berish mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarning o'quvchilari bilan olib boriladigan kasb tanlashga yo'llash ishiga nazariy jihatdan tayyorlashni takomillashtirish leksiya va seminar mashg'ulotlarini kasb tanlashga yo'llash xarakteridagi mashg'ulotlar bilan to'ldirish, turli xil sinfdan tashqari ish formalarida foydalanishni nazarda tutadi. Ularni kasb tanlashga yo'llash ishiga nazariy va amaliy jihatdan tayyorlash eng yaxshi maktablarga, maktabdan tashqari muassasalarga va boshqa joylarga ekskursiyalar o'tkazish muhim rol o'ynaydi. Ular ko'zlagan maqsadga qarab kursning tegishli temalarini o'rganishdan oldin yoki keyin o'tkazishi mumkin. Masalan: Samarqand pedagogika institutida bo'lajak fizika, mehnat o'qituvchilarining "Yosh texnik" stansiyasi, Pionerlar uyidagi texnika to'garaklari, bo'lajak biologiya o'qituvchilarini esa "Yosh naturalist" stansiyasiga uyushtiradigan ekskursiyalari juda qiziqarli o'tadi. Bundan tashqari eng yaxshi shahar va qishloq maktablariga muntazam ekskursiya uyushtirib turiladi. Masalan Samarqand shahridagi 7, 8,- 4-maktablarga, Samarkand qishloq rayonidagi 1-maktabga, Pstdarg'om rayonidagi 1, 2, 6-maktablarga va hokazo.

O'zbekiston ilmiy-ommabop va hujjatli filmlar studiyasi ishlab chiqargan "Kichkintoylar ustози va murabbiysi" pedagog O.Sharafiddinovning hayoti va mehnat faoliyati to'g'risida). "Kim bo'lsam ekan?"(maktablarda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash yuzasidan olib borilayotgan ishlar haqida) kabi o'quv filmlarini namoyish qilish va shuningdek, turli kitobxonlar konferensiyalari, pedagogik bilimlarga extiyoj uyg'otishga, o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashga bo'lgan qiziqishning ortishiga yordam beradi. Bundan tashqari birinchi kurs studentlarini mamlakatimizda va chet elda kasb tanlashga yo'llash ishining tashkil

etilishi va rivojlanish tarixi bilan yanada kengroq tanishtirishga, maktabda kasb tanlashga yo'llash nazariyasini chuqurroq o'rganishga yo'llaydi.

“Pedagogika nazariyasi va tarixi” fanini o'rganish studentlarni kasb tanlashga yo'llash ishiga tayyorlashda keng imkoniyatlar beradi. Uning maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni hozirgi zamon pedagogika fanini ilmiy asoslariga doir bilimlar, bolalarga ta'lim va tarbiya berish uchun zarur bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalar bilan qurollantirishdan iborat.

O'quvchilar shaxsini sistemali va maqsadga muvofiq ravishda o'rganmasdan turib, maktabda ularni kasb tanlashga yo'llash ishi borasida samarali natijalarga erishish qiyin. Shu nuqtai nazardan "Pedagogika fani va ilmiy-pedagogik tadqiqot metodlari" temasida o'quvchi shaxsini o'rganishning eng ma'qul metodlarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarni o'rganish davomida ular har bir o'quvchining qaysi kasbni egallash niyatlarini, bular uning qobiliyatlariga qay darajada mosligini, kasb tanlash sabablarini; o'qish va sinfdan tashqaridagi qiziqishlarini, ularning kasbiy niyatlari bilan bog'liqligini, ota-onalarning bolalarning qanday kasbni tanlashiga bo'lgan munosabatlarini aniqlaydilar.

O'qituvchi pedagogik kuzatish davomida faqat o'quvchilarning o'quv va ijtimoiy ishlarga munosabatini aniqlab, ularning kasbiy qiziqishlarini qayd qilibgina qolmaydi, balki ularning asosida nima yotganligini tushunib oladi, rivojlanish dinamikasini kuzatib boradi, kasb tanlashga yo'llash ishining samaradorligini oshirish uchun aniq tadbirlar belgilaydi va ularni amalga oshiradi.

Maktab tajribasida keng qo'llanilayotgan individual-jamoaviy suhbat metodi o'quvchilarning qanday kasbni tanlash niyatlarini, buning sabablari, kasbga qiziqishning barqarorligi va h.k.larni aniqlashga imkon beradi. Bu esa, shubhasiz, o'smirlarda kasbga ijobiy munosabat tarkib toptirishda o'qituvchiga yordam beradi.

Boshqa metodlar bilan bir qatorda anketa metodidan ham foydalaniladi. Bu metod o'quvchilarning kasblarga qiziqishi, kasbni tanlash sabablari, kasb tanlashga ta'sir etuvchi faktorlar haqida taxminiy ma'lumotlar olishga imkon beradi. Maktab hujjatlarini, o'quvchilarning yozma ishlari, insholari, ular yasagan buyum, maket

va h.k.larni tahlil qilish metodi ham ularning professional imkoniyatlari haqida juda qimmatli material beradi.

Shu bilan birga ko'rsatib o'tilgan metodlarning hech biri: universal metod emasligini takidlash zarur. Bu kursda o'rganiladigan "Mehnat tarbiyasi" mavzusining mazmuni bo'lajak o'qituvchilarni, o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash ishiga bevosita yo'naltiriladi. Mehnat tarbiyasi sistemasini mazmuni va metodlarini ochib berganda o'quvchilarni ommaviy kasblarga yo'llashning birdan-bir sharti sifatida ana shu faoliyat turini kuchaytirish zarurligini ta'kidlab o'tish zarur. O'quvchilar faoliyatining turlarini qarab chiqish vaqtida studentlarga o'quvchilarni turli qasblar bilan tanishtirish yo'llarini va ularning to'g'ri kasb tanlashi uchun ularga ta'sir etishning pedagogik vositalarini ko'rsatish kerak. Kasb tanlashga yo'llashning muhim shakli sifatida o'quvchilarning mehnat va dam olish lageri, o'quvchilar ishlab chiqarish brigadasidagi ishlariga to'xtalib o'tish va so'ngra bevosita o'quv dasturida nazarda tutilgan kasb tanlashga yo'llash masalalarini qarab chiqishga kirishish lozim.

"Pedagogika nazariyasi va tarixi" kursining boshqa mavzularini, masalan, "Tarbiyaning umumiy metodlari" mavzusini o'rganishda bo'lajak o'qituvchilar o'quvchilarning qiziqishi, mayllari, qobiliyatini, yosh xususiyatlarini aniqlaydilar va o'rganadilar hamda shunga muvofiq ravishda kasb tanlashga yo'llashning turli shakl va metodlaridan foydalanish yo'llarini belgilaydilar. O'qituvchinnng ma'lum bir sabablarga ko'ra o'zini qiziqitiruvchi kasbni tanlashda qiynalayotgan o'quvchilarga malakali yordam berish yuzasidan olib boradigan ishlarni tahlil qilishga alohida to'xtalib o'tish zarur. O'quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash uchun kasblar hakidagi leksiya, munozara va h.k.lardan foydalanish o'quvchilar faoliyatini tashkil etish metodikasini, musobaqalarning turli shakllarini bilib olish hamda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llashda, mehnatga, hayotga yo'lni tanlashga ijobiy munosabat tarbiyalashda ularning rolini aniqlash kerak.

"Jamoaning shakllanishi va uning o'quvchi shaxsiga ta'siri" mavzusida jamoaning shaxsga ta'sir ko'rsatishidagi muhim faktori sifatida sog'lom

jamoatchilik fikrini shakllantirishga alohida e'tibor beriladi. Shu bilan birga o'quvchilar jamoaning jipsligi va uyushqoqligiga qarab bu ta'sir kuchli yoki bo'sh bo'lishi mumkin. Bolalar va o'smirlarni jamoa bo'lib bajariladigan ishlarning xilma - xil turlari jalb qilish yo'li bilan ularni jamoada tarbiyalash prinsipiga alohida ahamiyat beriladi, chunki bu jamoadan mehnat faoliyati o'smirni o'z-o'zini tarbiyalashga undaydi, o'z imkoniyatlarini to'g'ri baholash uchun sharoit yaratadi, kasb tanlashda o'ziga nisbatan ancha yuqori talablar qo'yishga majbur etadi.

“Estetik-tarbiyani” mavzusini o'rganishda xilma - xil mehnat turlarining estetik mohiyatini tizib berar ekanmiz, uning o'quvchiga biror maqsadni ko'zlab ta'sir etish uchun zo'r g'ayrat bilan ishlash ijodiy yaratuvchilik quvonchi bolalar mehnat jamoasida o'rtoqlik munosabatlariga intilish kabi emotsional irodaviy holatidan foydalanishni zavq uyg'otish bilan har qanday mehnat turiga faol kiritish mehnatga muhabbat hissi va mehnat qilish ehtiyojini tarbiyalashga yordam berishi kerak. Ayni vaqtda har qanday ishchi ish o'rnini to'g'ri tashkil etsa, xarakterlar go'zalligiga erishsa, o'zida yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalasa va mehnatda yuqori natijalarga intilsa, uning ishi chinakam go'zal va ijtimoiy ishga aylanishi mumkin.

Sinf rahbarlarining o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash va bitiruvchilarni ishga joylashtirish ishlarining muhimligini ta'kidlaganda, studentlar e'tibori ishlarning mazmuniga varatiladi. Sinf rahbari o'quvchilar bilan olib boradigan kasb tanlashga yo'llash ishlarini ularning qiziqishi, mayllari, qobiliyati va individual xususiyatlarini hisobga olib planlashtirishi, leksiya, suhbat, sinfdan tashqi ishlar samaradorligini oshirishi va o'quvchilarni ijtimoiy foydali ishlarga, texnika va qishloq xo'jaligi ishiga jalb qilishi lozim. A.S.Makarenko ko'rsatib o'tganidek, tarbiyachi “Tarbiyalanuvchining jim bo'lishni istashini, buning uchun nima ishlar qilishini, uning orzu - istaklari qanchalik realligini, bularni u uddalay olish yoki uddalay olmasligini” bilishi kerak.

Bo'lajak pedagoglarni kasb tanlashga yo'llash masalalari bilan tanishtirish uchun "Sinfdan va maktabdan tashkari tarbiyaviy ishlar" mavzusining ham katta imkoniyatlar bor. Unda sinfda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilar

bilan olib boriladigan kasb tanlashga yo'llash ishlarining tashkiliy shakllari, mazmun jihatidan xilma - xiligini ko'rsatish zarur. Respublikamizning qishloq maktablarida keng tarqalgan ish formalariga alohida to'xtalib o'tish lozim. Kasb tanlashga bag'ishlangan konferensiya, munozara, kechalar, veteranlar, mashhur kishilar bilan uchrashuvlar o'tkazish metodikasini qarab chiqishda o'quvchilarga yordam berishga doir kasb tanlashga yo'llash ishlarining mazmuni (qaysi kasbni egallashini o'zi belgilab olish, hayotda o'z o'rnini topish kabi hayotiy muhim masalalarni tushuntirish; qishloq xo'jalik mehnatining istiqbollarini baholash; ma'lum bir rayon uchun zarur kasblarni, ularga qo'yiladigan talablarni va h.k. larni bilib olish) ochib beriladi.

Maktab to'garaklarining ahamiyati haqida gapirganda, ularning ko'pchilik holda kasb tanlashda maxsus qiziqishlarni rivojlantirish vositasi ekanligini ta'kidlab o'tish zarur. Kasb tanlashga yo'llash ishining forma va metodlari amaliy mashg'ulotlarda, to'garaklarda ochib beriladi. Asosiy e'tiborni to'garak ishining o'quvchilar qiziqishini aniqlash, rivojlantirish va mustahkamlash, shunindek, ularni xilma - xil kasblar bilan tanishtirishga doir turli bosqichlariga qaratiladi.

O'quvchilarni kishilar mehnati bilan tanishtirish (bu ishni ishchilarning ish joylarida o'tkazish ma'qul) ularning ishlarda bevosita ishtirok etish, jonajon o'lka bo'ylab uyushtirilgan ekskursiya, turistik poxodlarda va o'lkashunoslik ishida qatnashishni kasb tanlashga, o'quvchilarning shu kasbga layoqatliligini aniqlashga jiddiy yordam beradi. Respublika olimpiyada, konkurslar tobora ommaviy xarakter kasb etayotganligini qayd qilib, ularning o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishining muhim vositasi ekanligini ta'kidlab o'tish kerak, Bundan tashqari, ular o'quvchilarning politexnik ong-bilim doirasini keygaytirishga, ularda ijodiy mehnat qilish istagining paydo bo'lishiga, chuqur va jiddiy o'quv, professional, qiziqishlarning shakllanishi va rivojlanishiga yordam beradi. Olimpiada topshiriqlari qishloq xo'jalik ishlari mazmuni bilan to'ldirilishi lozim. "Yosh naturalistlar", "Yosh texniklar" stansiyalar, turli xil to'garak va shu'balar, mehnat va dam olish lagerlari o'quvchilarning bilimga qiziqishini oshiribgina kolmaydi, balki mehnat malakalarini egallash, mehnat vositalari va qurollari, ishlab chiqarish

texnologiyasi bilan tanishtirish va kasblarni ongli ravishda» tanlashi uchun baza boʻlib xizmat qiladi. Studentlarda qiziqish uygʻotish maqsadida Shahrisabz, Xiva rayon “Yosh naturalistlar” stansiyalari, Olmaliq shaharidagi "Yosh texnika" stansiyasi va boshqalarning oʻquvchilarda moddiy ishlab chiqarish sohasidagi, qishloq xoʻjaligidagi xodimlariga texnikaviy ommaviy kasblarga ijobiy munosabatni tarbiyalash yuzasidan olib borgan ish tajribalari haqida gapirib berish maqsadga muvofiqdir.

Oʻsmirlarga kasblar haqida bilim berish va ularning oʻz yoʻlini belgilab olishida ota-onalarning rolini qayd qilar ekanmiz, ayni shu vaqtda oʻquvchilarda qatʼiy professional qiziqishning rivojlanishi va shakllanishi koʻp jihatdan oila va maktabning birgalikdagi samarali ishlari bilan belgalanishini ham taʼkidlab oʻtish zarur. Ota-onalarning oilada kasb tanlashga yoʻllash ishida faol yoki passiv ishtirok etishini, ularning shu sohadagi pedagogik bilimlari darajasi har xilligini tahlil qilishda studentlar eʼtiborini bolalarning oila va maktabdagi mehnat tayyorgarligi, ularda, mehnatsevarlik va mehnatga ijobiy munosabatni tarbiyalash, ularning bilim olishga va mehnatga qiziqishi, oila sharoitida ana shu qiziqishlarni shakllantirish kabi masalalar yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borish zarurligiga qiziqish kerak. Shu bilan birga maktab oʻquvchilari bilan olib boriladigan kasb tanlashga yoʻllash ishlarini keng avj oldirishda ota-onalarning turli shaklda ishtirok etishidan ham foydalanishi mumkin, buning yoʻllari juda koʻp. Masalan, ota-onalarni maktabdagi kasb tanlash masalalariga bagʻishlangan turli tadbirlarga (suhbat. konsultatsiya, ekskursiya, uchrashuvlar oʻtkazish va h.k.larga) jalb qilish, umummaktab va sinf ota - onalar majlisida xalq xoʻjaligining maʼlum bir sohasi, oʻzi ishlayotgan korxona, oʻz kasbi haqida- soʻzlab berishini uyushtirish; ayrim kasblarga bagʻishlangan maxsus koʻrgazmalar tashkil etishga qatnashtirish va boshqalar.

Boʻlajak oʻqituvchilarni oʻquvchilarning psixologiyasiga bogʻliq boʻlgan tegishli bilimlar, bilimlar bilan qurollantirilmasa, ularni kasb tanlashga yoʻllash ishiga nazariy jixatdan tayyorlashda pedagogik fanlar kompleksiga oʻtkazilgan tadbirlar sistemasi tugallangan boʻlmaydi. Shuning uchun “ Umumiy

psixologiya”, Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya” kurslarini o‘rganishda yuqoridagi holatlarni amaliy jihatdan ro‘yobga chiqarish imkoniyatlarini aniqlab olish zarur.

Ma’lumki, kasb tanlashga yo‘naltiriladigan ob’ekt va kasb tanlashga yo‘llash protsessining psixologik – pedagogik sharoitlarini bilgan taqdirdagina o‘quvchilarga hayot yo‘lini tanlashda yordam berishi mumkin. Shu sababli studentlar shaxsni o‘rganish metodlarini egallab olishi kerak. O‘quvchilarning qanday kasblarga qiziqishini o‘rganishda anketa tarqatish yo‘li bilan so‘rash, insho yozdirish, o‘quvchilar, ota-onalar bilan suhbatlashish, ulardan intervyu olish kabi vositalardan kompleks xolda foydalanishga to‘g‘ri keladi. Vaxolanki, bu vositalar hali mukammal emas, ularning ba’zilaridan foydalanish texnikasi esa etarli ishlab chiqilmagan. Bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘quvchilar shaxsini o‘rganishning ma’lum bir metodini tanlash malakalarini singdirishda oldiga qo‘yiladigan vazifalardan kelib chiqish lozim. Masalan, professional qiziqishlarni aniqlash metodi sifatida inshodan foydalanishda o‘quvchilarning qiziqishi, kasb tanlashdagi individual xususiyatlari (echinmalarining emotsiyaliligi, ideyalar) yorqin namoyon bo‘ladi. Buning uchun o‘quvchilarga quyidagi insho temalarini tavsiya qilish etarli: “ Kim bo‘lishni istayman?”, “ Meni qanday kasblar qiziqtiradi?” “O‘zimni sevimli ishga tayyorlash uchun nimalar qilayapman?” va h.k.

O‘quvchilar psixologiyasini o‘rganish va ularni tarbiyalashni pedagoglar faoliyatdagi yagona jarayon deb qarab, o‘quvchilarning kasb tanlash sabablari psixologiyada konkret qanday o‘rganilishini studentlarga ko‘rsatib berish lozim. Ayni vaqtda, kasb tanlashga yo‘llash ishining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan psixologiya fanining o‘quvchilarda kasb tanlash sabablarini o‘rganish, ularning shakllanishi va rivojlanishiga doir materiallar bilan qaydarajada qurollanganiga bog‘liq. "Shaxs, uning tuzilishi va namoyon bo‘lishi" temasida professional qiziqish, professional niyat, mayl kabi kasb tanlashga oid tushunlarning mohiyatni ochib beriladi, professional qiziqish bilan ayrim o‘quv fanlariga qiziqishining bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Bunda bu bog‘liqlikning dialektiv xarakterini hamda o‘quvchilarning ongli kasb tanlashida bilishga qiziqishning shakllanishi va

rivojlanishini maqsadga muvofiq ravishda boshqarish uchun undan foydalanish zarurligini qayd qilish muhimdir. O'qituvchilar o'zlarining amaliy ishlaridan o'quvchilarning tanlayotgan kasblariga turlicha munosabatda bo'lishiga duch kelayotganligi sababli pedagoglarning o'quvchilar bilan olib boradigan tarbiyaviy ishlari planini analiz qilish muhim ahamiyatga ega.

Kasb tanlashga yo'llashning asosiy problemi inson bilan uning faoliyati o'rtasidagi o'zaro bog'lanishni aniqlashdir. Shu munosabat bilan eng muhim psixologik vazifani hal etish turli yoshdagi o'quvchilarning tanlayotgan faoliyatiga o'zining layoqatliligi, o'zining mosligini baholash xarakterini aniqlash zarur, umumiy talim maktablarida olingan eksperimental ma'lumotlar ko'pchilik o'quvchilarning tanlayotgan kasblariga layoqatliklarini baholashda faqat unga bo'lgan qiziqishga asoslanishidan dalolat beradi. Ayni vaqtda qiziqish xarakteri, mazmuni va ko'lamiga ko'ra bir xilda emas va har doim ham tanlayotgan kasbiga layoqatliligi ko'rsatkich bo'lib xizmat qilish mumkin bo'lgan qiziqishning borligidan dalolat bermaydi. Masalan, ko'pchilik o'quvchilar o'qituvchilar yordamida o'zining tanlagan kasbiga layoqatliligini ob'ektiv ravishda baholay olmaydi. Shuning uchun "Umumiy psixologiya", "Yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya" kurslarini o'qitayotgan o'qituvchilar studentlarga maktabga borgandan keyingi o'qitish protsessida o'quvchilarga o'z kuch va imkoniyatlarini to'g'ri baholashda doim yordam berishi kerakligini tushuntirish lozim.

Shundan keyin o'quvchilarning qaysi kasbni tanlash niyati faqat har bir shaxsga xos bo'lgan ichki faktorlar ta'sirida emas, balki sinf kollektivi, kollektivdagi shaxslar o'rtasida bo'lgan munosabatlar ta'sirida tarkib topishini qayd qilish muhimdir. O'quvchilarning professional qiziqishlari o'sib borishi dinamikasida sinf kollektivida vujudga kelgan sharoit ("muhit") jiddiy rol o'ynaydi. Bu ta'sir ancha oldin hosil bo'lgan professional qiziqishlarni kuchaytirishi yoki o'quvchilarning ayrim qismida ularning paydo bo'lishini to'xtatib qolishi mumkin. Shuningdek u har bir o'quvchini o'z qobiliyatiga mumkinligini ham istisno qilmaydi. Lekin tajribada bu fakt etarlicha hisobga

olinmaydi, o'quvchilar kasb tanlashda o'zlarida tanlayoggan ishiga mos bo'lgan qobiliyatlarning borligiga har doim ham amal qilmaydilar. "Kasbiy mehnat jihatidan qobliyatlar xilma -xildir. Ayniqsa bir xil qobiliyatlar umumiy va maxsus tayyorgarlik darajasi turlicha bo'lsa -da, har xil kasblarda muvaffaqiyatli ishlash uchun dastlabki shart bo'lishi mumkin. Qobliyatlarning rang-barangligi kasb tanlashda shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni birga qo'shib olib borish masalasini to'g'li hal etishda dastlabki shartdir."

Ammo ko'pchilik o'quvchilar mustaqil ravishda o'z qobiliyatlarini o'zlari to'g'ri aniqlay olmaydilar, mavjud qobilyatlariga shubha bilan qaraydilar, ko'p hollara bu shubha o'quvchilarning o'ziga ishonmasligi bilan bog'langandir.

Odatda, ko'pchilik o'quvchilarning qiziqish va moyilliklari turg'un, doimiy emas. Bularni ularning o'zlari mustaqil aniqlay olmaydilar. Bu maktab va ota-onalar diqqatini o'ziga jalb qilishi kerak.

Shuning uchun ham "Umumiy ta'lim va kasb-hukar kollejini isloh qilish munosabat bilan shahar va qishloq maktablarda, o'quvchilar va ota-onalar bilan ish olib borish bo'yicha kasb tanlashga o'rgatish markazlari faoliyat ko'rsatmoqdalar.

O'z-o'zidan ravshanki, bu ishlarning negizini o'quvchilarning ongli kasb tanlashi bo'yicha o'tkaziladigan konsultatsiya tashkil qiladi. Bo'lajak o'qituvchi, sinf rahbarlarini bu sohadagi pedagogik faoliyatga tayyorlash maqsadida quyidagi o'quvchilarning ongli kasb tanlashi bo'yicha konsultatsiyasi ustida to'xtaymiz.

Kasb-kor haqida konsultatsiya deganda, biz har bir o'quvchiga kasb tanlash bo'yicha ilmiy asoslangan maslahat berishni, uning moyilligi va qobiliyatiga hamda jamiyat talabiga ko'p darajada mos keladigan kasbni tavsiya qilishni tushunamiz.

Kasb tanlash bo'yicha konsultatsiyaning tashkiliy-informatsion, meditsinaviy va psixologik kabi uchta turi mavjuddir. Biroq umumta'lim maktablari kasb kor bo'yicha konsultatsiyani uning yuqorida ko'rsatilgan ko'rinishlarida o'tkazishga tayyor emasdir. Masul vazirliklar, idoralar, tashkilotlar esa o'qituvchilar, sinf rahbarlariga ushbu soha bo'yicha maxsus

tayyorgarlik berishni tashkil qilishga hali shoshilganlaricha yo'q. Bundan tashqari o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini sistemali ravishda o'rganish, ularning qiziqishlari, moyilliklarining o'zgarish dinamikasi haqida ma'lumot yig'ishga e'tiborsizlik qilayapti hamda o'smirlar to'g'risida to'plangan kuzatish, o'quvchilar dokumentlari va faoliyatlarning analizi, suhbat va anketa natijalari maktab pedagogik jamoasi tomonidan etarli darajada umumlashtirilmayapti. Ko'pchilik maktablarda har bir o'quvchiga yurgiziladigan o'quvchining kasb tanlash kartochkasi faqat nomiga mavjud.

Shuning uchun ham maktab, odatda, uncha murakkab bo'lmagan shaxsni psixologik jihatdan o'rganish elementlariga asoslanib, o'quvchilar bilan informatsiya - spravka xarakterida shaxsiy (individual) konsultatsiyani o'tkazish murakkab va ma'suliyatli ishdir. O'quvchilarni ongli kasb tanlashga tayyorlash bo'yicha konsultant sifatida maktab psixologi, ilmiy bo'lim mudiri, tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbari yoki kasb tanlash bo'yicha maxsus seminarni tugatgan o'qituvchi - pedagoglar faoliyat ko'rsatishlari mumkin.

Informatsiya- spravka xarakteridagi kasb - kor konsultatsiya odatda, bir necha bosqichda amalga oshirilib, konsultant - o'quvchilar (shu jumladan, ularning ota-onalari) bilan suhbat o'tkazish orqali ularning ishga joylashish haqidagi hamda turli kasblarning xarakteristikasi haqidagi va h.k. savollarga javob beradi.

Sinf rahbari boshchiligida turli predmetlar o'qituvchilari jamoasi tomonidan o'quvchilarni o'rganish, odatda, ularni o'z-o'zini anglashi (tushunib olishi), ma'lum bir mehnat faoliyati yo'nalishiga qarab-mustakil ish tutib ketishi uchun sharoit yaratish bilan yakunlanadi. Albatta, bu kasb-kor bo'yicha konsultatsiyani yakunlovchi bosqichini o'tkazishni ancha engillashtiradi.

O'quvchilarni ongli kasb tanlashga tayyorlash bo'yicha konsultatsiyaning oxirgi bosqichi bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan bo'ladigan yakunlovchi suhbat bo'lib, u to'plangan barcha materiallar (vrachning bergan xulosasi va tavsiyasi va h.k.)nio'rganib bo'lgandan keyino'tkaziladi. Bunday ishning yakuni o'qituvchining kelgusi hayotiy yo'li to'g'risida konsultant tuzgan xulosa hisoblanadi.

Qiziqishlar bo'yicha gruppalarda o'quvchilarni ongli kasb tanlashga tayyorlash maqsadida konsultantning ular bilan o'tkazadigan suhbatini, ularga beradigan maslahatini va tavsiyasini alohida-alohida gruppaga o'tkazish mumkin. Kasb-kor bo'yicha konsultatsiya o'tkazishi umumiy sxemasi mana, shulardan iboratdir.

Islohotni ro'yobga chiqarish munosabati bilan maktablarda o'quvchilar bilan kasb tanlash bo'yicha informatsiya spravka xarakterida o'tkaziladigan konsultatsiya ishini hozirning o'zidayoq jonlantirib yuborish mumkinligini alohida ta'kidlash zarur.

Bunday konsultatsiyani o'tkazish uchun zarur bo'lgan informatsion – spravka materiallar tayyorlash metodikasi ustida keyinroq (3 bob, 1 paragraf) to'xtalamiz.

Studentdarni kasb kor haqida konsultatsiya berishga tayyorlashda psixologiya kursining boshqa mavzularini ham keng imkoniyatlaridan to'la foydalanishni unutmasligimiz zarur. Ushbu kursning qobiliyatning umumiy xarakteristikasi, "Diqqat", "Nutq", "Idrok", "Xotira", "Sezgi", "Tafakkur", "Iroda", "Xayol", "Hissiyot" kabi mavzulari esa bo'lajak pedagoglarni o'quvchilarni ongli kasb tanlashi bo'yicha konsultatsiya o'tkazishga tayyorlashda yuqorida boshlangan ishlarni mahalliy kasblar misolida yanada aniklashtirishga imkon beradi. Bu masalalarning ko'pchiligi ayni vaqtda mehnat psixologiyasi, uning xavfsizligi psixologiyasi tushunchalar bo'lgani uchun ham ularni o'rganish muhim tafakkur va nutq, xayol, hissiyot va iroda kabi psixologik jarayonlar turli kasblardagi ishlarda mahoratni (bilim, ko'nikma, malakalarni) tarkib toptirishning, mehnat faoliyati samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligini aniqlangan.

Psixologik-pedagogik fanlarni o'rganish jarayonida talabalarni kasb tanlashga yo'llashga tayyorlash malakalarini oshirish imkoniyatlarini aniklashda bu programma, darslik va boshqa qo'llanmalar mazmunini analiz qildik hamda shu fanlar ichida psixologiya va pedagogika o'rtasida bir kator takrorlashlar va nomuvofiqliklarni sezib qoldik. Psixologik-pedagogik fanlarni o'rganishdagi izchillik prinsipi studentlar mehnatini ilmiy tashkil aetish jihatlaridan biri sifatida

ta'limni ratsionalizatsiyalashtirishga, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda sistemalilikka yordam beradi va avval o'tilgan materialning takror o'rganilishini istisno qiladi. Lekin shu bilan birga respublikamiz pedagogika institutlaridagi qator pedagogika va psixologiya kafedralari faoliyatini tahlil qilish bu ishning ilmiy - metodik tomoniga hamma erda ham etarlicha e'tibor berilmaganini ko'rsatdi.

Psixologik-pedagogik fanlarning turli kurslarida materiallarning takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik, ularning izchil bayon qilinishi uchun o'rganiladigan materiallarni sinchiklab tanlash zarurligi seminar va amaliy mashg'ulotlarda va maktabdagi pedagogik praktika amaliyoti vaqtida yaqqol ko'rinib qoladi. Masalan, kasb tanlashga yo'llash ishini rejalashtirish malakalarini shakillantirishning nazariy asoslari pedagogik- psixologik fanlarining "Tarbiyaning umumiy metodlari", Maktabdagi "Kamolot" YOIX boshlag'ich tashkiloti "Sinf rahbarining ishi", "O'quvchilar bilan olib boriladigan sinfdan va maktabdan tashqari ishlar" kabi mavzulariga bag'ishlangan o'quv mashg'ulotlarida hosil qilinadi. Amaliy va seminar mashg'ulotlarida esa studentlar rejalashtirishning asosiy prinsiplari va metodikasi, sinf rahbari, maktabdan tashqi muassasa pedagoglari rejalariga qo'yiladigan talablar bilan tanishadilar. Tabiiyki, material, tanlashga pedagogika va psixologiya kafedralarining o'qituvchilarida muvofiqlik bo'lmasa, bo'lajak o'qituvchilarning maktab, maktabdan tashqari muassasalardagi turli xil faoliyatini rejalashtirishga taalluqli masalalarda takrorlashning oldini olish qiyin.

SHu bilan bir qatorda studentlarga pedagogik topshiriqlar berishda ko'pincha ularning psixologik bilimlariga etarlicha e'tibor berilmasligini, ya'ni pedagogik malakalar bilan psixologik malakalar o'rtasida nomuvofiklik sodir bo'lishini qayd qilish zarur. Masalan, pedagogikaga doir seminar va amaliy mashg'ulotlarda studentlarga sinf rahbarining ish rejasi tuzish tavsiya kilinadi, va holanki ular hali sinfning psixologik xarakteristikasi bilan tanishtirilmagan bo'ladi.

2.2. “Mehnat. Mehnat o‘qitish metodikasi” fanining o‘rganish jarayonida talabalarni kasb tanlash ishiga o‘rgatish.

Maktabda o‘quvchilarni mehnatga, mehnat kishilariga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni mehnat faoliyatiga tayyorlash tizimida mehnat ta’limi fani alohida o‘rin egallaydi. Chunki, mehnat ta’limi jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi:

- O‘quvchilarda, ularning kelajak faoliyati uchun zarur bo‘lgan maxsus bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;
- Texnikaga va texnik mehnatga qiziqish, moyillik va qobiliyatni rivojlantirish;
- Mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish (fikrlash, diqqatni taqsimlash, ish jarayonida diqqat-e’tiborni qaratish va h.k.);
- Mehnatga vijdonan munosabatda bo‘lish, mehnat ishlariga hurmatda bo‘lish, jamiyat uchun mehnat zarurligini aniqlash va h.k.

Mehnat ta’limi boshqa umumta’lim predmetlaridan farqli ravishda o‘ziga xos xususiyatga ega. Mehnat ta’limi umumta’lim tayyorgarligining tarkibiy qismi bo‘lib qolishi bilan birga, u ayni vaqtda yoshlarni mehnatga tayyorlash umumiy mehnat sistemasining birinchi bosqichi hisoblanadi va ijtimoiy mehnatning 4-umumiy xarakteri alomatlarini aks ettiradi.

Kasbga yo‘naltirishning umumiy muhim holatlari va yoshlarning rivojlanishi psixofiziologik xususiyatlarini inobatla olib o‘qituvchilarni ommaviy kasblarga yo‘naltirish ishini 2-bosqichda olib borish maqsadga muvofiqdir:

- 1-4 sinflarda (boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini, 5-9 sinflar (o‘rta maktab o‘quvchilari).

Birinchi bosqichda maktabda kasb tanlash ob’ekti bilan ishdagi bolalar hisoblanadi. Ularning diqqati odatda u yoki bu kasbga tasodifiy beqaror omillar bilan jalb qilinadi. Bu erda kasb tanlash zarurligini anglash haqida hech qanday so‘z bormaydi. Biroq ana shu yoshdan boshlab bolalarda hamma narsa mehnat bilan yaratiladi, mehnat odamlar hayotining zarur sharti ekanligi haqida aniq tasavurlarni shakllantirishni boshlamoq zarur. Ushbu davrda asosiy mehnat turlari

va kasblar bilan umumiy tanishtirishni ota-onalar kasbiy faoliyati misolida amalga oshirish mumkin. Mehnatga elementar malakalarni singdirish va har qanday mehnat faoliyatiga hurmatni tarbiyalash kasb tanlash ishining birinchi etapida uni taraqqiyotning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu davrda ayniqsa, oila katta rol o'ynashi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilari hayotda zarur bo'lgan j/x o'simliklarini parvarishlash, o'quv-ko'rgazmali qo'llanmalarni ta'mirlash, o'yinchoqlar tayyorlash, maktab, bog'cha va b.q. uchun turli foydali predmetlarni tayyorlash, turli mashqlar bilan qo'l mehnatining elementar qismlari bilan egallaydi.

Ko'p oilalarda bolalarni jismoniy mehnatga majburlab jalb qilish tendensiyasi bolalarga ham katta zarar keltiradi, mehnatga hurmatsizlikni tug'diradi. Pirovard natijada yoshlar o'z o'rnini topolmaganligi va mehnatga moslasha olmaganligi tufayli og'ir ahvolga tushib qoladi.

1-4 sinf o'quvchilarida mehnatga doir elementar ko'nikmalarni singdirish bilan birga ekskursiyalar dastlab zavod, korxona, kompaniya muzeyiga so'ngra uning sexlariga o'tkazish foydalidir. Bu bolalarga juda yoshligidan boshlab ularning ota-onalarini juda muhim, ko'p hollarda og'ir ish bilan shug'ullanayotganligini tushunishlariga imkon beradi.

“Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish” ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga kiritilgan “Mehnat. Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi” fani dasturlarida “Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasi. ... Mehnat, hunar ... mehnat tarbiyasi haqida ...”, “O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishda mutafakkirlar merosi bilan foydalanish...Kasb-hunarlar haqida tushunchalari. ... mutafakkirlarning kasb-hunarga oid fikrlari...” , “Pedagogika nazariyasi va tarixi” fanining ... O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov “Ta'lim-tarbiya jarayonida ajdodlar merosidan samarali foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati”, “Eng qadimgi davrlardan XVI asrgacha ta'lim-tarbiya va pedagogik fikrlar”, “VII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar taraqqiyoti”, “XIV-XVI asrlarda tarbiya, maktab va pedagogik fikrlar taraqqiyoti” hamda Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi va pedagogik fikr taraqqiyoti [,

21-23] mavzu va savollari bo'lajak boshlag'ich sinf o'qituvchilarining o'tmishda yosh avlodni mehnat tarbiyasi, kasb tanlashi qay darajada ulug' ajdodlarimizning asarlarida bayon qilinganligi bilan tanishtirib borishni ko'zda tutadi.

Mazkur mavzu va savollarga doir materiallar esa turli manbalarda sog'ma ravishda bayon qilingan bo'lib, ular amaldagi o'quv darsliklari va qo'llanmalarda umumlashgan holda yoritilmagan. Shu bois, ulug' ajdodlarimizning boy merosini to'plash, didaktik qayta ishlash va tizimlashtirish bo'lajak sinf o'qituvchilarining ma'naviy tayyorgarligida asqotadi.

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” talablari asosida o'quvchilar kasb tanlashini turli bosqichli tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarini dastlabki kasb-hunarga yo'naltirish (“Kim bo'lsam ekan?”) ishi bo'yicha o'quv mashg'ulotlari oyda ikki marta sinf soatlari va mehnat darslari hisobidan amalga oshirilmoqda.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni dastlabki kasb-hunarga yo'naltirish mazkur ta'lim tizimida o'qitiladigan barcha fanlar orasidan mehnat ta'limi predmeti eng qulay imkoniyatlarga ega. Biroq boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mazkur soha bo'yicha faoliyatini o'rganish mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanilmayotganligidan dalolat bermoqda.

Shu munosabat bilan oliy ta'lim muassasasi (OTM) “Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish” ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida kiritilgan “Mehnat. Mehnat o'qitish metodikasi” fani namunaviy o'quv dasturi (T.2006.-8b.)ning bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini kichik yoshdagi o'quvchilarni dastlabki kasb-hunarga tayyorlash bo'yicha imkoniyatlarini namoyon qilish bilan bog'liq masalalar muhokama qilinishi joizdir.

Mazkur namunaviy dasturning “Kirish” qismida ham, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining mazmunida ham o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqtirish masalasi ko'rilmagan. Shuningdek, dasturda “O'quvchilarni kasb-hunarga qiziqtirishda mutafakkirlar merosidan foydalanish” mavzusini o'rganish ko'zda tutilgan bo'lib, unda o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqtirishning tashkiliy shakllari, metodlari e'tibordan chetda qolgan.

Yuqorida bayon qilinganlar bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga I-IV sinflar mehnat darslarida o‘quvchilarni kasb-hunarga qiziqtirish bo‘yicha to‘laqonli faoliyat ko‘rsatishga imkon bermaydi.

Ushbu sohada “OTM Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedresi professor-o‘qituvchilariga, ayniqsa yosh pedagoglarga metodik yordam ko‘rsatish maqsadida yuqorida zikr etilgan fanning mavjud mavzu va savollari ularga kasb tanlash vazifalarini singdirish nuqtai nazardan o‘rganildi va tahlil qilindi.

Bu esa bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘quv mashg‘ulotlarining mavzu va savollari mazmuni bilan uzviy bog‘liq holda boshlang‘ich mehnat ta’limining kasb tanlash bilan bog‘liq asosiy vazifalarini bajarishga, ya’ni kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarda mehnat inson hayotining asosi ekanligi to‘g‘risida e’tiqodni, odamlarning mehnat faoliyati, hudud xalq xo‘jaligi to‘g‘risida, ishlab chiqarish jarayonlari, ishchi kasblar haqida dastlabki tasavvurlarni, zamonaviy ishchi, fermer, injener-texnik xodimlar, olimlarga fan asoslarini chuqur va mustahkam o‘rganish zarurligi haqida mustahkam e’tiqodni shakllantirish, mehnat ta’limi va sinfdan tashqari, o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning qiziqish, moyillik va qobiliyatlarini o‘rganishga doir materiallar bilan qurollantirish imkonini beradi.

Quyida yuqorida zikr qilinganlarga asoslanib, “Mehnat. Mehnat ta’limi o‘qitish metodikasi” fanining nazariy va amaliy mashg‘ulotlari mavzulari va savollari mazmuni bilan uzviy bog‘langan kasb tanlashga doir materiallardan ayrim namunalar keltiramiz.

Jumladan, kafedra o‘qituvchisi “Boshlang‘ich sinf mehnat darslarida iqtisodiy bilim va tushunchalarni shakllantirish” mavzusini talabalar bilan muhokama qilish jarayonida talabalar e’tiborini kasb tanlash ishi-bu eng avvalo, bolalarga iqtisodiy ta’lim-tarbiya berish ekanligi, uni dars jarayonida amalga oshirish paytida o‘quvchilarga xalq xo‘jaligining strukturasi, kasblarning mohiyati, u yoki bu kasbning iqtisodiy ahamiyati, kabi masalalarni yoritish barobarida har bir o‘quvchidan jamiyat oldida to‘g‘ri kasb, ish joyi va yashash joyini tanlash mas’uliyatini tarbiyalash kabi masalalarga jalb qilishi lozim. Shuningdek, boshlang‘ich maktab o‘quvchilarni kasbga qiziqtirish ishi, bo‘lajak

o'qituvchilarni kasbga qiziqtirish ishi, bo'lajak o'qituvchilarni bolalarga iqtisodiy tarbiya berishning yo'nalishlaridan biri ekanligi; to'g'ri kasb tanlash mehnat samaradorligi va va sifatini oshirishga ko'maklashganligi, tanlagan kasbga ko'ngli to'lmagan insonlarning mehnat unumdorligi hech qachon yuqori bo'lmasligi, ular ishda qo'nimsizlikning asosiy sababachilari ekanligi, mazkur kategoriyaga kirgan kishilarni qayta tayyorlash davlat sarf-xarajatlarini oshirishga olib kelayotganligi bilan qurollantirish asqotadi.

Ayni paytda o'quvchilarga o'zlari yashiyotgan hududda faoliyat ko'rsatayotgan kasblar haqida etarli ma'lumotlar taqdim qilinmayotganligi sababali ular to'g'risida noto'g'ri, yanglish tasavvurlarga, ayrim bolalarda kasblarga namoyon bo'layotgan qiziqishlar ularning shaxsiy psixofiziologik imkoniyatlariga mos emasligini bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining yodlaridan chiqmasliklarini eslatish joizdir.

“Mehnat va uni o'qitish metodikasi” fani dasturining “Mehnat ta'limi dasrlarining ishlanmasini tuzish” bo'limida “Darsni rejalashtirish ... Dars ishlanmasini tuzish ...” kabi mazu va savollarni o'rganish ko'zda tutilgan mazkur mavzu va savollarni o'rganish jarayonida kafedra professor-o'qituvchisi talabalar e'tiborini kelgusi pedagogik faoliyatlarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha ishni darsning tarkibiy qismi, ularni ommaviy kasblar bilan tanishtirishning muhim sharti bo'lishi zarurligini alohida ta'kidlash lozim.

Kasb tanlash ishini rejalashtirish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish bo'yicha ishga o'qituvchi faolyatini safarbar qiladi, yo'naltiradi. Reja o'qituvchini ushbu ishda o'z roli va o'rnini topishga va samarali faoliyat ko'rsatishga ko'maklashadi.

Rejalashtirish boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish bo'yicha tarkibiy qismi, o'quvchilarni maktab atrofidagi hududda faoliyat ko'rsatayotgan kasblar bilan tanishtirishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasb tanlash ishini ilmiy asosda tashkil qilishi uchun qator talablarga javob berishi lozim:

- Maqsadga qaratilgan, ya'ni oldindan belgilangan maqsadga erishishga qaratilgan kasb tanlash faoliyati; bu pedagogning o'quvchilarda xalq xo'jaligining turli kasblarga qiziqishini uyg'otish va shakllantirishga yo'naltirilgan intilishi;
- O'quvchilarni kasblar bo'yicha o'qituvchining ishchi rejasining mazmuni-o'quvchilarda mehnatga va ommaviy ishchi kasb (kichik mutaxassis)larga ijobiy munosabatni shakllantirishga erishishga qaratilishi lozim;
- O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishini tizimli va ketma-ketlikda amalga oshirish lozim. Ommaviy ishchi kasblar haqidagi tizimli bilimlar o'quvchilarga ishchi kasblarning mehnati to'g'risida to'g'ri va to'liq tasavvurlarni tarkib toptirish, bu esa ishchi kasblarga ijobiy munosabatni shakllantirish uchun qulay sharoit yaratadi;
- Kasb tanlash ishida konsentrizmning o'rni bor, ya'ni o'quvchilarga kasblar va mehnat kishilari, texnika va texnologiya to'g'risidagi ma'lumotlar takrorlanishi, kengayishi va chuqurlanishi. Masalan, duradgor kasbi haqida tasavvur 2-3-sinflar darsliklarida beriladi. Keyinchalik 4-sinfda bu tasavvurlarni kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi. O'quvchilarning aniq kasblar to'g'risidagi bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish o'qituvchining kasb tanlash ishi rejasida aniq aks ettirilishi lozim.

Mehnat ta'limi jarayonida kasb tanlash ishi quyidagi ketma-ketlikda olib borilishi lozim: dastlab mehnat ta'limi darslarining kasb tanlash bo'yicha ahamiyati, so'ngra ijtimoiy ishlab chiqarishda kichik mutaxassislarning roli, xalq xo'jaligining ishchi kuchiga ehtiyoji, ilmiy-texnika taraqqiyotining ishchi kasblarning soni va tarkibiga ta'siri hamda mehnat mazmuni va sharoitiga ta'siri tushuntiriladi va nihoyat ishlab chiqarishning ishchi (kichik mutaxassis)ning kvalifikatsion va tayyorgarligiga talabalarni borgan sari kuchayib borishi tushuntiriladi.








Mehnat ta'limi o'qituvchisining kasb tanlashi bo'yicha ishchi rejasining haqqoniyligini ta'minlash uchun uni tuzishga kirishishdan oldin maktabda kasb tanlash ishining mazmuni bilan tanishish, o'z imkoniyatlarini baholash, mehnat

ta'limi fani dasturi mazmunini kasb tanlash nuqtai nazardan o'rganish va tahlil qilish, sinfdan tashqari ishlar bo'yicha belgilangan maktab ma'muriyati bilan aloqa bog'lab kelayotgan kasb-hunar kollejini "Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish" ta'lim yo'nalishi bilan muvofiqlashtirish lozim.

Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish bo'yicha o'qituvchining ishchi rejasida bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish talabiga tayanish. Masalan, I-IV sinflarda o'quvchilarni kasblar to'g'risida beriladigan materiallar umumiy holda tanishtirish bo'lib, u o'quvchilarda kasblar va mehnat kishilari haqida ko'proq bilimga bo'lgan intilishini uyg'otish, ularda mehnatsevarlikni tarbiyalashga qaratilgan.

Rejada o'quv yili uchun kasb tanlash ishining asosiy vazifalari, tashkiliy masalalar, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda kasb tanlash mazmuni, asosiy shakl va metodlari va o'quv yili davomida ularni bajarish muddatlari aks ettirilgan.

"Mehnat va uni o'qitish metodikasi" fanining "Amaliy mashg'ulotlar" bo'limida "Qog'ozni buklash va kesish usullari. Qog'ozni 2,4,6,8 qismlarga buklash va burchaklar hosil qilish... Qog'ozni oddiy usullarda buklab maketlar: stakan, buzoqcha boshi, xaltacha va b.q. yasash ko'zda tutilgan". Quyida "Qog'ozdan kistacha tayyorlash texnologik xaritasi"ni tuzish orqali talabalarni modeler, bichuvchi, tikuvchi, kesuvchi, texnik nazorat bo'limi (nazoratchi) kasblari bilan tanishadilar (1-rasm).

№	Ogʻzaki metodlar	Namoyish-tasviriylar metodlar	Amaliy metodlar	Dasturiy metodlar	Kasblar haqida axborot
1	Kvadratni tayyorla		Kvadratni belgilash va kesish	 Kvadratni kesish. Toʻgʻri kesilganligini tekshirib koʻrish. Agar toʻgʻri kesilgan boʻlsa 2-koʻrsatmaga oʻtish. Agar notoʻgʻri boʻlsa, yana 1-koʻrsatmaga qaytarish	Modeler, bichuvchi, nazorat boʻlimiga xodim (nazoratchi)
2	Kvadratni ikkiga bukla		Zagotovkani ikkiga buklash	 Kvadratni ikkiga bukla. Uni ikkiga buklaganini tekshirib koʻrish. Agar toʻgʻri bajarilgan boʻlsa 3-topshiriqqa oʻting.	Modeler, bichuvchi, nazoratchi
3	Kvadratni toʻrtga bukla		Zagotovkani toʻrtga bukla	 Zagotovkani toʻrtga bukla. Uni toʻgʻri buklanganini tekshirib koʻrish. Toʻgʻri bajarilgan boʻlsa 4-topshiriqqa oʻting. Agar notoʻgʻri bajarilgan boʻlsa, 3-topshiriqqa qaytaring.	Modeler, bichuvchi, nazoratchi
4	Uchburchakni bukla		Uchburchakni buklash	 Uchburchakni buklash. Burchaklarning toʻgʻri buklanganini tekshirib koʻrish. Agar toʻgʻri bajarilgan boʻlsa ishni tugatish. Agar notoʻgʻri buklangan boʻlsa, 4-topshiriqqa qaytaring.	Modeler, bichuvchi, tikuvchi, nazoratchi

Mazkur fanning “Applikatsiya ishlarining bajarilishi va uning turlari” mavzusini o‘rganish jarayonida o‘qituvchi talabalarga predmetli, syujetli va boshqa applikatsiya ishlarini bajarishda imkon darajasida o‘quvchlarni ijtimoiy foydali ahamiyatga ega bo‘lgan buyum (quti, papka, mashina, traktor modellari, fan asoslari uchun ko‘rgazmali qurollar, mehnat qurollari va boshqa predmet)larni tayyorlash, bezash, bezatish ishlari, kitob, xarita, jadval, plakatlarni ta’mirlashga jalb qilish orqali ularda badiiy mehnatga, chizmachilik va grafika bilan bog‘liq kasblarga chuqur va turg‘un qiziqishni tarbiyalash uchun keng imkoniyatlar mavjudligini uqtirish lozim.

Applikatsiya ishlari bilan bog‘liq har bir darsda o‘qituvchi o‘quvchilarni turli kasblar haqidagi bilimlarini kengaytirib borishi lozim. O‘quvchilar modellar yoki avtomashinalar, traktor, samolyotlar va b.q. applikatsiyasini tayyorlash orqali qanday ishlarni bajarganliklarini, ushbu mashinalarni kimlar boshqarayotganliklarini, shunday mashinalarni yaratish ustida qanday kasb egalari ishlayotganliklarini bilib oladilar. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari yoki o‘z qishlog‘i, tumani, shaharidagi qurilish ob’ekti to‘g‘risida hikoya qilib, o‘qituvchi asosiy quruvchi kasblarning nomlarini aytadi. Bunda “Kim nima bilan ishlaydi?”(Qaysi mehnat qurollari bilan) o‘yin-mashg‘ulotini qiziqarli tashkil etish mumkin. O‘qituvchi 5-6 mehnat qurolini ko‘rsatadi va bolalardan u yoki bu kasblar uchun xarakterli bo‘lganlari haqida gapirib berishni so‘raydi.

Boshqa mashg‘ulotlarda o‘qituvchi bolalarga “Kim bo‘lishni xohlayman?” mavzusini mustaqil ishlab chiqishni taklif qilishi mumkin. Bu erda har bir bola mavzuli applikatsiyada bo‘lajak kasbini qanday tushunishini ifodalash imkoniga ega bo‘ladi.

Predmetli, syujetli va boshqa applikatsiya ishlari bilan ijtimoiy foydali ahamiyatga bo‘lgan buyum (quti, papka, mashina modeli, mehnat quroli va boshqa predmet)larni bezash, bezatish ishlari, kitob, xarita, jadval, plakatlarni ta’mirlash, ko‘rgazmali qo‘llanmalar tayyorlashda o‘quvchilarni jalb qilish orqali ularda badiiy mehnatga chuqur va turg‘un qiziqishni tarbiyalash.

Sinfdan tashqari mashg'ulot (texnika va badiiy konstruksiyalash to'garaklari, ekskursiyalar va h.k.)larda rangli qog'oz, karton, gazmol, plastilin, loy va b.q. bilan ishlash, turli buyumlarni modellashtirish va yasash jarayonida o'quvchilarning individual o'quv-biluv qiziqishlarini kengayishi, ko'proq ijod va xayoliy havasni egallashi, o'zlarida mashg'ulotlarning u yoki bu turiga moyillikni namoyon qila boshlashi, har bir o'quvchining individual qobiliyatini rivojlanishi uchun keng imkoniyat mavjudligi kichik maktab yoshidagi o'quvchilar bilan kasb tanlash ishini amalga oshirishga qulay sharoit yaratadi. Ushbu maqsad uchun o'qituvchi mehant ta'limi va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda maxsus vaqt ajratmagan holda har bir darsda imkoni boricha o'quvchilarning turli kasblar haqida bilimlarini kengaytirib boradi. O'quvchilar modellar yoki avtomashina, traktor, samolyotlar va b.q. applikatsiyasini tayyorlash orqali qanday ishni bajarayotganliklarini, ushbu mashinalarni kimlar boshqarayotganliklarini, shunday mashinalarni yaratish ustida qaysi kasb egalari ishlayotganliklarini bilib oladilar.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan bunyodkorlik ishlari yoki o'z qishlog'i, tumani, shaharidagi qurilish ob'ekti to'g'risida hikoya qilib, o'qituvchi asosiy quruvchi kasblarning nomlarini aytadi. Bunda "Kim nima bilan ishlaydi?"(Qaysi mehnat qurollari bilan) o'yin-mashg'ulotini qiziqarli tashkil etish mumkin. O'qituvchi 5-6 mehnat qurolini ko'rsatadi va bolalardan u yoki bu kasblar uchun xarakterli bo'lganlari haqida gapirib berishni so'raydi.

Boshqa mashg'ulotlarda o'qituvchi bolalarga "Kim bo'lishni xohlayman?" mavzusini mustaqil ishlab chiqishni taklif qilishi mumkin. Bu erda har bir bola mavzuli applikatsiyada bo'lajak kasbini qanday tushunishini ifodalash imkoniga ega bo'ladi.

"Qishloq xo'jalik mehnati darsining mazmuni va undan foydalanish usullari" mavzusini o'rganish jarayonida esa talabalar kelgusi pedagogik faoliyatlarida boshlang'ich maktab mehnat ta'limi o'quv dasturiga muvofiq I-IV sinflar o'quvchilari dastlab xona sharoitida, so'ngra yilling turli fanlarida **guxlarni** saralash, ekishga tayyorlash, ko'chatlar o'tqazish, parvarish qilish, **etishtirilgan** hosilni yig'ib-terib olish, hosilni hisob-kitob qilish kabi ishlarga o'quvchilarni,

ularning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda jalb qilish hamda bolalarni gulchi, sabzavotchi, usta, bog‘bon, suvchi, agronom kasblari mehnat mazmuni bilan tanishtirish imkoniyati mavjudligiga ishonch hosil qiladilar.

Shuningdek, talabalar bu erda I-IV sinf o‘quvchilariga kasblar va mehnat kishilari to‘g‘risidagi materillarni sinfdan-sinfga takrorlanib, kuchayib va chuqurlashib borishining guvohi bo‘ladilar. Masalan, II sinfdan sabzavotchi, usta haqida tasavvur, III-IV sinflarda kengaytiriladi va chuqurlashtiriladi. Bolalarning u yoki bu kasbga qiziqishlarini imkoni boricha ertaroq aniqlash juda muhim. “Mehnat darslarining ishlanmasini tuzish” mazusida “Darsni rejalashtirish haqida tushuncha. Dars ishlanmasini tuzish” savollarini o‘rganish jarayonida kafedra professor-o‘qituvchilaridan mazkur savollarni yoritish barobarida boshlang‘ich mehnat ta’limi fanining har bir mavzusi uchun u bilan uzviy bog‘liq holda kasb tanlashni rejalashtirish lozimligini talabalarga asoslab berishni talab qiladi. Rejalashtirish o‘qituvchining kasb tanlash bo‘yicha faoliyatining tarkibiy qismi bo‘lib, u bu ishni maqsadga qaratilgan va samarali bo‘lishiga ko‘maklashadi. O‘qituvchining kasb tanlash bo‘yicha ish rejasi maqsadga qaratilganlik, tizimlilik va ketma-ketlik, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish kabi qator pedagogik talablarga javob berishi lozim.

3-sinf “Mehnat ta’limi” o‘quv predmetining o‘quvchilarga kasb-hunar haqidagi axborot berish imkoniyatlari

№	Mavzu va savollar	Kerakli jihozlar va vazifalar	Kasb-hunar
1	Mehnat qurollari bilan tanishtirish, xavfsizlik qoidalari	Qaychi, kley, rangli qog‘iz, karton bilan qanday ishlashni o‘rgatish. Xavfsizlik qoidalariga rioya qilishga o‘rgatish.	Tikuvchi, bichuvchi, texnika xodimi, modeler
2	Qog‘ozdan kistacha yasash	Rangli qog‘ozdan kistachani buklash yo‘li bilan hosil qilishni o‘rgatish	Haykaltarosh, hunarmand
3	Tabiiy materillar bilan ishlash	Turli tuman, mahalla, ko‘cha daraxtlari butalaridan olingan shoxchalar ishlov berib ularga shakl	Duradgor, chizmach, rassom, tikuvchi

		berish	
4	Geometrik shakllar yasash	Geometrik shakllar, uchburchak, to'rtburchak, romb, kvadratlar bilan tanishtirish. Geometrik shakllardan quroq va o'yinchoqlar yasash	Tikuvchi, bichuvchi
5	CHok turlaridan tikish	Chok turlaridan oddiychok, baxmal chok, noma'lum chok va boshqa chok turlari bilan tikish. Ulardan qaysi vaqtda nimani tikishda foydalanishni o'rgatish	Modeler, tikuvchi

“Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da maktab o‘quvchilarini fanlar asoslari bo‘yicha muntazam bilimlar olishlari orqali ularda kasb tanlash shakllantiriladi, deb ta’kidlangan. Respublikamiz umumiy o‘rta ta’lim maktablari (I-IX sinflar) o‘quvchilarini kasbga yo‘naltirish bo‘yicha amaldagi to‘rt bosqichli dasturining ikkinchi bosqichi (“Kim bo‘lsam ekan?”) boshlang‘ich kasb-hunarga yo‘naltirish deb nomlanib, unda kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni o‘qishga va mehnatga vijdonan munosabatda bo‘lishni shakllantirish, ota-ona va boshqa oila a’zolarining kasblariga bo‘lgan qiziqishlarni rivojlantirish; kasblar olami bilan tanishtirish lozimligi qayd qilingan.

SHu bois, I-IV sinflar ona tili fanlari namunaviy o‘quv dastur va darsliklarining bu sohadagi imkoniyatini namoyon qilishga ehtiyoj katta. Boshlang‘ich ona tili ta’limining amaldagi dastur va darsliklarining kasbga yo‘naltirish imkoniyatlarini o‘rganish va tahlil qilishda: mashq matn, hikoya, she’r, maqol, tez aytish va h.k.larda bevosita nomlari tilga olingan kasblar (va mehnat mazmuni); mashqlar matnlarida u yoki bu kasb uchun xarakterli bo‘lgan mehnat faoliyat turlari (masalan, nima qilayapti? Tikayapti: nima qildi? Tikdi: nima qiladi? Tikadi); mashqlar matnlarida u yoki bu kasbga doir biron-bir alomat, belgilardan darak beruvchi materiallar mazmunlarini o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish nuqtai nazardan fikrlash asqotadi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni kasblar olami to‘g‘risidagi tasavvur va tushunchalarini chuqurlashtirish maqsadida IV sinf ona tili darsligi bo‘yicha

nomlari tilga olingan ko‘plab kasblar (masalan, bog‘bon, dehqon, quruvchi, uchuvchi, bo‘yoqchi, miskar, shifokor, baliqchi va h.k.) misolida ularni mazkur fanning “So‘z va so‘z tarkibi”, “So‘z turkumi”, “Otlarning egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanilishi”, “Qaratqich kelishigi”, “Tushum kelishigi”, “**Yo‘nalish** kelishigi”, “Chiqish kelishigi”, “Ot yasovchi qo‘shimchalar”, “Sifat so‘z turkumi”, “Kishilik olmoshi” va b.q. mavzular, “Sifat yasovchi o‘tgan zamon fe’li”, “Sifat yasovchi kelasi zamon fe’li”, “Harakatni bildiruvchi so‘zlar” kabi mavzu va savollariga doir mashqlar, topshiriqlarni bajarishga jalb qilish bo‘yicha namunalar ishlab chiqildi.

“So‘z va so‘z tarkibi”

135-mashq.

So‘z	O‘zak	So‘z yasovchi qo‘shimcha	So‘z o‘zgartiruvchi qo‘shimcha	O‘zakdosh so‘zlar
Baliqchi	Baliq	-chi	-	Baliqsiz

“So‘z turkumlari”

139-mashq.


Nima? Nima?	Qanday?	Necha? Nechanchi?	Nima qildi? Nima qilayapti? Nima qilmochi?
Dehqon kim?	Mehnatkash		Mo‘l hosil olibdi
Uchuvchi kim?	Dovyurak		Nihol o‘tkazayapti Parvoz qilmoqchi Uchmoqda Uchayapti

159-mashq. **Otlarning egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanilishi**

Otlarning egalik qo‘shimchalari bilan bog‘lanishi

Tikuvchim Tikuvching Tikuvchi	Tikuvchimiz Tikuvchingiz Tikuvchilari	Do‘ppichim Do‘ppiching Do‘ppichi	Do‘ppichimiz Do‘ppichingiz Do‘ppichilari
Oshpazim Oshpazing Oshpaz	Oshpazimiz Oshpazingiz Oshpazlari	CHO‘ponim CHO‘poning CHO‘pon	CHO‘ponimiz CHO‘poningiz CHO‘ponlari

175-mashq.





179-mashq. Soʻzlarni oʻqing. Ularga egalik qoʻshimchalarining birini qoʻshib yozing: baliq-baliqchi, qoʻshiq-qoʻshiqchi, pilla-pillachi, paxta-paxtakor, oʻrmon-oʻrmonchi, bichish-tikish-tikuvchi, toʻqish-toʻquvchi, qurish-quruvchi, iqtisod-iqtisodchi.



№	Kelishiklar	Soʻrogʻi	Qoʻshimchalar
1	Bosh kelishigi	Miskar (kim?)	Sabzavotchi, miskar
2	Qaratqich kelishigi	Kimning?	Sabzavotchining, miskarchining
3	Tushum kelishigi	Kimni?	Sabzavotchini, miskarchini
4	Yoʻnalish kelishigi	Kimga?	Sabzavotchiga, miskarchiga
5	Oʻrin-payt kelishigi	Kimda?	Sabzavotchida, miskarchida
6	CHiqish kelishigi	Kimdan?	Sabzavotchidan, miskarchidan

Qaratqich kelishigi

205-mashq. Berilgan otga mos otlar tanlab, birikma tarzida yozing.



209-mashq. Qaratqich kelishigidagi otga mos otlar topib birikma tuzing va yozing.



Tushum kelishigi

213-mashq. Berilgan soʻzlarga tushum kelishigidagi otni tanlab, birikma shaklida yozing.

Devorni

Eshikni

Ramkani

boʻyadi (boʻyoqchi)

Tushum kelishigi

217-mashq. Berilgan tushum kelishigidagi otga mos feʼllar topib, birikma tuzing va yozing.

Quruvchini

uylantiradi

ragʻbatlantiradi

ilhomlantiradi

Yoʻnalish kelishigi

227-mashq. Berilgan soʻzlarga mos otlar topib, ularni qaratqich yoki tushum kelishigida qoʻllab birini yozing.

Boʻyoqchi (ning) boʻyogʻi,

Rassom (ning) kartinasi, peysaji,

Sabzavotchi (ning) karami,

Quruvchi (ning) binosi.

229-mashq. Berilgan otga mos soʻz topib, birikma tuzing.

CHoʻponga

oʻtloq

Oʻymakorga

ish joyi

otar

yogʻoch

suv

mehnat qurollari

232-mashq.

Paxtakorga

Bokschiga

Oʻrmonchiga

Dehqonga

борди

Shaxmatchi

Asalarichi

Bogʻbon

Pillakor

айтди

Chiqish kelishigi

244-mashq. Berilgan feʼlga mos otlar toping. Uni chiqish kelishigida qoʻllab, birikma tuzing va yozing.

Toʻquvchida

Agromomda

Novvoydan

Kuloldan

keldi

Chegarachida

Kosmonavtda

Sotuvchidan

Shaxmatchida

soʻradi

Ot yasovchi qo'shimcha

256-mashq. So'zlarga mos so'z yasovchi qo'shimchalarni qo'shib ko'chiring.

Asalari ... – chi

Pilla ... – kor

Futbol ... – chi

Soat ... – soz

G'alla ... – kor

Sabzavot – chi

CHegara ... – chi

Tunuka ... – soz

Suv ... – chi

O'yma ... – kor

Paxta ... – kor

Bo'yoq ... – chi

Suvoq ... –chi

Asalarichi

Pillakor

Futbolchi

Soatsoz

G'allakor

Sabzavotchi

CHegarachi

Tunukaso

Suvchi

O'ymakor



Paxtakor

Bo'yoqchi

Suvoqchi

Sifat so'z turkumi



279-mashq. Berilgan otga mos sifatlar topib, birikma tuzing va yozing.



303-mashq.


Sifat yasovchi qo'shimchalar

O'tgan zamon fe'li



режали
кувноқ
талабчан

400-mashq. Hozirgi zamon



403-mashq. Mashq matniga qo‘shimcha:

Bog‘bon o‘rik, gilos, olmaga shakl bermoqda. Mevali daraxtlar atrofini yumshatib, qator oraliqlarini haydamoqda. Daraxt shoxlariga dori sepmoqda.

Bolalar sifatli pilla etishtirish uchun pillakorlarga yordam bermoqda. Hasharotlardan saqlash uchun ularning tanalariga bir tekis qilib ohak surtmoqda. Pilla qurtini boqishda pillakorlarga yordam bermoqda.

Kelasi zamon fe’li

407-mashq.

Novvoy xamir tayyorlamoqchi
tandirga olov yoqmoqchi
tandirni qizdirmoqchi
shirmoy non yopmoqchi

413-mashq. Harakatni bildirgan so‘zlarni toping. Ularni ega bilan birga ko‘chiring.

Biz mashhur futbolchi bilan uchrashuvga bormoqchimiz.

Sen nimaga shaxmatchi kasbini tanlamoqchisan?

Mehribonchi-muruvvat uyidagi bolalarga sovg‘a qilmoqchi.

Ular O‘zbekiston qahramoni rahbarlik qilayotgan paxtakor maydonini kuzatdilar. Biz quruvchilar qishloqda qurgan zamonaviy uylarda yashayapmiz.

410-mashq. Azimning dadasi cho‘pon.

414-mashq. Harakatni bildiradigan so‘zlar oldiga kishilik olmoshlaridan mosini qo‘yib gaplar tuzish. Fe’lning qaysi shaxs-sonda ekanini ayting.

O‘qituvchi aytdi	Yozuvchi yozmoqchi
O‘qituvchi aytmoqchi	Yozuvchi yozayapti
O‘qituvchi aytasan	Yozuvchi yozayapsan

O‘qituvchilar aytmoqchimiz	Yozuvchilar yozayapmiz
O‘qituvchilar aytayapsiz	Yozuvchilar yozmoqchisiz
O‘qituvchilar aytmoqchilar	Yozuvchilar yozmoqdalar

Duradgor arralayapti

Duradgor arralamoqchi

Duradgor arralaysan

416-mashq. O‘quvchilar dorivor o‘simliklarni terayapti-farmatsevt.

422-mashq. Biz erni sabzavot ekish uchun tayyorladik-sabzavotchi.

434-mashq. “SHarq jannati” deb atalgan bog‘lar. Siz ham yangi bog‘ yaratishga o‘z hissangizni qo‘shing-bog‘bon.

438-mash. Har bir so‘zga so‘roq bering.

Gulchi kim? Suvchi kim?

439-mashq. Foydali qush olma daraxtini zararkunandalardan tozalamochi-entimolog

451-mashq. Non qachon paydo bo‘lgan?-novvoy

455-mashq. Miskar, tunukasoz, kosib, chegarachi.

465-mashq. Nuqtalar o‘rniga zarur unli harf qo‘yib yozing.

ag..nom-agronom, k..mandir-komandir, avtom..bil-avtomobil (shofyor).

435-mashq. Matn mazmunini kasb tanlash nuqtai nazaridan fikrlash. Iqtisodiy bilimga ega bo‘lmagan odam hamyonidan ajraladi: iqtisodchi.

2.3. O‘qitish metodikasi fanlarini o‘rganish jarayonida talabalarni kasb tanlash ishiga metodik tayyorlash

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari davrida o‘quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash maktabning eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki, to‘g‘ri kasb tanlash har bir insonning o‘z kuch, qobiliyatini maqsadga muvofiq qo‘llashga imkon beradi. SHu bois maktab, bu ishda yosh avlodga yordam berishi, kasbga yo‘llash bo‘yicha dastlabki maslahatni tashkil qilish kerak.

Fan, texnika va ilg‘or pedagogik texnologiyalarni rivojlanishi munosabati bilan o‘simshunoslik, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik va boshqa sohalarda yangi texnika, mexanizatsiya qo‘llanmoqda. Shu bois yuqorida ko‘rsatilgan sohalarda yangi ommaviy kasblar faoliyat ko‘rsatmoqdalar. Hayvonlarni sun‘iy urchitish, qishloq xo‘jalik zararkunandalariga qarshi kurashda biologik metodlardan foydalanish, oldindan rejalashtirilgan sifatlarga ega bo‘lgan qishloq xo‘jalik ekin(paxta, bug‘doy,o‘rik, shaftoli va h.q.)larni hamda chorva mollarini urchitish, parvarish qilishda band bo‘lgan ota-onalar, kattalarning kasblari yoshlardan tabiatshunoslik, botanika, zoologiyadan chuqur bilimlarni egallashni taqozo etmoqda.

Hozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligida ota-onalar va kattalarning mehnati industrial mehnatning turlaridan biriga aylantirmoqda. Hozirgi kunda qishloq xo‘jalik tarmog‘ida mehnat qilayotgan 160 ga yaqin kasb va mutaxassisliklardan har beshtasidan biri mexanizatordir.

Ilmiy-texnikani rivojlantirish har bir kishidan ishlab chiqarishda o‘z qobiliyati va mehnat faoliyati ko‘nikmasi va malakasi hamda energiyasini maksimal rivojlantirishni taqozo etmoqda.

Kasbga yo‘naltirish ikki bosqichni o‘z ichiga oladi:

Birinchi bosqichda-kasb haqida axborot berishda-ilmiy-texnika taraqqiyotining etakchi tarmoqlari; qishloq xo‘jaligi (o‘simlikshunoslik va chorvachilik)ni mexanizatsiyalash va avtomatizatsiyalash, ma’lum xususiyatlarga ega bo‘lgan o‘simlik va chorva mollari zotlarini yaratish, o‘quvchilarning mehnat

va turli kasblar haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish hamda xalq xo'jaligimiz katta ehtiyoj sezayotgan kasblarga ularning e'tiborini qaratishdan iboratdir.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirishning ikkinchi bosqichida esa maktab joylashgan hudud qishloq xo'jaligi va sanoatning asosiy kasb va mutaxassisliklariga e'tibor qaratiladi. Bunda o'quvchilarga hududda mehnat qilayotgan kasblar haqida ma'lumot berish orqali mazkur kasblarning kishilarga **qo'yadigan** talablari, ularni qaerda egallash mumkinligi, bu kasblarni o'rganishda fanlarning, ayniqsa tabiatshunoslik, botanikaning o'rnini qanday ekanligi ko'rsatib beriladi.

SHuning bilan birgalikda ushbu kasb, mutaxassisliklarni egallash uchun har bir kasb egasi, mutaxassis qanday sifatlarga ega bo'lishi o'qituvchi tomonidan aytilib boriladi.

O'quvchilarning politexnik bilimlari, kasblar haqidagi tasavvurlari ularning ishlab chiqarishga uyushtirilgan ekskursiyalari orqali kengaytirib boriladi. O'quvchilarning politexnik bilimlari darajasi ayniqsa ularni amaliy ishlarni bajarishga jalb qilinganda, ayniqsa yuqori bo'ladi.

O'quvchilarni ongli kasb tanlashga yo'llashda ularning bilimga bo'lgan **qiziqishini** o'rganish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish muhim o'rin egallaydi. O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishini to'g'arak, klublarda ijodiy qobiliyatini va faolligini o'stirish samarali amalga oshiriladi. Maktabda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda ularni xatoga yo'l qo'ymasliklarining oldini olish uchun quyidagilarga alohida e'tibor berish lozimligini yana bir bor ta'kidlamodamiz (**- rasm**).

Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish tizimi to'g'risidagi fandir. SHu boisdan ham kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirib borish qismi hisoblanadi.

Mazkur fanning "Tabiatshunoslikni o'qitish metodlari", "Tabiatshunoslikdan o'quv ishlarini tashkil etish shakllari", "... Tabiatshunoslik fanining mazmuni, o'quv dasturlarini rejalashtirish ..." bilan bog'liq mavzu,

savollarning boshlang'ich sinf o'quvchilarini mahalliy hududlarida faoliyat ko'rsatgan kasblar bilan tanishtirish imkoniyatlarini yoritamiz.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturini amalga oshirish munosabati bilan boshlang'ich ta'limga insert, sinkveyn, kosmik tezlik, klaster va b.q. metodlar tobora keng qo'llanilmoqda. SHu bois "Atrofimizdagi olam" fanining "Suv" mavzusini o'rganish uchun "CHuchuk suv", "SHo'r suv", "O'ta sho'rlangan suv" tabiatini o'rganish bilan bog'liq material matnini tayyolab insert usulidan foydalandik va har kuni iste'mol qiladigan suvni xonadonimizga olib kishilarning kasblari bilan tanishtirdik.

Maktab yoshidagi o'quvchilarning o'simliklar to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytirish, so'z boyligini orttirish maqsadida "Kosmik tezlik" o'yinidan foydalanish asqotadi. Bunda sinf ikki guruhga bo'linib o'ynashadi. YA'ni birinchi guruh aytgan o'simlik nomining oxirgi harfidan o'yinni ikkinchi guruh davom ettiradi:

Oq kishmish → *SHo'ra* → *Arpa* → *Archa* → *Akonit* → *Tariq* → *Qoqio't* → *Totim* → *Mavrak* → *Kovrak* → *Karrak* → *Kartoshka* → *Anor* → *Rayhon* → *Na'matak*. Bu o'rinda birinchi guruh g'olib bo'ldi. O'yin so'ngida o'qituvchi o'simliklarning parvarishi bilan shug'ullanadigan kishilarning kasblari haqida ma'lumot beradi.

Xuddi shuningdek, o'quvchilarni faollashtiruvchi o'yinni jonotlar misolida ham keltirish mumkin. Masalan, *Ayiq* → *Qaldirg'och* → *CHittak* → *Kaltakesak* → *Kalarado qo'ng'izi* → *Ilon* → *Norka* → *Asalari* → *Ilon baliq*. Bu o'yinda birinchi guruh g'olib bo'ldi. So'ngra o'qituvchi bolalarga chorva mollarini boqish, ko'paytirish bilan bog'liq kasblar haqida ma'lumot berishi lozim.

Endi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish shakllarining o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha tabiatshunoslik fanining aniq masalalarida namoyon qilishga o'tamiz. "Uzunlik o'lchovlari. Kilometr, millimetr. Kesmaning uzunligi" kabi tushunchalarni o'rganish juda asqotadi.

Darsning jihozlanishi: lineyka, metr, santimetr, lenta, termometrlar (xonaniki, tibbiyotniki), uy tarozisi, bo'y uzunligini o'lchagich.

Yangi materialni tushuntirish. Lineykani “qismlarga bo‘lish” tushunchasini kiritishdan boshlanadi. Barcha “bo‘lish”lari jimgisi esa shkalani tashkil etadi.

So‘ngra suhbat o‘tkaziladi: shkalaning bir bo‘linmasini qimmati 1mm bo‘lsa, nima uchun lineykaga 1,2,3,...10 raqamlari yozilgan.

Qaysi kasb vakillari metr (santimetr)li lentlardan foydalanadi? (Javob: buchuvchi, tikuvchi, gazmolchi, duradgor, er o‘lchovchi, quruvchi va h.k.). Termometr yordamida qanday kattaliklarni o‘lchash mumkin? Qaysi kasb vakillari termometr bilan ish ko‘radi? (Javob: vrach, hamshira, ob-havo haqida ma’lumot beruvchi, sovutkich omborxona xodilari va h.k.). Ushbu mazmundagi dars o‘quvchilarda “bo‘linma”, “shkala”, “bo‘linma qiymati”ni o‘lchash ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga imkon beradi hamda ushbu bilimlar, malakalarni kelajakdagi mehnat faoliyati munosabati bilan ahamiyatini ko‘rsatishga imkon beradi.

III-IV sinflarda Tabiatshunoslik predmetini o‘rganish jarayonida o‘simliklarni yashash sharoiti, o‘sish, rivojlanish va ko‘payish qonuniyatlarini o‘quvchilarga ochib berish hamda ushbu bilimlarni maktab o‘quv-tajriba uchastkasida, tomorqada, tabiatni muhofaza qilishda, odam hayoti va faoliyatida qo‘llanilishini ko‘rsatish lozim.

O‘qituvchi tabiatshunoslik predmetlarining o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha imkoniyatlarini aniq ko‘ra olishi lozim.

III-IV sinf tabiatshunoslik o‘quv dasturlari mavzulari bilan uzviy bog‘langan kasb tanlashga doir materiallar o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga mos kelsa, u holda ularning o‘z bilimlarini chuqurlashtirish va kasbga bo‘lgan qiziqishlarini o‘stirish bo‘yicha faoliyatini faollashtiradi.

Boshlang‘ich sinflar xonalarida kasbga oid axborot berish bo‘yicha kasb tanlash burchagini tashkil qilish zarur. U ko‘rgazmali va tushunarli shaklda bo‘lishi bilan birga odamlar mehnat faoliyatini asosiy yo‘nalishlari va turli mehnat turlarini aks ettirishi lozim. Burchakning bo‘limlaridan biri qishloq xo‘jaligi kasblariga bag‘ishlangan bo‘lishi kerak. Burchakda maktab joylashgan iqtisodiy tuman xalq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari etakchi kasblarini, ularning mehnat

mazmunini ochib beruvchi stendlar, mehnat sharoiti va mehnat xususiyatlarini ifodalovchi fotosu'ratlar bo'lishi kerak.

III-IV sinflar tabiatshunoslik predmetlarini o'rganishda uning har bir mavzusini o'qituvchi qishloq xo'jaligi mehnat turlari bilan bog'langan holda gapirib berishi, aniq kasb va mutaxassisliklar bilan tanishtirish kerak.

III-IV sinflar tabiatshunoslik predmetini o'qitish jarayonida o'quvchilarni o'quv-tajriba uchastkasidagi amaliy ishlari kasbga yo'naltirish ishining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Tajriba uchastkasida o'quvchilar madaniy o'simliklarni o'stirish bo'yicha ma'lum ko'nikmalarni egallaydilar. Bu o'quvchilarni qishloq xo'jalik mehnatiga bo'lgan qiziqishini o'stiradi.

III sinfda "O'simlikshunoslik. Dala o'simliklari" mavzusini o'rganishda o'quvchilar g'o'za, bug'doy, sholi va b.q. ning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, odamlarning turli-tuman talablarini qondirish uchun (dori-darmon, chorvachilik ozuqasi, tabiatning muhofazasi va h.k.) juda zarurligi bilan tanishtirish mumkin (32-rasmga qarang).

Ushbu savollarni o'rganishda o'qituvchi yovvoyi o'simlik shakllaridan qimmatli xususiyatlari bilan farq qiluvchi yangi o'simlik navlarini yaratish bo'yicha seleksioner olimlarning ishlari haqida gapirib berishi kerak.

III-IV sinf tabiatshunoslik predmetlari o'quv dasturlarining har bir mavzu va savolini o'quvchilarga turli kasblar haqida ma'lumot berish imkoniyatlarini har tomonlama tahlil qildik (3-,4-jadvallar). Magistrlik ishimizni bajarish jarayonida o'quvchilarda kasbga qiziqishni tarbiyalash, kasbni to'g'ri tanlashni nazarda tutadigan etakchi motivlardan biri hisoblanadi. Demak, makabda kasbga yo'naltirish ishlarining muhim yo'nalishlaridan biri-bu o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishini aniqlash va o'stirish bo'lmog'i lozim. O'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishini aniqlash, ularning muayyan shaklda tayyorlangan anketalarni to'ldirish, umumta'lim fanlari bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishini o'rganish, kasb haqida individual suhbatlar o'tkazish, ota-onalar bilan suhbatlar kabi didaktik usullar bilan amalga oshiriladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning kasbga bo'lgan havas dinamikasi va rivojini kuzatib borish uchun anketalar tarqatish usulini har bir sinfda har yili o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Mazkur paragraf nihoyasida tabiatshunoslik fanlari bo'yicha darsda va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning kasbga yo'naltirish shakllarini keltiramiz (-rasm).

3-sinf "Tabiatshunoslik" fanining o'quvchilarni kasblar bilan tanishtirish imkoniyatlari

№	Mavzu, savollar	Kasb tanlash mazmuni	Kasblar
1	Suv. Tabiatda suv.	O'simliklarning nobud bo'lishini oldini olish, ulardan mo'l-hosil yig'ishtirib olish uchun ularni muntazam ravishda sug'orish. Suvning odamlar hayoti uchun zarurligini ko'rsatish	Paxtakor, bog'bon, suvchi, mirob
2	Suvni ehtiyot qiling.	CHuchuk suvdan tejab-tergab foydalanish, uning yangi zahira (suv omborlar, artizan, quduqlar)larini izlab topish, suvni ifloslantiruvchi manbalarni namonyo qilish, ro'yxatini tuzish, zarur bo'lganda ularga jarimalar solish. Ifloslangan suvlarni tabiiy ravishda tozalash	Gidromemorator, irrigator, suvchi, mirob, ekologiya xodimlari
3	Granit va h.k.	Mahalliy bino, ko'prik ishlarida foydalanishi ko'rsatish	Quruvchi, tosh taroshlovchi
4	Qum va gil	Qumdan g'isht tayyorlash, undan binolar ko'tarishda foydalanish. Gil topiroqdan kulolchilikda, chinni buyumlar tayyorlashda foydalanishni ko'rsatish	G'isht pishiruvchi, g'isht teruvchi, kulol
5	Kalsitlar	Bo'r, oddiy oxaktosh va marmartoshdan devorlar, binolarni oqlashda, bo'rdan tish yuvishda, marmardan binolar fundamentini, pollarni qoplashda foydalanishni ko'rsatish	Molyar, sangtarosh, quruvchi, kafelchi
6	Toshko'mir	Toshko'mir yordamida temir rudasidan cho'yan eritib olish, cho'yanlan turli buyumlarni tayyorlash	CHo'yan erituvchi
7	Neft va tabiiy gaz	Neft va tabiiy gazni er ostidan qazib olish, iste'molchilarga etkazishni ko'rsatish	Neftchi, gazchi, neft va gaz quvurlarini bir me'yorda ishlatuvchilar
8	Tuproq	Barcha o'simliklar urug'larining unib chiqishi, ildiz tizimining rivojlanishi uchun zarur sharoit yaratish lozimligini ko'rsatish	Dehqon, fermer, paxtakor, g'allakor
9	O'simlik shunoslik	Inson tomonidan g'o'za, bug'doy, sholi, makkajo'xori va b.q. o'simliklarni o'sishi, rivojlanishi uchun barcha sharoitlarni yaratishni ko'rsatish	Paxtakor, g'allakor, sholikor, suvchi, mirob, traktorchi, mashinist
10	Ekinzorlarning foydali va		Biolaboratoriya xodimlari

	zararli hasharotlari		
11	Bogʻ	Maktab atrofida mavjud bogʻ, mevali daraxtlarni koʻpaytirish boʻyicha koʻchatxona, daraxtni parvarish qilish, mevali daraxtlarni yangi tezpishar, kasalliklarga chidamli navlarini yaratish boʻyicha ota-onalar mehnatini koʻrsatish	Bogʻbon, seleksioner
12	Tut daraxti. Ipak qurti	Tut daraxti barglari bilan tut ipak qurtini boqish uchun inson tomonidan barcha shart-sharoitlarni yaratish	Pilla qurti boquvchi usta, pillakor, bogʻbon, pillaxona xodimlari
13	Sogʻligimizni saqlashimiz	Inson tanasi terisida ogʻir teri kasalliklarini kelib chiqishini oldini olish maqsadida, ayniqsa badanning ochiq qismini oyoq-qoʻlni muntazam yuvish, yoz kunlarida har kuni choʻmilish zarurligini koʻrsatish	Bolalar doktori, nevrolog, xirurg, okulist, dermatolog
14	YUrak va qon		Kardiolog

4-sinf “Tabiatshunoslik” predmetining bolalarni kasblar bilan tanishtirish imkoniyatlari

№	Mavzu, savollar	Kasb tanlash mazmuni	Kasblar
1	Jonajon oʻlka	Maktab atrofida yashayotgan, qishloq atrofida, tuman hududidagi asosiy ishlab chiqarish korxona (zavod-fabrika, qishloq xoʻjalik mahsulotlari va qayta ishlov berish va h.k.)larida mashgʻul boʻlgan ota-onalar, kattalarning kasblari	Traktorchi, mashinist, sabzavotchi, usta-bogʻbon, parradanchi, operator, kichik vetfeldsher
2	Oʻlkamiz ob-havosi	Oʻlka (tuman, viloyat va respublika)mizda ob-havoni nazorat qilib turuvchi markaz xodimlari	Gidrometmarkaz xodimlari
3	Joyda orientr olish. Plan va masshtab	Maktab atrofida joylashgan paxtazor, bugʻdoyzor, bogʻning planini tuzish, yosh oilaga tomorqa, uy-joy ajratib, ularning planlarini tuzish	Er oʻlchovchi, rejalashtiruvchi, meliorator
4	Geografik karta		Kartograf
5	Vatanimiz Oʻzbekiston globus va kartada		Kosmonavt, astronom olim
6	Jonajon oʻlkamiz Oʻzbekiston. Siz yashab turgan viloyat	Samarqand viloyatining etakchi tarmoqlarida band boʻlgan ota-onalar, kattalar	Paxtakor, gʻallakor, pillakor, quruvchi, tokar, slesar, shofyor va h.k.
7	Togʻlar. Togʻ yaylovlari	Togʻ oldi yaylovlarida qoramolchilik, yilqichilik, qoʻychilikni rivojlantirishni koʻrsatish	Otboqar, mol boqar, qoʻy boquvchi
8	Togʻli erlar		

9	Buloq, sat va daryo	Qishloq xo'jaligi ekinlarini yoz faslida suvga bo'lgan ehtiyojini bir tekisda ta'minlash maqsadida maktabingiz, yashab turgan joyingizda qurilgan suv omborlari, plotinalar, suv taqsimlovchi, inshootlarda xizmat qilayotgan ota-ona va kattalar kasblari bilan tanishtirish	Irob, suvchi, irrigator, meliorator
10	Odamlar barpo etgan suv havzalari	Maktabingiz, yashab turgan qishlog'ingiz hududidan o'tgan katta-kichik kanallar, suvni o'tkazish, taqsimlash, suvdan tejab-tergab foydalanish maqsadida ishlatiladigan qurilma va moslamalardan foydalanib erni yomg'irlatib, tomchilatib sug'orish bilan mashg'ul bo'ladigan kasblar bilan tanishtirish	Elektrmontyori, mirob, suvchi, irrigator, meliorator, baliqchi, o'rmonchi, traktorch, mashinist
11	O'zbekiston ko'llari	Hovuzlarda baliq, o'rdak, ondatra va h.k. parvarish qilish bilan mashg'ul bo'lgan ota-onangiz, kattalaringiz kasblari bilan tanishtirish	Baliqchi, parrandachi operator
12	Suv havzalarini muhofaza qilish	Suv havzalariga iflos suvlarni, ishlab chiqarish chiqindilarini talab yuborish, sanoat chiqindilari va oqava suvlarni tushirib yuborishni oldini oluvchi, mavjud suv havzalari ekologik holatini nazorat qiluvchi ota-onalar, kattalarning kasblari bilan tanishtirish	Tabiatni muhofaza qilish qo'mitalari xodimlari
13	CHO'llar. CHO'l tabiatini inson tomonidan o'zgartirilishi	Maktabingiz, qishlog'ingiz atrofida joylashgan cho'llarga suv keltirib, ularni bog'u-roq'larga aylantiruvchilar CHO'llarda ixota daraxtlari o'tkazish, parvarish qilish	Ekskovatorchi, meliorator, irrigator, traktorch, mashinist, o'rmonchi, buldozerchi

“Boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limining mazmuni” mavzusida
 “Boshlang'ich kasb-hunar tushunchalarini tarbiyalash” savoli, “Mehnat darsining maqsad va vazifalari” mavzusida “Kasb-hunarga yo'naltirish” savoli, “Mutafakkirlar merosida mehnat tarbiyasi” mavzusi “mehnat, hunar odobi haqida”, “Mehnat tarbiyasi haqida masallar, ertaklar, dostonlar va ularning mazmun mohiyati” savollari, “O'quvchilarni kasb-hunarga **qiziqtirishda** mutafakkirlar merosidan foydalanish”

№	Mavzu va savollar	O'quvchilarni kasb-hunarlar bilan tanishtirish mazmuni
1	Mehnat darslarida qo'l mehnatining usullari	Kichik maktab

		yoshidagi o'quvchilarni turli kasblar bilan tanishtirish uchun bo'lajak o'qituvchilarni qo'l mehnati kasblarining-tunukasozlar, belgilab beruvchi (razmetchik), slesar, sozlovchi slesar, g'isht teruvchi, bo'yoqchi, do'ppido'z, kashtachi, chizmakash va b.q. ahamiyati, mehnat mazmuni va xarakteri, ish joyini jixozlashi va sharoiti, ularga bo'lgan talablari to'g'risidagi bilimlar bilan qurollantirish
2	Boshlang'ich sinflarda mehnat ta'limidan amaliy ishlar: ish turlari bo'yicha yasaladigan buyumlar ... O'z-o'ziga xizmat ko'rsatish mehnat qurollari. Har xil turdagi materiallar bilan tanishtirish	
3	Boshlang'ich sinf mehnat darslarida o'quvchilarda iqtisodiy tushunmalarni shakllantirish	
4	Mehnat ta'limidan sinfdan tashqari ishlar: ... sinfdan tashqari ishlar shakllari	
5	Applikatsiya ishlarini bajarilishi va uning turlari	
6	Qishloq xo'jalik mehnati darslari ... Ko'chat o'tqazish. Gul o'stirish	
7	Qog'oz va karton bilan ishlash darslarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi. Turli xil materiallar bilan ishlash darslarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi	
8	Plastilin va loy bilan ishlash darslarini tashkil etish metodikasi	
9	Applikatsiya va mozaika bilan ishlash darslari ...	
10	Gazlama bilan ishlash darslarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi	
11	Konstruktorlik va modellashtirish ishlari darslarini tashkil etish va o'tkazish metodikasi	
12	O'quvchilarni texnik chizmachilik elementlari bilan tanishtirish. Grafik tasvir turlari. CHiziq va chizmani o'qish tartibi. Texnik rasm va chizmadan foydalanish	

“Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish” ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga kiritilgan “Ona tili o'qitish metodikasi”, “Matematika o'qitish metodikasi” va h.k. fanlarning o'quv dasturlarida boshlang'iya ta'lim fanlari dasturlari va ular

asosida tayyorlangan darslik va qo‘llanmalarni o‘rganish va tahlil qilish mavzulari ko‘zda tutilgan.

SHu munosabat bilan dissertatsiyada, misol tariqasida 3 va 4-sinflar “Ona tili”, “O‘qish kitobi”, “Matematika”, “Russkiy yazık” darsliklari sinchkovlik bilan o‘rganildi va ularda o‘quvchilarni kasblar bilan tanishtirish imkoniyatlari tahlil qilindi va tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

“Ona tili”fani

3-sinf “Ona tili” darsligida					4-sinf “Ona tili” darsligida				
№	Kasb nomi	Kasb soni	Kasb soni	Kasb soni	№	Kasb nomi	Kasb soni	Kasb nomi	Kasb soni
1	Bog‘bon	8	Sutchi	1	1	Bog‘bon	2	Sutchi	0
2	Suvchi	0	Baliqchi	1	2	Suvchi	2	Baliqchi	0
3	Dehqon	8	Doirachi	1	3	Dehqon	1	Doirachi	0
4	Duradgor	1	CHegarachi	4	4	Duradgor	1	CHegarachi	1
5	Traktorchi	2	SHifokor	3	5	Traktorchi	1	SHifokor	0
6	Gulchi	2	Soatsoz	1	6	Gulchi	2	Soatsoz	0
7	Ovchi	2	Tikuvchi	5	7	Ovchi	0	Tikuvchi	
8	G‘allakor	2	Kutubxonachi	4	8	G‘allakor	1	Kutubxonachi	0
9	Baliqchi	2	Tarbiyachi	1	9	Baliqchi		Tarbiyachi	1
10	Bokschi	1	O‘qituvchi	1	10	Bokschi	0	O‘qituvchi	
11	Ashulachi	1	Kosmonavt (fazogir)	2	11	Ashulachi	0	Kosmonavt (fazogir)	1
12	Haydovchi	2	Binokor	1	12	Haydovchi	0	Binokor	0
13	Ovchi	1	Temirchi	1	13	Ovchi		Temirchi	0
14	Bastakor	2	Betonchi	1	14	Bastakor	1	Betonchi	
15	Muxandis	2	Mexanizator	1	15	Muxandis	1	Mexanizator	0
16	Bo‘yoqchi	1	CHorvador	1	16	Bo‘yoqchi		CHorvador	0
17	Nazorati	1	Savdogar	1	17	Nazoratchi	0	Savdogar	0
18	Pillakor	1	CHavandoz	1	18	Pillakor	0	CHavandoz	1
19	Sabzavotchi	1	Yozuvchi	1	19	Sabzavotchi	0	Yozuvchi	1
		2	O‘yinch	1	20	G‘allakor	1	O‘yinch	
21	Haykaltarosh	1	Surnaychi	1	21	Haykaltarosh	0	Surnaychi	0
22	Rassom-Dizayner	1	Uchuvchi	1	22	Rassom-Dizayner	0	Uchuvchi	0
23	O‘ymakor	1	Paxtakor	1	23	O‘ymakor	1	Paxtakor	1
24	Zargar	1	Kashtachi	1	24	Zargar	0	Kashtachi	0
25	Kulol	1		1	25	Kulol	0		

YUqorida bayon qilinganlardan ko‘rinadiki 3-sinf “Ona tili” darsligida bayon qilingan ayrim kasblar bilan o‘quvchilar 4-sinf “Ona tili” darsligida tanisha olmaydilar. Boshqacha aytganda, ular mazkur kasblar bo‘yicha 3-sinfda olgan tasavvur va tushunchalarini boyitib borish imkoniyatiga ega bo‘lmaydilar. Ular jumlasiga quyidagi kasblarni kiritish mumkin: kosmonavt, temirchi, mexanizator, savdogar, uchuvchi, rassom, haykaltarosh, baliqchi, shifokor, soatsoz, tikuchi, kutubxonachi, bokschi, ashulachi, haydovchi, nazoratchi, pillakor va h.k.

SHuningdek, 3- va 4-sinflar darsliklarida bayon qilingan kasblarni taqqoslash orqali 4-sinf “Ona tili” darsligida 3-sinf “Ona tili” darsligida bayon qilinganlarga yangi kasblarning guvohi bo‘lamiz, ya’ni jarroh, tarjimon, kassir, oshpaz, aravasozi, tennischi, rejissor, arxeolog, misgar, tunukasozi, chegarachi va h.k.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish vazifasi matn mazmunida u yoki bu mehnat faoliyati bayon qilingan, ammo kasblar nomi tilga olinmagan mashq, she’r, ertak, rivoyat, maqol, topishmoq va imkonitlaridan foydalanishni taqozo etadi. Mazkur ehtiyoj boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan yuqorida ko‘rsatilgan matnlarni o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish nuqtai nazaridan tahlil qilishni va ularning natijalarini muntazam ravishda sharhlab borishni ko‘zda tutishi kerak. Masalan, 4-sinf “Ona tili” darsligining “Qaratqich kelishigi” ni o‘rganishga bag‘ishlangan 204-mashqda “Barnoning lunjlari osildi. U buvisining oldiga keldi.

- Buvi, Munira yomon qiz ekan. Ko‘chamizdagi gulni ko‘chirib ketdi.
- Munira ko‘achmizning fayzini buzibdi-da, dedi buvisi.

SHu kuni Barnoning chiroyi ochilmadi. Kechga yaqin gulzroga kirdi. Gulsafsarning tagini yumshatdi, uni asta ko‘chirib oldi. So‘ng Munira ko‘chirib ketgan gulning o‘rniga o‘tqazdi”, degan 204-mashqni tahlil qilib, unga o‘quvchilarni “Gulchi” kasbi mehnati faoliyati bilan tanishtirish maqsadida quyidagicha izoh berish joiz: Gullar, dastlab niyhollardan, ular esa sifatli urug‘lardan etishtiriladi. Gul ko‘chatlari bilan yilning deyarli barcha fasllarida

bino, turar joy, ko‘cha, maydon, istirohat bog‘larini bezatish uchun ular issiqxonalarda parvarish qilinadi.

Gul nozik o‘simlik. U o‘z vaqtida oziqlantirishni, sug‘orishni, issiqxonalarda kerakli havo namligini va haroratni talab qiladi. Gul o‘stirishning sir asrorlarini yaxshi bilgan kishilar kasbi “Gulchi” deb ataladi.

Xuddi yuqorida ko‘rsatilganidek, mazkur darslikning boshqa mashq, she‘r, topishmoq va b.q. matnlarni kasbga yo‘naltirish nuqtai nazaridan fikrlash orqali o‘quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish imkoniyati ko‘rsatib berildi. Jumladan, 3-,8-,33—mashq matnlari orqali o‘quvchilarni “Polizchi”, 49-mashq orqali “Entimolog”, 50-,83-mashq, she‘r orqali “Bog‘bon”, 97-mashq orqali suvchi, mirob, gidrotexnik kasblari bilan tanishtish mumkin. va h.k.

2-jadval

“O‘qish kitobi” fani

№	3-sinf darsligida		4-sinf darsligida	
	Kasb nomi	Kasbni takrorlanishi	Kasb nomi	Kasbni takrorlanishi
1	Muhandis	1	Konstruktor	1
2	Muharrir	13	O‘qituvchi	2
3	Bog‘bon	1	Taqachi	
4	Dehqon	2	SHifokor	2
5	SHifokor	1	SHoir	2
6	Ovchi	2	Ovchi	2
7	Duradgor	1	CHo‘pon	2
8	CHilangar	1	Yilqichi	1
9	Binokor	1	Veterinar	1
10	Bastakor	1	Bog‘bon	3
11	CHo‘pon	1	Naqqosh	1
12	Hisobchi	1	Savdogar	1
13	Qoravul	1	Yozuvchi	1
14	Rassom	1	Dehqon	2

2-jadval materiallaridan ko‘rinadiki, 3-sinf “O‘qish kitobi” darsligining 143 ta matn, she‘r, rivoyat, latifa, topishmoq, ertak, tez aytishlardan faqatgina 14 tasi

o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishga xizmat qiladi. SHuningdek, mazkur kitobning “Lug‘at” qismi (213-217-betlar) kasb haqida deyarli ma’lumot berilmagan.

Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, 4-sinf “O‘qish kitobi” darsligining 118 ta matn, rivoyat, she‘r, ertak, topishmoq va h.k.dan faqatgina 15-tasi o‘zida u yoki bu kasb faoliyatini ifodalaydi, xolos. Kitobning “Izohli lug‘at” qismida kasb haqida ma’lumot berilmagan.

3-jadval

“Matematika” fani

№	3-sinf darsligida		4-sinf darsligida	
	Kasb nomi	Kasbni takrorlanishi	Kasb nomi	Kasbni takrorlanishi
1	Bog‘bon	6	Operator	1
2	Duradgor	2	Tikuvchi	2
3	Naqqosh	2	Tokar	1
4	Novvoy	2	Traktorch	1
5	Quruvchi	2	Haydovchi	1
6	Cho‘pon	2	Quruvchi	1
7	Sotuvchi	2	G‘isht teruvchi	1
8			Sportchi	1

Uchinchi va to‘rtinchi sinflar matematika darsliklari mualliflari fan dasturlari asosida arifmetik (matematik) amallarni bajarishda ularning ishlab chiqarish, ijtimoiy hayot bilan bog‘lashga kam e‘tibor berganlar desak xato bo‘lmaydi. Chunki, 1090 ta masala, mashqlardan faqat ettitasida “Bog‘bon”, “Duradgor”, “Naqqosh”, “Quruvchi” kasblari tilga olinmaydi. Ular darslikda 2 martadan 6 martagacha takrorlangan. 4-sinf matematika darsligida ham atigi 8 ta kasbning nomi-operator, tikuvchi, traktorch, tokar, haydovchi, quruvchi, g‘isht teruvchi, sportchi tilga olingan xolos. Ayni paytda 3-sinf matematika darsligida do‘kon, bozor, supermarket bilan bog‘liq mazmuni sayoz bo‘lgan masalalar soni 50 ga yaqinni tashkil qilgan holda fermer xo‘jaligi, issiqxona, korxona kabi ilmiy ishlab chiqarish ob‘ektlari bilan bog‘liq masalalarga o‘rin berilmagan.

4-jadval

“Русский язык” fani

№	3-sinf darsligida		4-sinf darsligida	
	Kasb nomi	Kasbni takrorlanishi	Kasb nomi	Kasbni takrorlanishi
1	Uchitelnitsa	8	Ekonomist	2
2	Doktor	2	Uchitelnitsa	2
3	Xudojnik	3	Vrach	2
4	Injener	1	Xudojnik	2
5	Bibliotekar	1	Programmist	1
6	Povar	2	Veterinar	2
7	Kontroler	2	Taksist	
8	Krestyanin	2	Xudojnik	
9	Kuznets	1	Dizayner	2
10	Tokar	1	Jurnalist	1
11			Sportsmen	1
12			Agronom	1
13			YUrist	1
14			Kulinar	1
15			Arxitektor	1
16			Injener	1
17			Sudya	1
18			Sadovad	2
19			Kanatoxodets	1
20			Akrabat	1
21			Silich	1
22			Tennisist	1
23			Proovdets	1
			Voditel	

O‘tkazgan tahlillarimizga ko‘ra o‘quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirishda 4-sinf “Russkiy yazyk” darsligida «Члены semi» bo‘limi alohida o‘rin tutadi. Mazkur bo‘lim bo‘yicha 1 darsda 4-sinf o‘quvchilari ekonomist, o‘qituvchi, rassom, dasturchi, veterinar, taksichi, rassom-dizayner kasblari bilan tanishadilar.

Darsning “Grammaticheskiy ugolok” qismida esa o‘quvchilar qo‘shimcha ravishda o‘qituvchi, rassom kasblari bilan takror tanishadilar hamda muxbir,

sportchi kasblari bilan ilk bor tanishadilar. SHuningdek, bu erda o'quvchilar dizayner, vrach, veterinar, agronom, ekonomist, yurist, kulinar, arxitektor kasblari bilan bog'liq mashqlar bajaradilar.

Bqorida ko'rsatilgan bo'limning ikkinchi darsida ular 38 ta kasb nomi bilan tanishishi va qaysi kasblar o'quvchilarga ma'lum emasligini aytib berish so'ralgan:

- Mashinist, traktorist, lyotchik, shofer, kombayner;
- Stroitel, malyar, stolyar, kranovshik, stekolshik, monter;
- Zaboyshik, shaxtyor;
- Rybak, moryak, vodoliz, doyarka;
- Aptekar, prodavets, tokar, sopolnik, pechnik, pojarnik;
- Provodnik, polyarnik, perevodchik, pereplyotchik;
- Astronom, alpinist, kuznets va b. q.

SHuningdek, darslikning "Russkiy-uzbekskiy slovar" bo'limida ayrim kasblar nomlarini takror berilganligi "Russkiy yazyk" darsligining o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ular quyidagilardan iborat: Aptekar, agronom vodoprovodchik (145 bet), vrach (146 bet), doyarka, zaboyshik (147 bet), kranovshik, kuznets, lyotchik (148 bet), malyar, master (149 bet), pevets, perevodchik, pereplyotchik, pechnik, pojarnik, provodnik, prodavets (151-152-betlar), rybak, sadovod, spojnik (152 bet), slujiteli-rabotniki zooparki, stekolshik, stolyar, stroitel (153 bet), tkach, traktorist, uchmteo (154 bet), xudojnik, chasovshik, shofer (155 bet).

YUqorida ko'rsatilgan boshlang'ich ta'lim darsliklaridagi materiallar mazmunini o'rganish orqali o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishining samaradorligini oshirishda N.J.Isakulovning ilmiy izlanishlarida ishlab chiqilgan metodikaga tayanish asqotadi []. Jumladan, muallif hikoyani o'rganish uslubini quyidagicha belgilagan:

- Hikoyada tasvirlanuvchi voqea sodir bo'ladigan muhit, munosabatga o'qituvchi tomonidan qisqacha tavsiya (izoh) berish;
- Hikoyani bir darsga mo'lallangan qismini o'qituvchi yoki suxandonligi chiroyli bo'lgan o'quvchi tomonidan chiroyli o'qib berilishi;

- O'quvchilar hiko mazmunini qay darajada idrok etayotganligini bilish maqsadida suhbat o'tkazish;
- Tushunishga mavhum bo'lgan so'z yoki ibora (tushuncha)larni, fanga yaqin terminlarning ma'nosini izohlab berish;
- Hikoya matnini qismlarga bo'lish va har biriga sarlovha topib, alohida-alohida reja tuzish; va h.k.

SHunday qilib, darsliklarda bayon etilgan materiallarni bolalarga o'rgatishda ularni kasb tanlash nuqtai nazaridan fikrlashdan o'rinli foydalanish asqotadi.

Ikkinchi bob bo'yicha xulosa

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini kasb tanlash ishiga pedagogik-psixologik tayyorgarligi pedagogik va psixologik turkum fanlar vositasida amalga oshirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari ishlab chiqildi. Bunda mazkur fanlarni o'rgatish jarayonida kafedra professor-o'qituvchisiga kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlik prinsipiga amal qilish lozimligi alohida tushuntirilgan.

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchisidan etarli darajada pedagogik-psixologik tayyorgarlikka ega bo'lish barobarida kasb tanlash bo'yicha umumilmiy bilimlarni ham o'zlashtirishi taqozo etadi. SHu bois ushbu bobda umumkasbiy fanlarning talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash imkoniyatlari ochib berildi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi OTMda xususiy metodika fanlarini o'rganish orqali boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan barcha fanlarni kichik yoshdagi o'quvchilarga o'rgatish orqali ularni kasblar olami bilan tanishtirish bo'yicha bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirish imkoniyatlari yortib berildi.

III BOB. PEDAGOGIK TAJRIBA VA UNING NATIJALARINING SAMARADORLIGI

3.1. Pedagogik tajribaning dasturi va metodikasi

Pedagogik tadqiqotlarga bag'ishlab yozilgan adabiyotlarda tajriba-sinov ishini amalga oshirish odatda uch bosqichda: qayd qiluvchi, tekshiruvchi va shakllantiruvchi bosqichlarida bajariladi. Magistrlik dissertasiyamiz bo'yicha 2014-2016 o'quv yillari davomida o'tkazilgan tadqiqotlarda qayd qiluvchi, shakllantiruvchi tajribaviy sinov va umumlashtiruvchi ishlari amalga oshirildi.

Tadqiqotimizning turli bosqichlarida amalga oshirilgan qayd qiluvchi eksperimentning vazifasiga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining politexnik va kasbiy saviyasi, bitiruvchi kurs talabalarining kasb tanlash nazariyasi va metodikasi sohasi bo'yicha tayyorgarligining mazmuni va darajasini o'rganish kiritildi. Qayd qiluvchi eksperimentni o'tkazish jarayonida o'quv-tarbiya ishining mazmuni, tashkiliy shakllari va metodlariga hech qanday o'zgarishlar kiritilmadi.

Qayd qiluvchi tajriba-sinov natijalari bizga "Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish" ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarining o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishini amalga oshirish bo'yicha tayyorgarligi etarli emas, degan xulosa chiqarishga imkon berdi. Qayd qiluvchi eksperiment davomida, yuqorida bayon qilingan metodlardan tashqari biz imtihon vaqtida savollar berdik, pedagogik amaliyot davrida talabalar faoliyatini kuzatdik, talabalar tomonidan bajarilgan kurs, malakali bitiruv ish va amaliyot bo'yicha hisobotlarni tahlil qildik.

Maktabgacha ta'lim metodikasi va pedagogika kafedrasining magistri, mazkur ishning muallifi sifatida boshlang'ich ta'lim yo'nalishi bo'yicha dars berayotgan o'qituvchilarning ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarida hamda ilmiy to'garaklarda, talabalar ilmiy jamiyat ishida ishtirok etish, talabalarni kasbiy tarbiyalashda o'quv-tarbiya jarayonining qay darajada kasbiy yo'naltirilganligini, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning mazkur ishga munosabatlarini to'liq baholash imkonini berdi.

Yuqorida bayon qilingan o‘quv jarayonining talabalarni kasb tanlashga yo‘naltirilmaganligi aniq ko‘rsatib berdi.

Ko‘rilganidek talabalar kasb tanlash va uni boshlang‘ich maktablarda amalga oshirish bo‘yicha ayrim ma’lumotlar va ko‘rsatmalarni Pedagogika turkum fanlar hamda “Ona tili o‘qitish metodikasi”, “Mehnat. Mehnat ta’limini o‘qitish metodikasi” fanlarini o‘rganish jarayonida oladilar. Ayni paytda “Ona tili”, “Bolalar adabiyoti va folklor” va boshqa fanlarning talabalarning kasbiy tayyorgarligi bo‘yicha imkoniyatlari professor-o‘qituvchi tomonidan ma’ruza, seminar mashg‘ulotlari jarayonida bo‘lajak o‘qituvchilarga etqazib berilmayapti desak xato qilmagan bo‘lamiz.

Qayd qiluvchi pedagogik tajriba-sinov natijalari yuqorida keltirilgan jadvalda bayon qilingan.

4-jadval

Pedagogika fakulteti professor-o‘qituvchilarining talabalarning kasbiy tayyorgarligiga munosabatini o‘rganish bo‘yicha so‘rovnoma

№	Savollar	Pedagogika psixologiya metodika o‘qitish 40-kishi	Ona tili, bolalar adabiyoti, folklorlar 32-kishi	Tabiiy- metmatika, mehnat ta’limi 16-kishi
1	Siz talabalarni kasbiy tarbiyalash muammosi bilan tanishmisiz va qay darajada: - Yaxshi tanishman; - Umumiy holda tasavurga egaman; - Tanish emasman.	15 25 -	9 23 -	7 9 -
2	O‘z predmetingiz bo‘yicha ta’lim jarayonida talabalarni kasbiy tayyorgarlikni amalga oshirish bo‘yicha vazifani hal qilayapsizmi? - Ha; - ma’lum darajada; - pedagogika fakultetidagi faoliyatim bu ishga aloqasi yo‘q deb hisoblayman	23 17 -	18 14 -	8 8 -
3	Siz o‘qitayotgan fanning talabalarni kasbiy			

	tayyorlargarlikni amalga oshirish bo'yicha imkoniyatlari qanday?	32	21	4
	- imkoniyatlari sezilarli darajada;	8	11	12
	- imkoniyatlari uncha katta emas.	-	-	-
	- bunday imkoniyatlar ushbu predmetda yo'q;	-	-	-
	- bilmayman			
4	Sizning ilmiy ishingiz kasb tanlash muammosi bilan bog'liqmi?			
	- Ha;	36	23	4
	- Yo'q;	-	-	1
	- Qisman.	4	9	11
5	Siz rahbarlik qilayotgan talabalarning ilmiy ishlari mavzularida kasb tanlash masalalari mavjudmi?			
	- Ha;	38	25	-
	- Qisman;	2	7	12
	- Yo'q	-	-	4
6	Siz rahbarlik qilayotgan kurs va malakaviy bitiruv ishlarining o'quvchilarni kasb tanlashishiga aloqasi bormi?			
	- Ha;	37	27	-
	- Qisman;	3	4	12
	- Yo'q.	-	1	4

Jadvalda qayd etilgan materiallardan ko'rinadiki, so'ralgan pedagog, psixolog, mehnat ta'limini o'qitish metodikasi, ona tili o'qitish metodikasi, tabiatshunoslik o'qitish metodikasi, matematika o'qitish metodikasi fanlari o'qituvchilari boshlang'ich sinf o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishiga talabalarni tayyorlash vazifasi bilan tanish ekanligini, bu ishda o'zlarining ishtirok etishlarini tasdiqlovchi javob berdilar. Bu esa mazkur o'qituvchilarga bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosi bilan tanish bo'lganligidan hamda ular ma'ruza, seminar, amaliy-laboratoriya mashg'ulotlarida uni u yoki bu darajada bajarganliklaridan dalolat beradi. **Anketa-savolariga tabiiy-matematika va mehnat ta'limi o'qituvchilari nisbatan yaxshiroq javob berdilar.**

Jadval natijalarining tahlili gumanitar (ona tili, rus tili, matematika o'qitish metodikasi) fanlar o'qituvchilari bir muncha yomon javob berganliklarini ko'satmoqda.

Anketaning "Sizning ilmiy ishingiz kasb tanlash muammosi bilan bog'liqmi?" degan savolga fakultet o'qituvchilaridan 63 –kishi "Ha" deb, 1- kishi salbiy, 24- kishi noaniq javob berdi.

"Siz rahbarlik qilayotgan talabalar ilmiy ishining mavzulari o'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishiga talabalarni tayyorlash bilan aloqasi bormi" degan savolga 64–kishi ha deb, 5- kishi salbiy javob berdilar. Talabalarning kasbiy tayyorgarligi bilan bog'liq masalalar kurs va malakaviy bitiruv ishlari mavzularida yana ham sustroq o'z aksini topganligini ta'kidlash joiz.

Yuqorida bayon qilingan mateirallardan ko'rinadiki, pedagogika fakulteti, ayniqsa "Maktabgacha ta'lim metodikasi va pedagogika" kafedrası professor-o'qituvchilar milliy dasturning "O'quvchi yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash va ma'rifiy ishlar" bo'limi (4.4.)ga talabalarga etarli darajada e'tibor berilmaganligidan dalolat berdi.

Talabalarni boshlang'ich maktabda kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash ishini takomillashtirishga qaratilgan sinov-tajriba ishining dasturini qaraymiz. Mazkur dastur bayon qilingan.

Mazkur dastur asosida talabalarni kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirishga pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish; mazkur fanlar bo'yicha amaldagi o'quv dasturlari va darsliklarining har bir bo'lim va mavzularini tahlil qilishni taqozo etadi. Bu esa talabalarning kasbiy tayyorgarligini nafaqat "Pedagogika nazariyasi va tarixi" fanining "Pedagogika nazariyasi" bo'limining ayrim mavzularini o'rganish jarayonida, balki mazkur fanning "Pedagogika tarixi" bo'limida ham amalga oshirishning keng potensial imkoniyatlari mavjudligini ochib berdi. Shuningdek, psixologiya fanining amaldagi o'quv dasturi va darsliklarini ularda bo'lajak o'qituvchilarini kasb tanlash

bo'yia tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash nuqtai nazardan tahlil qilish ham mazkur fanning keng imkoniyatlari mavjudligidan dalolat bermoqda.

Ma'lumki, Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisini tayyorlashga mo'ljallangan o'quv rejalari uni boshlang'ich maktabda nafaqt ona tili, tabiatshunoslik, o'qish, odobnoma, balki mehnat, matematikada ta'lim jarayonini tashkil etish va o'tkazishga qaratilgandir. SHu bois dissertatsiyamiz hajmining cheklanganligini hisobga olib bu erda "Tabiatshunoslik o'qitish metodikasi", "Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi" va b.q. fanlarning talabalarni kasb tanlash ishini amalga oshirish bo'yicha imkoniyatlarini ishlab chiqish bilan bog'liq masalalarni tahlil qildik. Biroq, bu 1-sinfda "Ona tili", "Matematika", "Atrofimizdagi olam", 2-sinfda "O'qish kitobi", "Ona tili", "Matematika", 3-sinfda "Ona tili", "Tabiatshunoslik", "Mehnat", 4-sinfda "Ona tili", "Mehnat ta'limi" va b.q. fanlar darsliklarini talabalar tomonidan tahlil qilinishi va ularda bayon qilingan kasbga doir tushunchalarni izohlab berishni inkor etmaydi (II bob, 2.2-2.3 paragraflarga qarang).

3.2. Pedagogik eksperiment natijalari va samaradorligi

Tadqiqotimizning keyingi boqichi shakllantiruvchi eksperimenti, uniunga amlga oshirishda biz o'quv-tarbiya jarayoning turli bug'inlariga talablarni kichik yoshdagi o'quvchilarni kasbga yo'lash va uni amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni singdirishga - harakat qildik (3.1-jadval). Ushbu maqsadda "Pedagogika nazariyasi va tarixi", "Umumiy psixologiya", "Matematika o'qitish metodikasi", "Tabiatshunoslik metodikasi" va boshqa fanlar o'quv dasturlari va darsliklari tahlil qilinda va ularning talablarni kasb tanlash bo'yicha faoliyatini amalga oshirish bo'yicha tayyorgarligi baholandi. Bu esa bizga 2014-2015 o'quv yili davomida amalga oshiradigan eksperimental dasturini belgilab olishga imkon beradi.

SHakllantiruvchi eksperimentni o‘tkazishda uning dasturiga muvofiq pedagogika fakulteti professor-o‘qituvchilari ishtirok etish kerak edi. SHu bois ularning talablarni asbga yo‘naltirish ishini amalga oshirish ishiga tayyorgarligini namoyon qilish zarur bo‘ladi. Pedagogika fakulteti professor-o‘qituvchilarining muhokama qilinayotgan muammoga munosabatini aniqlash uchun yozma so‘rovnoma o‘tkazish uning natijalarini jadvalda bayon qilingan.

Talabalar kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha tajriba ish dasturi

№	Talabalarni ma’naviy tarbiya ishini amalga oshirishga tayyorlash bo‘yicha shakllantiriladigan elementlar	Shakllantirishning yo‘llari va vositalari	Tajriba ishining xarakteri va mazmuni	Kafedra	Tajriba ni o‘tkazish vaqti
1	Talabalarni kasb tanlash ishini amalga oshirishga pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligi	Pedagogika – psixologiya turkum fanlari-ning kasbiy mazmunini kuchaytirish	“Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Umumiy psixologiya” fanlari bo‘yicha ma’ruza, seminar mashg‘ulotlari mazmunini kasb tanlash bo‘yicha materiallar bilan boyitishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish va mashg‘ulotlar olib borish.	“Pedago-gika”, “Psixologiya”, “Maktab-gacha ta’lim metodikasi”	2015-2016 o‘quv yili Noyarb-mart
2		Matematika o‘qitish metodikasi, Tabiatshunoslik o‘qitish metodikasi fanining kasbiy mazmunini kuchaytirish	Matematika o‘qitish metodikasifani bo‘yicha ma’ruza, amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlari mazmuniga o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish bilan bog‘liq materiallarni singdirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish	Metodika	2015-2016 yil aprel, iyun

3		Metodik vazifalarni kuchaytirish: a) pedagogik amaliyot	I-IV sinf Matematika darsliklarida bayon qilingan ma'naviy tushunchalarni yozib olish, guruhlash, o'zlashtirish, qiyin bo'lgan tushunchalarni ularga muqobil bo'lgan osonroq ma'naviy tushunchalar bilan almashtirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish	Metodika	2015-2016 o'quv yili sentyabr, dekabr
4		b) kurs va malakaviy bitiruv ishi	Kurs va malakaviy bitiruv ishlarini ishlab chiqish va ularga rahbarlik qilish	Metodika	
5		Talabalar iliy jamiyati	Ilmiy to'garaklarni tashkil etish, ularning ish samaradorligini baholash	Pedagogika, psixologiya, metodika	2015-2016 o'quv yili davomida

3.2-jadval

Tajriba-sinov avvali va yakunida talabalarda kasb tanlash ishiga tayyorgarlikka doir tajriba ishining samaradorlik darajasining o'sish ko'rsatkichlari

Tayyorgarlikning mezonlari	Talabalarning kasb tanlash ishiga tayyorgarlikdarajasi, % hisobida											
	Tajriba-sinov guruhi						Nazorat guruxi					
	YUqori		O'rta		Past		YUqori		O'rta		Past	
	Tajribadan avval	Tajribadan keyin	Tajribadan avval	Tajribadan keyin	Tajribadan avval	Tajribadan keyin	Tajribadan avval	Tajribadan keyin	Tajribadan avval	Tajribadan keyin	Tajribadan avval	Tajribadan keyin
Boshlang'ich sinf o'qituvchining kasb tanlash bo'yicha vazifalarini biladi	26,4	50,8	28,9	28,9	44,7	11,3	28,6	33,5	33,7	41,9	37,7	24,6
O'qituvchi darsida kasb tanlash maqsadalarini, turli uslublarini qo'llaydi	28,9	57,4	30,3	21,5	40,8	11,1	25,8	30,6	36,8	40,4	38	28,6
O'qituvchi to'garak ishida kasb tanlash maqsadiga muvofiq uslublarni qo'llay oladi	23,5	61,2	32,7	28,1	43,8	10,7	26,3	35,8	35,3	44,3	38,5	19,9
Jami	78,8	178	91,9	129,3	33	83,7	99,9	105,1	127	114,3		73,1
O'rtacha	26,5	59	30,6	43,1	11	27,7	33,3	35	42,6	38		27,7

O'tkazilgan pedagogik tajriba ishimizda 165 nafar talaba tajriba guruhida va 168 nafar talaba nazorat guruhida ishtirok etdi. YUqorida keltirilgan javdalga asoslanib tajriba va nazorat ugurhlari o'zlashtirishlari samaradorligini ko'rsatuvchi N_1 gipoteza va unga zid N_0 gipotezini tanlash joiz. Mazkur jadvaldan tajriba avvali va yakunidagi tajriba natijalarini umumlashtirgan holda 3.3-jadvalda keltiramiz.

3.3-jadval

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida kasb tanlash ishiga tayyorgarligiga doir tajribaishlarining samaradordik ko'rsatkichlari

	Guruhlar	Talabalar soni	Javoblar soni		
			Yuqori	O'rta	Past
Tajriba avvalida	Tajriba	165	42	52	71
	Nazorat	168	46	55	65
Tajriba yakunida	Tajriba	165	99	48,5	17,5
	Nazorat	168	55	71,5	43,8

Endi o'rtacha kvadratik chetlanish, tanlama dispersiya, variatsiya ko'rsatkichlari, styudentning tanlama mezoni, styudent mezoni asosida, erkinlik darajasi, Pirsonning munofiqlmk kriteriyasi va ishonchli chetlanishlarni keltiramiz. Ular –javlatda keltirilgan.

x	y	S^2_x	S^2_y	V_x	V_y	$T_{x,y}$	K	$X^E_{n,m}$	Δ_m	Δ_k
2,49	0,08	0,47	0,5736	27,7	36,5	7,32	653,5	53,49	0,07	0,08

YUqorida keltirilgan natijalardan tajriba va nazorat guruhlari uchun Neyman g'oyasi asosida ishonchli intervali mavjud

$$X - t_{kp} \cdot \frac{Sx}{\sqrt{n}} \leq a_y \leq X + t_{kp} \cdot \frac{Sy}{\sqrt{n}}$$

$$2,49 - 0,07 \leq a_x \leq 2,49 + 0,07$$

$$2,42 \leq a_x \leq 2,56$$

$$Y - t_{kp} \cdot \frac{Sy}{\sqrt{n}} \leq a_y \leq Y + t_{kp} \cdot \frac{Sy}{\sqrt{n}}$$

$$2,08 - 0,08 \leq a_x \leq 2,08 + 0,08$$

endi 3-jadvalda keltirilgan natijalardan foydalanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblashga o'tamiz. $X = 2,49; Y = 2,08; \Delta x = 0,07$ ga tayanib, sifat ko'rsatkichlarini keltiramiz; ya'ni $K_{ycb} \frac{(x - \Delta x)}{(y + \Delta y)} = \frac{2,49 + 0,07}{2,08 + 0,8} = \frac{2,42}{2,16} 1,12 > 1$

$K_{bdb} = (X - \Delta x) - (Y - \Delta y) = (2,49 - 0,07) - (2,08 - 0,8) = 2,42 - 2 = 0,42 \gg 0$ talabalarning yuqorida keltirilgan raqamlardan ko'rinadiki, tajriba guruhida o'zlashtirish nazorat guruhi talabalari o'zlashtirishidan iborat ekan.

UMUMIY XULOSALAR

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi doirasida o'tkazilgan izlanishlar natijalariga tayanib quyga xulosalarga kelindi:

1. Oliy ta'lim muassasasi "Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish" ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalarni kasb tanlash ishiga tayyorlash muammosi etarli darajada o'rganilmaganligi namoyon qilindi. Ushbu muammoga doir qabul qilingan me'yoriy hujjatlar-DTS, o'quv dasturlar va darsliklar va h.k. o'quv-uslubiy adabiyotlar ularda kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kasblar olami bilan tanishtirish nuqtai nazaridan tahlil qilindi. SHuningdek, talabalar va umumkasbiy fanlar kafedralari o'qituvchilari orasida o'tkazilgan anketa-so'rovnomalar, suhbatlar natijalari mazkur muammoning dolzarbligi, hayotiy zaruriyat ekanligi aksariyat respondentlar tomonidan etarli darajada anglab etilmaganligi ma'lum bo'ldi.

2. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchsini maktabda kasb tanlash ishini amalga oshirishga tayyorlash muammosini ilmiy asosda ishlab chiqish maqsadida uning pedagogik faoliyati modellashtirildi. Pedagog o'zlashtirishi zarur bo'lgan kasb tanlashga doir bilimlar, ko'nikmalar va malakalar hamda uning konstruktiv, kommunikativ, tashkilotchilik, safarbarlik va boshqa faoliyatlar mazmuni bilan boyitildi.

3. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi pedagogik faoliyatining modeli sifatida-professiogrammasiga kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish vazifasi singdirildi.

4. Bo'lajak o'qituvchilarni kasb tanlash ishiga nazariy, ya'ni pedagogik-psixologik tayyorgarligini ta'minlash maqsadida pedagogik-psixologik turkum fanlarining o'quvchilarni kasbga yo'naltirish bo'yicha imkoniyatlari ishlab chiqildi.

5. Talabalarni-bo'lajak boshlang'ich ta'limi o'qituvchilarini kasb tanlash ishiga tayyorlashda umumkasbiy anlarning rolini hisobga olib, "Tabiatshunoslik asoslari", "Ona tili", "Mehnat" kabi fanlarning o'quv dasturlari va darsliklari o'rganildi va tahlil qilindi hamda mazkur fanlarning ushbu sohadagi potensial

imkoniyatlari ishlab chiqildi. Bunda ta'limning kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlik prinsipiga amalga amal qilib ish ko'rildi.

6. Talabalarni kasb tanlash ishiga metodik tayyorgarligi mazkur ta'lim yo'nalishiga kiritilgan barcha xususiy metodika fanlarni o'zlashtirib olish orqali ta'minlanadi. SHu bois mazkur fanlarning o'quv dasturlari va darsliklaridagi mavjud imkoniyatlarni namoyish qilish bilan bir qatorda mazkur imkoniyatlarni kuchaytirish va chuqurlashtirish bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2008. -40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni.// «Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» kitobida. – T.: «Sharq» nashriyoti, 1997. – 20-29 b.
3. O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi». //«Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori» – T.: Sharq nashriyoti, 1997. – 32-61b.
4. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqi, 1997 yil 29 avgust.// Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori – T.: Sharq, 1997. – 4-19 b.
5. Barkamol avlod orzusi. Qurbonov SH., Axlidinov M., Saidov B.- T.: O'qituvchi 1997.- 150b
6. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqi, 1997 yil 29 avgust. – T.: SHarq, 1997. – 4-19b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturi to'g'risida»gi Farmoni. – «Ma'rifat» gazetasi, 2004, 22 may, 41 (765).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning «2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturi to'g'risida»gi Farmoni. – «Ma'rifat» gazetasi, 2004, 22 may, 41 (765).
9. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li.-T.: O'zbekiston, 1992. -78 b.
10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat, 2008.- 174b.

II. Asosiy adabiyotlar

1. Abu Ali ibn Sino. Donishnoma. – Dushanbe: “Irfon”, 1990. -388b.
2. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. Uch jildlik saylanma asar. –T.: Xalq merosi, 1992.1-jild, -298 b.; 2-jild.-298b.; 3-jild. -308 b.
3. Abu Ali ibn Sino. Aqlar o‘lchovi. В ст.из истории точных наук древневековом и средном Востоке. –Т., 1972. –С. 42-47.
4. Abu Ali ibn Sino. Tadbiri manzil. -Dushanbe: “Irfon”, 1980, -480 b.
5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. -222b.
6. Abu Rayhon Beruniy. Javohirlarni bilish uchun umumiy kitob (Mineralogiya). – M.: SSSR FA nashri, 1963. – 518 b.
7. Abu Rayhon Beruniy. Geodeziya (Maskanlar orasidagi masofalarni aniqlash uchun joylarning chegaralarini belgilash). Tanlangan asarlar. 3-jild. – T.: Fan, 1982. – 344 b.
8. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar.1-jild. -T.: O‘rta va oliy maktab, 1968. – 486 b.
9. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. Qonuni Ma’sudiy.5-jild. 1-kitob. – T.: Fan, 1975.-328 b.
- 10.Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. 2-jild. – T.: Fan, 1965. – 538 b.
- 11.Abu Rayhon Beruniy. Saydana (Farmakologaziya). Tanlangan asarlar. 4-jild.-T.: 1974.-431b.
12. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: O`qituvchi. 1992.-160b.
13. Amir Temur tuzuklari.-T.:Navro`z, 1992.-64b.
- 14.Афанасьев В.Г. Системность и общество. –М.: Политездат, 1980.–368 с.
15. Atijonov O.A. "Ijtimoiy foydali unumli mehnat jarayonida 5-9 sinf o‘quvchilarining kasbiy yo‘nalganligini tarbiyalash” Ped.fan.nom. avtoreferati.- Dushanbe, 1993.-18b.
- 16.Васильев Ю.К. Политехническая подготовка учителя средней школы. – М.: Педагогика, 1973. – 275 б.

17. Воробьев. А. И. Мактабда касб танлашга йўллаш ишининг форма ва методлари. -Т.: О`qituvchi 1985.-275b.
18. Зеер Э.Ф. Психология профессий: Учебное пособие для студентов вузов. - 2-е изд., перераб., доп. - М.: Академический Проект; Екатеринбург: Деловая книга, 2003. – 336 с.
19. Jo`raev. R. D. Uzluksiz ta'lim tizimida kasb-hunarga yo'naltirish va shaxsning kasbiy o'zligini anglash muommalari. -Т.: О`qituvchi, 2002.- 135b.
20. Иванов Г.А. и др. Профессиограмма учителя физики средней общеобразовательной школы//Профессионально-педагогическая подготовка учителя физики. Сборник. Выпуск I. Науч. редактор: А.И.Щербаков. –Л., 1977.-с. 3-43.
21. Kasb ta'limi bo'yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish: nazariya va amaliyot mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy ishlar to'plami. – Qarshi: Nasaf, 2007. – 296 b.
22. Коменский Я.А. Буюк дидактика. – Т.: Ўқитувчи, 1975. – 244 б.
23. Koshifiy Xusain Voiz. Futtuvat-noman sultoni. -Т.: О`qituvchi, 1985.- 350b.
24. Кузьмина Н.В. Методы системного педагогического исследования. Учебное пособие. – Л.: изд. ЛГУ, 1980. – 172 с.
25. Кон И.С. В поисках себя: личность и ее самосознание. М.: Политиздат, 1984.-205b.
26. Maxmudov T. Avesto haqida. -Т.: Sharq, 2000.-63b.
27. Muslimov N.A. Bo'lajak kasbiy ta'lim o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. -Т.: Fan, 2004.-127 b.
28. Мухина, М. В. Игровые технологии профессиональной ориентации младших школьников/авторская методика. - <http://nsportal.ru/muhina-marina-viktorovna>, 2011
29. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy. Tanlangan asarlar. -Т.: Fan, 1983. – 455 b.

30. Navoiy Alisher. Farxod va Shirin dostoni. –Т.: О‘qituvchi, 2001.-215b.
31. Нишоналиев У.Н. Формирование личности учителя трудового обучения: проблемы и перспективы. – Т.: Фан, 1990. – 86 с.
32. Слостенин В.А. Формирование личности учителя советской школы в процессе профессиональной подготовке. – М.: Просвещение, 1976. – 159 с.
33. Смирнова Е.Э. Пути формирования модели специалиста с высшим образованием. – Л.: изд. ЛГУ, 1977. – 136 с.
34. Ушинский К.Д. Собрание сочинений, 7-жилд.-М.: СССР ПФА. нашриёти. 1949. – 332 б.
35. Хайдаров И.А. Профессиональная ориентация и подготовка выпускников школ к осознанному выбору профессии.- www.ziyo.net , 2013
36. Ходжабаев А.Р. Научно-педагогические основы учебно-методического комплекса подготовки учителя труда. – Т., 1992. – 42 б.
37. Чориев Н. Трудовое воспитание в сельских школах Узбекистана.-Т.: “Ўқитувчи”, 1988.- 120 б.
38. Yusuf Xos Xojib. Qutadg‘u bilig. –Т.: Yuldzcha, 1990. –355 b.
39. Qoshg‘ariy Mahmud Devonu lug‘ati turk. III jild.-Т.:fan, 1959.-260b.
40. Qur‘oni Karim. Tarjima va izohlar muallifi Alsuddin Mansur. – Т.: Cho‘lpon, 1992. – 544 b.
41. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchi-mualliflar: Xoshimov K., Ochil S. – Т.: О‘qituvchi, 1995. – 464 b.
42. O‘rozov B.X. Talabalarni unumli mehnat jarayonida kasb tanlashga tayyorlashning metodik sharoitlari Ped.fan.nom. avtoreferati.- .Т, 1997.-21b.
43. Шадиев Н. Ш. Внеклассная и внешкольная работа по профориентации учащихся. –Т.: Фан, 1988. -112 с
44. Shodiyev N. Qishloq maktablarida umumta’lim fanlarini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarni melioratsiya kasblariga yo‘llash. Metodik qo‘llanma. – Т.: О‘qituvchi, 1978. – 116 b.

45. Shodiyev N. Qishloq xo'jaligi ishchi kasblari. Metodik qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1981. – 142 b.
46. Шадиев Н. Подготовка студентов к работе по профориентации сельских школьников. Методическое пособие. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – 279 с.
47. Shodiyev N. Sanoat ishchi kasblari. O'qituvchilar va o'quvchilar uchun qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1992. – 93 b.
48. Shodiyev N. Maktab o'quvchilarini matematika darslarida va sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ommaviy ishchi kasblarga yo'llash. O'qituvchilar uchun qo'llanma. – T.: O'qituvchi, 1989. – 112 b.
49. Shodiyev N. B. Islomov, M. To'lkuniylar bilan hamkorlikda. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish.-Uslubiy qo'llanma.- Samarqand, 2016.-134b.

III. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

1. Bobur Zahiriddin Muhammad. Boburnoma// O'rta yoshdagi maktab bolalari uchun. – T.: Yulduzcha, 1990. – 368 b.
2. Боборикин А.Д. и др. Краткая профессиограмма учителя история и общественных дисциплин средней школы// Психология труда и личности учителя. Сб.науч.трудов. –Л., 1977. –С.-3-31.
3. Жураев Р.Х., Рашидов Х. Ф. Ўзбекистон Республикасида ўқувчи ёшларни касб-хунарга йуналтириш тизимини ривожлантириш концепцияси// Мактаб хаёти, № 2 , 2002. - 2-30 б
4. Чередников М.Г, Т.Р.Ибрагимов, «Касбга йуналтиришнинг маълумот кидирув тизими» дастурий воситаси (КЙМКТ)//Мактаб хаёти, 2004.- № 6.- с. -1-5
5. О реализации Программы непрерывной профессиональной ориентации в общеобразовательных школах// Мактаб ва хаёти, 2007, № 1(45) – с. 2-6
6. Программа профессиональной ориентации в общеобразовательных школах Республики Узбекистан. // Мактаб хаёти, 2007, № 1. – с. 2-6

IV. Dissertatsiyalar

1. Karimov I.G. Qishloq o'quvchilarini keng ixtisosli mexanizator kasbiga tayyorlashning ilmiy-pedagogik asoslari. Ped.fan.nom. avtoreferati.-1991.-19b.
2. Магдиев А.Ш. Қишлоқ ўқувчилари меҳнат таълими ва тарбиясининг касбий йўналтирилганлиги. Ped.fan.nom. avtoreferati.-Т.: 1990.-21b.
3. Мурунов Б.И. Методические основы подготовки студентов педвузов к руководству трудовой практикой сельских школьников. Дисс....канд. наук (13.00.02.). – М., 1991. – 210 с.
4. Ro'ziyev E.T. Pedagogika oliy o'quv yurti talabalarini boshlang'ich sinf o'quvchilariga mehnat tarbiyasi berish va kasbga yo'llash ishiga tayyorlash. Ped.fan.nom. avtoreferati.-Т.: 1992.-19b.
5. Толаганов Т.Р. Профессиональная направленность математической подготовки будущих учителей. Дис. док. пед. наук. – Т., 1989. – 455 с.
6. Шадиев Н. Теория и практика подготовки студентов к работе по профориентации школьников. Дисс. ... на соискание ученой степени док. пед. наук. (Теория и история педагогика -13.00.01). – Самарқанд. - 347 с.

ILOVALAR

1-Ilova

Boshlang'ich ta'lim bitiruvchi kurs talabalari va yosh o'qituvchilarga ANKETA-SO'ROVNOMA

Hurmatli talaba! Ushbu anketa-so'rovnoma ilmiy-tadqiqot maqsadida o'tkazilayapti. SHu bois, savollarga mustaqil holda javob berishingizni so'raymiz. Javoblaringiz uchun oldindan raxmat!

I. Kasbga yo'naltirish nazariyasi

1. Kasb tanlashning maqsadini ayting. _____

2. Kasb tanlashning iqtisodiy asosini ayting. _____

3. Kasb tanlashda o'quvchining psixologik xususiyatlariga rioya qilinadimi? Agar rioya qilinsa unga dalillar keltiring. _____

4. Kasb tanlashda ota-onalarning maktabga ko'rsatadigan yordami nimalardan iborat? _____

5. Kasb tanlash sohasida ilmiy izlanishlar olib borayotgan MDH va O'zbekiston pedagog olimlarining nomlarini ayting. _____

6. Fanga va kasbga bo'lgan qiziqishlarning farqini bilasizmi? _____

II. O'quvchilarni kasbga yo'naltirish metodikasi

1. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasb tanlash ishida qanday vazifalarni bajaradi? _____

2. O'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlarini qanday izohlash mumkin? _____

3. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi:
Darslarda _____
Ekskursiyalarda _____
Ijtimoiy foydali ishda _____
qanday uslublardan foydalanadi?

III. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining politex va kasb tanlash bo'yicha saviyasi

1. Kasb _____

Mutaxassislik _____

Tor mutaxassislik _____

2. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlarining nomlarini ayting.

3. Sanoatning asosiy tarmoqlarining nomlarini aytib bering.

4. Qurilishning asosiy tarmoqlarining nomlarini ayting.

5. Qishloq xo'jaligi _____
Sanoat _____
Qurilish _____
tarmoqlarida ishlayotgan 5 tadan etakchi kasblarning nomlarini ayting.
6. O'tmishda qolgan yoki o'z umrini tugatayotgan kasblarning nomlarini ayting.

7. Aytingchi obro'li yoki obro'siz kasblar bo'ladimi? _____

Boshlang'ich ta'lim birinchi kurs talabalariga
ANKETA-SO'ROVNOMA

Hurmatli talaba! Ushbu anketa-so'rovnoma ilmiy-tadqiqot maqsadida o'tkazilayapti. SHu bois, savollarga mustaqil holda javob berishingizni so'raymiz. Javoblaringiz uchun oldindan raxmat!

I. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining politex va kasb tanlash bo'yicha saviyasi

1. Kasb _____

 Mutaxassislik _____

 Tor mutaxassislik _____

2. Qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlarining nomlarini ayting.

3. Sanoatning asosiy tarmoqlarining nomlarini aytib bering.

4. Qurilishning asosiy tarmoqlarining nomlarini ayting.

5. Qishloq xo'jaligi _____
 Sanoat _____
 Qurilish _____
 tarmoqlarida ishlayotgan 5 tadan etakchi kasblarning nomlarini ayting.
6. O'tmishda qolgan yoki o'z umrini tugatayotgan kasblarning nomlarini ayting.

7. Aytingchi obro'li yoki obro'siz kasblar bo'ladimi? _____

ANKETA-SO'ROVNOMA

Hurmatli maktab rahbarlari! Ushbu anketa ilmiy-tadqiqot maqsadida o'tkazilayapti. Quyidagi savollarga javob berishingizni so'raymiz. Mazmunli javoblaringiz uchun oldindan tashakkur bildiramiz?

1. Pedagogika institutlarining boshlang'ich ta'lim metodikasi yo'nalishi bitiruvchilari-yosh o'qituvchilarning kasb tanlash ishiga tayyorgarligini baholang:
Yaxshi Qoniqarli Qoniqasiz
2. Yosh o'qituvchilar kasb tanlash masalalarini quyidagi mashg'ulotlarda juda sust echadi yoki echmaydi.
 - Sinfдан tashqari ishlarda
 - Ekskursiyani uyushtirishda
 - O'quvchilar shaxsni, ularning bilimga va kasbga bo'lgan qiziqshlarini o'rganishda.
3. Kasb tanlash ishlarining qaysi masalalari boshqalariga nisbatan yosh o'qituvchilar tomonidan yomonroq hal qilinadi?
 - O'quvchilarning bilimga chanqoqligi oshirishda/kasblar haqida axborot berib borishda;
 - Ta'lim-tarbiya berish jarayonida o'quvchining psixologiyasini hisobga olishda/o'quvchi shaxini o'rganishda;
 - Tarbiyaviy ishlarda